# YUHANNO

## BAYON ETGAN MUQADDAS XUSHXABAR

## Kirish

Mazkur kitob Yangi Ahd tarkibidagi toʻrtta Xushxabarning toʻrtinchisidir. Kitobning muallifi Zabadiyoning oʻgʻli baliqchi Yuhannodir. Yuhanno, Butrus va Yuhannoning akasi Yoqub Iso Masihning eng yaqin shogirdlari hisoblanadi. Yuhanno bu kitobda oʻz ismini ishlatmay, oʻzini Iso Masihning sevikli shogirdi deb tilga oladi (masalan, 13:23 ga qarang).

Mazkur kitob zamirida Iso Masihning shaxsiyati, ilohiy Kalom inson boʻlib kelgani, Masihning Oʻz samoviy Otasi — Xudo bilan boʻlgan munosabati va Iso Masihga eʼtiqod qilish kabi mavzular yotadi. Iso Masih odamlarga Oʻzining kimligini tushuntirmoqchi boʻlib, turli obrazlardan foydalanadi. U Oʻzini “hayot noni”, “hayotbaxsh suv manbayi”, “olamning nuri”, “yaxshi choʻpon”, “yoʻl, haqiqat va hayot”, “haqiqiy tok” va “odamlarni oxiratda tiriltiruvchi, ularga hayot beruvchi Zot” deb ataydi.

Bu Xushxabar nima maqsadda yozilgani 20:31 da aytib oʻtilgan: “Toki sizlar Isoning Masih, Xudoning Oʻgʻli* ekanligiga ishonib, bu imoningiz tufayli hayotga ega boʻlinglar.” Muallif Isoning taʼlimotini qiziqarli mantiqiy mulohazalar orqali taqdim etadi, u nur va zulmat, imon va imonsizlik, sevgi va nafrat, osmon va bu dunyo borasida soʻz yuritadi.

Ushbu kitob azaldan mavjud boʻlgan Kalom haqidagi maʼlumot bilan boshlanadi. Ilohiy Kalom dunyo yaratilishidan oldin mavjud boʻlgan. Nimaiki yaratilgan boʻlsa, oʻsha Kalom orqali vujudga kelgan. Xudoning Kalomi inson boʻlib tugʻildi, U Iso Masih edi. Iso Masih zulmatga gʻarq boʻlgan bu dunyoga hayot nurini olib keldi. Masihga ishongan har bir kishi samoviy Otani tanib oladi va abadiy hayotdan bahramand boʻladi.

Kitobning birinchi qismidan (1-12–boblar) Isoning qilgan moʻjizalari oʻrin olgan, muallif Isoni Xudoning Oʻgʻli, Xudo vaʼda qilgan Najotkor ekanligini eʼtirof etadi. Koʻp odamlar Isoga ishonib, Unga ergashadilar. Baʼzilar esa Unga qarshi boʻladilar.

Kitobning 13-17–boblarida Isoning Oʻz shogirdlariga qilgan gʻamxoʻrligiga, Ustoz va shogirdlari orasidagi munosabatga eʼtibor beriladi. Iso xochdagi oʻlimidan oldin, Qutlugʻ ziyofatda shogirdlarini ogohlantirib, yaqinlashayotgan fojiadan qoʻrqmasliklarini aytadi va ularga dalda beradi.

Isoning hibsga olinishi, kaltaklanishi, oʻldirilishi va tirilishi haqidagi hodisalar kitobning soʻnggi qismidan oʻrin olgan (18-21–boblar). Iso tirilgandan keyin bir necha marta shogirdlariga zohir boʻlgani haqidagi voqealar kitobga yakun yasaydi.

## 1–BOB

### Kalom va Nur

1 Azalda Kalom* bor edi.
Kalom Xudo bilan birga edi,
Kalom Xudo edi.
2 Azalda U Xudo bilan birga edi.

© Muqaddas Kitobni tarjima qilish instituti, 2016, 2018, 2020
www.ibt.org.ru; ibt_inform@ibt.org.ru

3 Butun borliq Kalom orqali yaratilgan*,
Usiz yaratilgan biron narsa mavjud emas.

4 Kalom hayot manbayi edi,
Bu hayot insonlarning Nuri edi.
5 Nur zulmatda porlaydi,
Axir, zulmat Nurni yengolmadi.

6 Xudo Yahyo ismli bir odamni yubordi. 7 Yahyo Nur haqida shahodat qilgani kelgan
edi, toki hamma uning shahodati orqali imon keltirsin. 8 Yahyoning oʻzi Nur emas edi, u
faqat Nur haqida shahodat qilgani kelgandi. 9 Har bir odamni yoritadigan haqiqiy Nur
dunyoga kelayotgan edi*.

10 Ha, Kalom dunyoda edi,
Dunyo U orqali yaratilgandi,
Biroq dunyo Uni tanimadi.
11 U Oʻz yurtiga keldi,
Lekin Oʻz xalqi Uni qabul qilmadi.
12 Ammo Uni qabul qilganlarning hammasiga,
Unga imon keltirganlarga,
U Xudoning farzandi boʻlish huquqini berdi.
13 Ular tana xohishidan emas,
Er xohishidan ham emas,
Tabiiy yoʻl bilan emas*,
Balki Xudodan tugʻilgan farzandlardir.

14 Kalom inson boʻldi,
Oramizda yashadi*.
U inoyat va haqiqatga toʻlgandi.
Biz esa Uning ulugʻvorligini koʻrdik.
Bu ulugʻvorlik Otadan* kelgan yagona Oʻgʻilga* mansub edi.

15 Yahyo U haqda guvohlik berib, baland ovozda dedi: “Mening ketimdan kelayotgan
Zot mendan ulugʻdir, chunki U mendan oldin mavjud boʻlgan, deb mana shu Kishi haqida
aytgan edim.”

16 Uning cheksiz inoyati tufayli
Biz hammamiz baraka ustiga baraka oldik.
17 Xudo qonunni Muso orqali berdi,
Inoyat va haqiqatni esa
U Iso Masih orqali koʻrsatdi.
18 Hech kim hech qachon Xudoni koʻrgan emas,
Samoviy Otaning bagʻridagi,
Aslida Xudo boʻlgan yagona Oʻgʻil*
Uni bizga tanitdi.

## Yahyo cho‘mdiruvchining guvohligi

[19-20] Quddusdagi yahudiylar Yahyoning oldiga ruhoniylarni* va levilarni* yubordilar.
Ular kelib, Yahyodan:

— Sen kimsan? — deb so‘radilar. Yahyo javob berishdan bosh tortmadi. U shahodat
berib, ochiq–oydin:

— Men Masih* emasman, — deb aytdi. [21] Yana undan:

— Bo‘lmasa kimsan? Ilyosmisan?* — deb so‘radilar.

— Yo‘q! — dedi u.

— Biz kutayotgan payg‘ambarmisan?* — deb savol berdilar. U yana:

— Yo‘q! — deb javob berdi.

[22] — Unda kimsan? Bizni yuborganlarga javob berishimiz kerak. Sen o‘zing haqingda
nima deysan? — deb so‘radilar.

[23] — Ishayo payg‘ambar aytganiday*: “Egamizga to‘g‘ri yo‘l oching”, deb cho‘lda
yangrayotgan ovoz menman, — dedi Yahyo.

[24] Farziylar* tomonidan yuborilgan bu odamlar* [25] Yahyoga dedilar:

— Modomiki, sen Masih ham, Ilyos ham, biz kutgan payg‘ambar ham emas ekansan,
nega xalqni suvga cho‘mdirib yuribsan?

[26] Yahyo ularga javoban shunday dedi:

— Men odamlarni suvga cho‘mdiryapman, xolos. Lekin orangizda sizlar
tanimaydigan bir Zot bor. [27] U mening ortimdan kelyapti*, shunday bo‘lsa–da, men
Uning choriq iplarini yechishga ham arzimayman.

[28] Bu hodisa Iordan daryosining sharqiy qirg‘og‘idagi Baytaniya* qishlog‘ida yuz
bergan edi. Yahyo o‘sha yerda odamlarni suvga cho‘mdirib yurardi.

## Iso — Xudoning qurbonlik Qo‘zisi

[29] Ertasi kuni Yahyo Isoning yaqinlashib kelayotganini ko‘rib, shunday dedi:

— Ana, Xudoning Qo‘zisi! U dunyoni gunohdan poklaydi! [30] Men ana shu Kishi
haqida: “Mening ketimdan kelayotgan Zot mendan ulug‘dir, chunki U mendan oldin
mavjud bo‘lgan”, deb aytgan edim. [31] Men Uning kimligini bilmas edim. Lekin Uni Isroil
xalqiga tanitish maqsadida, men odamlarni suvga cho‘mdirgani keldim.

[32] Yahyo yana shunday shahodat berdi:

— Men Ruhning osmondan kaptarday uchib kelganini va Uning ustiga qo‘nganini
ko‘rdim. [33] O‘sha paytgacha men Uning kimligini bilmas edim. Lekin “Odamlarni suvga
cho‘mdirasan”, deb meni yuborgan Xudo menga shunday degan edi: “Muqaddas Ruh
kimning ustiga tushib qo‘nganini ko‘rsang, bilki, Muqaddas Ruhga Cho‘mdiruvchi
O‘shadir.” [34] Men buni ko‘rdim va sizlarga: “Bu Xudoning O‘g‘lidir*”, deb aytyapman.

## Isoning dastlabki shogirdlari

[35] Ertasi kuni Yahyo shogirdlarining ikkitasi bilan yana kechagi joyda edi. [36] U o‘tib
ketayotgan Isoga qarab:

— Ana, Xudoning Qo‘zisi! — dedi.

[37] Ikkala shogird Yahyoning bu so‘zlarini eshitib, Isoning orqasidan ergashib
borishdi. [38] Iso o‘girilib, ularning ergashib kelayotganini ko‘rdi–da, ulardan:

— Sizlarga biron narsa kerakmi? — deb so‘radi.

— Ravviy*, Siz qayerda turasiz? — deyishdi ular. (Ravviy “ustoz” demakdir.)

[39] — Yuringlar, ko‘rasizlar, — dedi Iso.

Ular borib, Isoning turar joyini koʻrganlarida, soat toʻrt* boʻlib qolgan edi. Shuning
uchun ular oʻsha kuni Iso bilan qolishdi. 40 Yahyodan Iso haqida eshitib, Unga
ergashganlardan biri Endrus edi. Endrus Shimoʻnning* ukasi edi. 41 U darrov akasi
Shimoʻnni topdi–da, unga:

— Biz Masihni topdik, — dedi. (Masih "Xudoning tanlagani" demakdir.) 42 Endrus
akasini Isoning oldiga olib keldi. Iso unga qarab:

— Sen Yuhanno* oʻgʻli Shimoʻnsan. Sening isming Kifas* boʻladi, — dedi.

(Kifas yunonchada Butrus, yaʼni "tosh" demakdir.)

43 Ertasi kuni Iso Jalila hududiga bormoqchi boʻldi. U Filipni uchratib, unga:

— Ortimdan yur! — dedi.

44 Filip Baytsayda shahridan boʻlib, Endrus va Butrusning hamshahari edi. 45 Filip
Natanilni* topib, unga dedi:

— Muso Tavrot kitobida, boshqa paygʻambarlar ham oʻzlarining bitiklarida* bir Zot toʻgʻrisida yozishgan edi. Biz oʻsha Zotni topdik. U Nosira shahridan, Yusuf oʻgʻli Iso ekan!

46 — Nosira shahridan? U yerdan biron yaxshilik chiqarmidi?! — dedi Natanil unga.

— Yur, koʻrasan! — dedi unga Filip.

47 Iso yaqinlashib kelayotgan Natanilni koʻrib, u haqda shunday dedi:

— Ana Isroilning haqiqiy avlodi. U hiyla degan narsani bilmaydi*.

48 Natanil Isodan soʻradi:

— Siz meni qayerdan taniysiz?

— Filip seni chaqirmasdan oldin, sen anjir daraxtining tagida eding. Men seni oʻsha
yerda koʻrgan edim, — deb javob berdi Iso. 49 Shunda Natanil dedi:

— Ustoz, Siz Xudoning Oʻgʻlisiz! Isroilning Shohisiz!

50 Iso unga javoban dedi:

— Men senga: "Seni anjir daraxti tagida koʻrdim" deganim uchungina ishonyapsan. Sen bundan ham buyuk ishlarni koʻrasan!

51 Soʻng yana shunday deb qoʻshib qoʻydi:

— Sizlarga chinini aytayin: sizlar osmon ochilganini va Xudoning farishtalari Inson Oʻgʻli* oldiga tushib–chiqayotganini koʻrasizlar*.

# 2–BOB

### Isoning dastlabki moʻjizasi

1 Ikki kundan keyin Jaliladagi Kaʼna qishlogʻida nikoh toʻyi boʻldi. Isoning onasi oʻsha
yerda edi. 2 Iso bilan shogirdlari ham toʻyga taklif qilingan edilar.

3 Sharob tugay deb qolganda, onasi Isoga:

— Ularda sharob qolmabdi, — dedi.

4 — Buning Menga nima daxli bor?! Mening vaqt–soatim hali kelgani yoʻq, — dedi
Iso. 5 Shunda onasi xizmatkorlarga:

— U sizlarga nima desa, shuni qilinglar, — dedi.

6 Oʻsha yerda yahudiylarning poklanish marosimlarida ishlatiladigan oltita tosh xum bor edi. Har bir xum ichiga oʻn–oʻn ikki chelak* suv sigʻardi.

7 Iso xizmatkorlarga:

— Xumlarni suvga toʻldiringlar, — dedi. Ular xumlarni limmo–lim qilib suvga

to‘ldirishdi. [8] Iso ularga:

— Endi xumdagi suvdan ozgina olib, to‘yboshiga olib boringlar, — dedi. Ular olib borishdi.

[9] To‘yboshi sharobga aylangan suvni tatib ko‘rdi. Bu sharobning qayerdan kelganligini u bilmas edi, faqat olib kelgan xizmatkorlar bilishar edi. To‘yboshi kuyovni chaqirtirib, [10] unga dedi:

— Dasturxonga avval yaxshi sharob tortiladi. Mehmonlar ichib to‘yganlaridan keyin, yomonrog‘i tortiladi. Sen esa yaxshi sharobni shu paytgacha saqlab kelibsan!

[11] Bu Isoning qilgan birinchi mo‘jizasi edi. Iso bu mo‘jizali alomatni Jaliladagi Ka’na qishlog‘ida namoyish etib, O‘zining ulug‘vorligini zohir qildi. Shogirdlari Unga ishondilar.

[12] Shundan keyin Iso, onasi, ukalari va shogirdlari Kafarnahum shahriga bordilar va u yerda bir necha kun turdilar.

### Iso savdogarlarni Ma’baddan quvadi

[13] Yahudiylarning Fisih bayrami* yaqinlashib qolgani uchun Iso Quddus shahriga
bordi. [14] Ma’bad hovlisiga kirganda, u yerda mol–qo‘y, kaptar sotayotganlarni va
xontaxtalar yonida o‘tirgan sarroflarni* ko‘rdi. [15] Iso arqondan qamchi yasadi–da,
Ma’baddan hammani mol–qo‘ylari bilan birga quvib chiqardi. Sarroflarning
xontaxtalarini ag‘darib, pullarini sochib yubordi. [16] Kaptar sotuvchilarga:

— Bularni yo‘qotinglar bu yerdan! Otamning uyini bozor qilmanglar! — dedi.
[17] Shunda Uning shogirdlari Muqaddas bitiklardagi: “Sening uyingga bo‘lgan sevgim ichimni yondirar”* degan so‘zlarni esladilar.

[18] — Bunday qilishga nima haqing bor?! Bordi–yu, haqing bo‘lsa, bironta alomat ko‘rsatib, buni isbotla! — deb talab qila boshladi yahudiylar.

[19] Iso shunday javob berdi:

— Mana bu Ma’badni buzinglar, Men uch kun ichida uni tiklayman.

[20] Bunga javoban yahudiylar dedilar:

— Bu Ma’bad qirq olti yildan beri qurilyapti*, Sen esa uni uch kunda tiklamoqchimisan–a?!

[21] Holbuki, Iso Ma’bad deb O‘zining badanini nazarda tutgan edi. [22] Iso o‘lib
tirilgandan keyin, shogirdlari Uning bu gapini esladilar. Shunda Muqaddas bitiklarga va Isoning so‘zlariga ishondilar.

[23] Iso Quddusda Fisih bayramida bo‘lganda, ko‘p odamlar Uning qilayotgan mo‘jizali
alomatlarini ko‘rib, Unga imon keltirdilar. [24] Ammo Iso odamlarning qanaqaligini bilgani
uchun O‘zini ularga ishonmas edi. [25] Inson haqida Unga biron gap aytishning hojati yo‘q
edi. Chunki inson dilida nima borligini U bilar edi.

## 3–BOB

### Iso va Nikodim

[1] Yahudiy yo‘lboshchilaridan Nikodim ismli bir odam bor edi, u farziylar mazhabida
edi. [2] Bu odam bir kuni kechasi Isoning oldiga kelib, Unga dedi:

— Ustoz, Siz Xudodan kelgan bir muallim ekanligingizni biz bilamiz. Agar Xudo Siz bilan bo‘lmaganda edi, Siz bunday mo‘jizali alomatlarni qila olmas edingiz.

[3] Iso unga shunday javob berdi:

— Sizga chinini aytay: qaytadan* tugʻilmagan bironta odam Xudoning Shohligini*
koʻrolmaydi.
4 — Keksa odam tugʻila olarmidi?! U onasining qorniga qayta kirib, yana tugʻila
olmaydi–ku! — dedi Nikodim. 5 Iso shunday javob berdi:
— Sizga chinini aytay: suvdan va Ruhdan tugʻilmagan bironta odam Xudoning
Shohligiga kirolmaydi. 6 Odam jismonan ota–onadan tugʻiladi, ruhan esa Muqaddas
Ruhdan tugʻiladi. 7 “Sizlar qaytadan tugʻilishingiz kerak” deganimga taajjublanmang.
8 Ruh xuddi shamolga oʻxshaydi. Shamol istagan joyda esaveradi. Uning tovushini
eshitasiz–u, lekin qaysi tomondan kelib, qaysi tomonga ketishini bilmaysiz. Ruhdan
tugʻilgan har bir kishida ham shunday boʻladi.
9 — Bu qanday boʻlishi mumkin? — deb soʻradi Nikodim. 10 Iso unga shunday javob
berdi:
— Siz Isroilning ustozisiz–ku! Nahotki shuni bilmasangiz?! 11 Sizga chinini aytay: biz
bilganimizni soʻzlaymiz, koʻrganimiz haqida shahodat beramiz. Lekin sizlar bizning
shahodatimizni qabul qilmayapsizlar. 12 Agar sizlar yerdagi narsalar haqida
aytganlarimga ishonmasangizlar, samoviy narsalar toʻgʻrisida gapirganlarimga qanday
ishonasizlar? 13 Osmondan tushgan* Inson Oʻgʻlidan boshqa hech kim osmonga chiqqan
emas. 14 Muso sahroda bronza ilonni* xodaga mahkamlab, qanday yuqoriga koʻtargan
boʻlsa, Inson Oʻgʻli ham xuddi shunday yuqoriga koʻtarilishi kerak*. 15 Shu tariqa imonga
kelgan har bir kishi U orqali abadiy hayotga ega boʻladi*.
16 Zero*, Xudo olamni shunchalik sevdiki, Oʻzining yagona Oʻgʻlini berdi. Toki Unga
ishonganlardan birontasi halok boʻlmasin, balki abadiy hayotga ega boʻlsin. 17 Xudo
dunyoni hukm qilish uchun emas, balki Oʻgʻli orqali qutqarish uchun Uni dunyoga
yubordi. 18 Unga ishongan odam hukm qilinmaydi. Unga ishonmagan odam esa
allaqachon mahkum boʻlgan, chunki u Xudoning yagona Oʻgʻliga ishonmadi.
19 Hukm shunday dalilga asoslangan: dunyoga nur keldi, ammo odamlar nurdan
koʻra, zulmatni yaxshi koʻrdilar, chunki ularning qilmishlari yovuz edi. 20 Qabihlik qilgan
odam nurdan nafratlanadi. Qilmishlari fosh boʻlmasligi uchun u nurdan qochadi.
21 Haqiqat yoʻlini tutgan odam esa nurga keladi. Bunday odamning ishlari Xudo orqali
qilinganligini nur hammaga ayon qiladi.

### Yahyo choʻmdiruvchi Iso Masih haqida guvohlik beradi

22 Shundan keyin Iso shogirdlari bilan Yahudiya oʻlkasiga bordi. Iso ular bilan bir
qancha vaqt u yerda qolib, odamlarni suvga choʻmdirdi. 23 Yahyo ham Saleym degan
joyning yaqinidagi Eynon yerida* xalqni suvga choʻmdirardi. U yer nihoyatda sersuv edi.
Odamlar doim Yahyoning oldiga kelib, suvga choʻmdirilardi. 24 Bu hodisalar Yahyo
zindonga tashlanishdan* oldin yuz bergan edi.
25 Shu mahal Yahyoning shogirdlari bilan bir yahudiy kishi orasida tahorat haqida
bahs boʻldi. 26 Ular Yahyoning oldiga borib dedilar:
— Ustoz! Iordan daryosining sharqiy qirgʻogʻida yoningizdagi bir Odam haqida
guvohlik bergan edingiz–ku, oʻsha Odam xalqni suvga choʻmdirib yuribdi, hamma Uning
oldiga boryapti.
27 Bunga javoban Yahyo dedi:
— Agar osmondan berilmasa, inson hech narsa qila olmaydi. 28 “Men Masih
emasman, faqat Uning oldidan yuborilganman”, deb aytgan soʻzlarimga oʻzlaringiz

guvohsizlar. [29] Kelin kuyovga tegishlidir. Kuyov jo‘ra esa kuyov yonida turib, uning
ovozini eshitganidan sevinib xursand bo‘ladi. Xuddi shunday men ham bugun benihoyat
shodman. [30] Masih yuksalishi, men esa pasayishim kerak.
[31] Yuqoridan* kelgan Zot hammadan ustundir. Yerdan bo‘lgan odam yerga
mansubdir va yerga xos masalalar to‘g‘risida gapiradi. Osmondan Kelgan esa hammadan
ustundir. [32] U ko‘rgani va eshitgani haqida guvohlik beradi, ammo hech kim Uning
guvohligini qabul qilmaydi. [33] Uning guvohligini qabul qilgan kishi esa Xudoning
haqligini tasdiqlaydi. [34] Xudo yuborgan Zot Xudoning so‘zlarini gapiradi. Zero, Xudo O‘z
Ruhini Unga cheksiz–o‘lchovsiz beradi. [35] Ota O‘g‘lini yaxshi ko‘radi, U hamma narsani
O‘g‘lining qo‘liga topshirgan. [36] Xudoning O‘g‘liga* ishongan har bir odam abadiy
hayotga ega bo‘ladi. O‘g‘ilni rad etgan odam esa hayot ko‘rmay, Xudoning g‘azabi ostida
qoladi.

# 4–BOB

### Iso va Samariyalik ayol

[1-3] Iso Yahyodan ko‘ra, ko‘proq shogird orttirib, suvga cho‘mdiryapti degan xabar
farziylarning qulog‘iga yetib bordi. Vaholanki, xalqni Isoning O‘zi emas, shogirdlari
suvga cho‘mdirayotgan edilar. Bu xabar farziylarning qulog‘iga yetib borganini Iso
eshitgach, Yahudiyani tark etib, yana Jalilaga yo‘l oldi. [4] Yo‘lda U Samariyadan o‘tishi
kerak edi. [5] Shunday qilib, U Samariyaning Sixar degan shahriga keldi. Bu shahar Yoqub*
o‘z o‘g‘li Yusufga bergan yerga yaqin edi. [6] Yoqubning qudug‘i ham o‘sha yerda edi.
Yo‘l yurib charchagan Iso quduqning yoniga o‘tirdi. Taxminan tush payti* edi. [7] Shu
vaqt Samariyalik bir ayol suv olgani kelib qoldi. Iso unga:
— Menga ichgani suv ber, — dedi. [8] Isoning shogirdlari esa ovqat sotib olish uchun
shaharga ketgan edilar.
[9] Samariyalik ayol Unga shunday dedi:
— Siz yahudiy bo‘lsangiz, men esa Samariyalik ayol bo‘lsam, qanday qilib mendan
suv so‘rashga jur’at etdingiz?!*
Nega desangiz, yahudiylar Samariyaliklar bilan aloqa qilmaydilar.
[10] Iso ayolga dedi:
— Xudo senga qanday in’om bermoqchi ekanligini va sendan suv so‘ragan Odam kim
ekanligini sen bilmaysan. Bilganingda edi, o‘zing Undan suv so‘ragan bo‘lar eding va U
senga hayotbaxsh suvni bergan bo‘lardi.
[11] — Taqsir! — dedi ayol, — Sizda suv oladigan hech narsangiz yo‘q–ku, quduq esa
chuqur. Hayotbaxsh suvingizni qayerdan olasiz? [12] Bu quduqni bizga bobokalonimiz
Yoqub bergan. Uning o‘zi ham, bolalari ham, chorvasi ham bu quduqdan suv ichgan.
Nahotki Siz Yoqubdan ham ustun bo‘lsangiz?!
[13] Iso ayolga shunday javob berdi:
— Bu suvdan kim ichsa, yana chanqab qoladi. [14] Lekin Men beradigan suvdan kim
ichsa, abadiy chanqamaydi. Men beradigan suv o‘sha odamning vujudida buloqqa
aylanib, to abad hayot sari jo‘shib oqadi.
[15] — Taqsir, bu suvdan menga ham bering. Men ham hech qachon chanqamayin, suv
olgani bu yerga kelavermayin, — dedi ayol.
[16] — Borib, eringni bu yerga chaqirib kel, — dedi Iso.

[17] — Mening erim yoʻq, — dedi ayol.
— Erim yoʻq, deb sen toʻgʻrisini aytding, — dedi Iso. [18] — Sening besh nafar ering
boʻlgan, hozirgisi ham ering emas. Sen toʻgʻrisini aytding!
[19] — Hazrat*, Siz paygʻambar ekaningizni koʻrib turibman, — dedi ayol. [20] — Ota–
bobolarimiz Xudoga bu togʻda* sajda qilar edilar. Ammo sizlar — yahudiylar esa Xudoga
sajda qilinadigan joy Quddusda, deysizlar.
[21] Iso unga dedi:
— Ey ayol, Menga ishongin, shunday vaqt keladiki, oʻshanda osmondagi Otaga na bu
togʻda, na Quddusda sajda qilasizlar. [22] Sizlar — Samariyaliklar kimga sajda
qilayotganingizni bilmaysizlar*, biz esa kimga sajda qilayotganimizni bilamiz. Chunki
najot yahudiylardan keladi. [23] Ammo shunday vaqtlar keladiki, haqiqiy sajda qiluvchilar
Otaga Ruhda va haqiqatda sajda qiladilar. Bunday vaqt keldi ham! Ota shu yoʻsinda
Oʻziga sajda qiluvchilarni izlaydi. [24] Xudo Ruhdir, Unga sajda qiluvchilar ham Muqaddas
Ruh boshchiligida, haqiqatni bilgan holda sajda qilishlari lozim.
Аёл Исога:
— Мен Масиҳ келишини биламан. У келганда, ҳамма нарсани бизга
тушунтиради, — деди. (Масиҳ “Худонинг танлагани” демакдир.)
[25] Ayol Isoga:
— Men Masih kelishini bilaman. U kelganda, hamma narsani bizga tushuntiradi, —
dedi. (Masih “Xudoning tanlagani” demakdir.)
[26] Iso ayolga dedi:
— Oʻsha Menman. Sen bilan gaplashib turibman.
[27] Shu paytda Isoning shogirdlari kelib qolishdi. Uning bir ayol bilan
gaplashayotganini koʻrib hayron boʻlishdi. Lekin birortasi ham: “Nima xohlaysiz?” yoki:
“Nimaga bu ayol bilan gaplashyapsiz?” deb soʻramadi.
[28] Ayol koʻzasini oʻsha yerda qoldirdi–da, shaharga borib, odamlarga dedi:
[29] — Yuringlar, bir Odamni koʻringlar. U mening qilgan hamma ishlarimni aytib
berdi! Oʻsha Masih emasmikin?
[30] Odamlar shahardan chiqib, Isoning oldiga bordilar.
[31] Shu orada shogirdlari Isoga:
— Ustoz, ovqat yeb oling, — deb taklif qildilar. [32] Ammo Iso ularga dedi:
— Mening yeydigan ovqatim bor, sizlar bu ovqat toʻgʻrisida bilmaysizlar.
[33] Shogirdlari oʻzaro gaplashib: “Biron kishi Unga ovqat keltirganmikin?” deb
aytishardi. [34] Iso ularga dedi:
— Mening ovqatim — Meni Yuborganning irodasini ado etish, Uning ishini
tugatishdir. [35] Sizlar: “Ekinlar toʻrt oyda yetiladi” degan iborani ishlatasizlar. Men esa
sizlarga aytaman: koʻzlaringizni ochinglar! Ekinzorlarga qaranglar! Hosil yetilgan,
oʻrim–yigʻimga tayyor boʻlgan. [36] Oʻroqchi hozirdan yaxshi daromad olmoqda, abadiy
hayot uchun hosil yigʻmoqda. Toki hosilni ekkan va oʻrgan birga quvonishsin. [37] “Biri
ekadi, boshqasi oʻradi” degan maqol shu vaziyatga toʻgʻri keladi. [38] Men sizlarni oʻzingiz
mehnat qilib ekmagan hosilni oʻrgani yubordim. Boshqalar mehnat qilgan edilar, sizlar
esa ularning mehnatidan foydalanasizlar.
[39] Shundan keyin oʻsha shaharda yashovchi talay Samariyaliklar Isoga imon
keltirishdi. Ular haligi ayolning “U mening qilgan hamma ishlarimni aytib berdi” degan
guvohligiga ishongan edilar. [40] Shunday qilib, Samariyaliklar Isoning oldiga kelib: “Biz

bilan qoling”, deb Isoga yolvorishdi. Iso ikki kun oʻsha yerda qoldi. [41] Isoning aytgan
soʻzlari tufayli koʻp odamlar imon keltirdi. [42] Shunda ular ayolga dedilar:
— Endi sening soʻzlaring tufayligina ishonayotganimiz yoʻq. Uni oʻzimiz ham eshitdik. U haqiqatan ham olamning Najotkori ekanligiga amin boʻldik*.

### Iso amaldorning oʻgʻlini sogʻaytiradi

[43] Ikki kundan keyin Iso u yerdan Jalila hududiga joʻnab ketdi. [44] U: “Paygʻambar oʻz
yurtida e’tibor topmaydi”, deb ta’kidlagandi. [45] Jalilaga kelganda esa, aholi Uni ochiq
chehra bilan kutib oldi. Chunki ular Fisih bayrami uchun Quddusga borganlarida, u yerda Isoning qilgan hamma ishlarini koʻrgan edilar.
[46] Shunday qilib, Iso yana Jaliladagi Ka’na qishlogʻiga keldi. Bu yerda U suvni
sharobga aylantirgan edi. Oʻsha paytda Kafarnahum shahrida bir saroy amaldorining*
oʻgʻli kasal boʻlib yotgan edi. [47] Bu odam Isoning Yahudiyadan Jalilaga kelganligini
eshitib, Uning oldiga bordi. Isoga:
— Yuring, oʻlim toʻshagida yotgan oʻgʻlimga shifo bering, — deb yolvordi.
[48] — Sizlar alomatu moʻjizalar koʻrmaguncha ishonmaysizlar! — dedi unga Iso.
[49] — Yura qoling Hazrat, oʻgʻilginam oʻlib qolmasin! — dedi saroy amaldori Unga.
[50] — Siz boravering. Oʻgʻlingiz sogʻ–salomat, — dedi Iso.
U odam Isoning aytganiga ishonib, joʻnab ketdi. [51] U hamon yoʻlda ekan,
xizmatkorlari unga peshvoz chiqib:
— Oʻgʻlingiz sogʻ–salomat, — degan xabar keltirdilar.
[52] — Qaysi soatda ahvoli yengillashdi? — deya soʻradi u.
— Kecha tushda, soat birlarda* isitmasi tushdi, — deyishdi xizmatkorlar.
[53] “Oʻgʻlingiz sogʻ–salomat” degan soʻzlarni Iso aynan oʻsha vaqtda aytganini bolaning otasi angladi. Shunda oʻzi va butun xonadoni Isoga imon keltirdi.
[54] Bu esa Isoning Yahudiyadan Jalilaga kelib koʻrsatgan ikkinchi moʻjizali alomati edi.

## 5–BOB

### Iso sholni sogʻaytiradi

[1] Bu hodisalardan keyin Iso yahudiylarning bayramini nishonlash uchun Quddusga
bordi. [2] Quddusning Qoʻy darvozasi yonida bir hovuz bor edi. Bu hovuzning oramiycha*
nomi Baytzada* boʻlib, beshta ayvoni bor edi. [3-4] Bu ayvonlarda koʻr, choʻloq va shol
boʻlgan koʻp nogironlar yotar edi*. [5] Bu yerda oʻttiz sakkiz yildan beri nogiron boʻlib
yotgan bir kishi bor edi. [6] Iso uning yotganini koʻrdi, u uzoq vaqtdan beri xasta ekanligini Iso bilardi. Shuning uchun undan:
— Sogʻayishni istaysanmi? — deb soʻradi. [7] Nogiron odam Isoga shunday javob
berdi:
— Taqsir, suv qimirlaganda meni hovuzga tushiradigan odam yoʻq. Men borgunimcha, boshqasi mendan oldin tushib oladi.
[8] Iso unga shunday dedi:
— Oʻrningdan tur! Toʻshagingni olib, yur!
[9] Oʻsha odam shu zahoti sogʻayib ketdi. Toʻshagini olib, yura boshladi.
Bu hodisa Shabbat kuni sodir boʻldi. [10] Shuning uchun yahudiylar sogʻayib ketgan
odamga deyishdi:
— Bugun Shabbat kuni! Shu kuni toʻshakni koʻtarib yurish qonunda man etilgan!*

[11] U odam esa shunday javob berdi:
— Meni sog‘aytirgan Kishi menga: “To‘shagingni olib, yur”, deb aytdi.
[12] — “To‘shagingni olib, yur”, deb aytgan Odam kim? — deb so‘radilar. [13] Shifo
topgan odam esa Uning kimligini bilmas edi, u yerda xalq ko‘pligidan Iso O‘zini chetga
olgan edi.
[14] Keyinroq Iso u odamni Ma’badda uchratib qolib, unga dedi:
— Mana, sen sog‘ayding. Endi gunoh qilma, tag‘in boshingga bundan battar kunlar
kelmasin.
[15] Bu odam borib, uni sog‘aytirgan Iso ekanligini yahudiylarga aytdi. [16] Ular esa, Isoni
Shabbat kunida bunday ishlar qilib yurgani uchun quvg‘in qila boshladilar*. [17] Ammo Iso
ularga shunday dedi:
— Mening Otam shu kungacha O‘z ishini qilib kelyapti, Men ham O‘z ishimni
qilyapman, — dedi.
[18] Ana shu so‘zi uchun yahudiylar Isoni o‘ldirishga yanada ko‘proq harakat qilishdi.
Chunki U nafaqat Shabbat qoidalarini buzdi, balki Xudoni Otam deb, O‘zini Xudoga
tenglashtirgan edi.

## O‘g‘ilning hokimiyati

[19] Iso yahudiylarga shunday dedi: “Sizlarga chinini aytay: O‘g‘il O‘zidan–O‘zi hech
narsa qila olmaydi. Faqat Otasidan ko‘rgan ishlarni qiladi. Osmondagi Ota nimalarni
qilsa, O‘g‘il ham xuddi shularni qiladi. [20] Axir, Ota O‘g‘lini yaxshi ko‘radi, O‘zi qilgan
hamma ishlarni O‘g‘liga ko‘rsatadi. U O‘g‘liga bundan ham buyukroq ishlarni ko‘rsatadi,
shunda hammangiz hayron qolasizlar. [21] Ota o‘liklarni tiriltirib, ularga hayot baxshida
etganday, O‘g‘il ham istagan odamiga hayot baxsh etadi. [22] Shuningdek, Ota hech kimni
hukm qilmaydi, balki hukm qilish huquqini O‘g‘liga bergan, [23] toki hamma osmondagi
Otani hurmat qilganday, O‘g‘lini ham hurmat qilsinlar. Kim O‘g‘ilni hurmat qilmasa, Uni
yuborgan Otani ham hurmat qilmagan bo‘ladi.
[24] Sizlarga chinini aytay: Mening so‘zlarimni tinglagan va Meni Yuborganga ishongan
kishi abadiy hayotga egadir. U hukm qilinmaydi. Zotan, u o‘limdan hayotga o‘tgan.
[25] Sizlarga chinini aytay: o‘liklar Xudo O‘g‘lining* ovozini eshitadigan vaqt keladi, kelib
qoldi ham. O‘g‘ilning ovoziga quloq solganlar tiriladi. [26] Zero, Otaning O‘zi hayot
manbayi bo‘lgani kabi, O‘g‘liga ham hayot manbayi bo‘lish qudratini ato qildi. [27] Bundan
tashqari, samoviy Ota insonlarni hukm qilish hokimiyatini O‘g‘liga berdi, chunki U Inson
O‘g‘lidir. [28] Bunga hayron qolmanglar! Qabrda yotgan marhumlarning hammasi Inson
O‘g‘lining ovozini eshitadigan vaqt keladi. [29] Shunda o‘liklar qabrlaridan chiqadilar:
yaxshilik qilganlar yashash uchun tiriladi, yomonlik qilganlar esa mahkum bo‘lish uchun
tiriladi.

## Iso haqida Xudoning bergan guvohligi

[30] Men O‘zimdan O‘zim hech narsa qilolmayman. Osmondagi Otam Menga qanday
aytsa, shunday hukm qilaman, shuning uchun hukmim to‘g‘ridir. Zotan, Men O‘z
irodamni emas, balki Meni yuborgan Otamning irodasini bajo keltirishni istayman.
[31] Agar Men O‘zim haqimda O‘zim guvohlik bersam, Mening guvohligim haqiqiy
bo‘lmaydi. [32] Ammo Men haqimda guvohlik beruvchi boshqasi bor. Uning bergan
guvohligi haqiqat ekanligini bilaman.
[33] Sizlar Yahyoning oldiga odam yubordingizlar, u haqiqat to‘g‘risida guvohlik berdi.

[34] Garchi Men insonning guvohligiga muhtoj boʻlmasam–da, lekin bularni sizlar najot
topishingiz uchun aytyapman. [35] Yahyo goʻyo yonib turib, nur sochgan bir chiroqday edi.
Sizlar esa uning nurida birpas quvonmoqchi boʻldingizlar. [36] Biroq Men Yahyodan koʻra,
kattaroq guvohlikka egaman. Guvohlik deb, Men tugatishim uchun osmondagi Otam
bergan ishlarni nazarda tutyapman. Bularning hammasi Meni Otam yuborganidan
dalolat beradi.
[37] Meni yuborgan Otamning Oʻzi ham Men haqimda guvohlik berib turibdi. Sizlar esa
hech qachon Uning ovozini eshitmagansiz, qiyofasini ham koʻrmagansiz. [38] Uning kalomi
ham koʻnglingizdan joy olmadi, chunki sizlar U yuborgan Zotga ishonmayapsizlar.
[39] Sizlar Muqaddas bitiklarni* tekshirasizlar, chunki ular orqali abadiy hayotga ega
boʻlamiz, deb oʻylaysizlar. Ammo oʻsha Yozuvlar Men toʻgʻrimda guvohlik beradi–ku!
[40] Sizlar esa hayotga ega boʻlish uchun oldimga kelishni istamaysizlar.
[41] Men insonlardan tahsin kutmayman. [42] Lekin sizlarni bilaman, qalbingizda
Xudoning sevgisi yoʻq. [43] Men Otamning nomidan keldim, ammo sizlar Meni qabul
qilmayapsizlar. Agar kimdir oʻz nomidan kelsa, uni qabul qilaverasizlar. [44] Sizlar bir–
biringizdan tahsinlar olishni yaxshi koʻrasizlar, lekin yagona Xudoning tahsiniga sazovor
boʻlishga harakat qilmaysizlar. Qanday qilib ham Menga ishona olardingiz?! [45] Men
sizlarni Ota oldida ayblayman, deb oʻylamanglar. Sizlar Musoga umid bogʻlagansizlar.
Musoning oʻzi sizlarni ayblaydi. [46] Agar Musoga ishonganingizda edi, Menga ham
ishongan boʻlar edingizlar. Axir, u Men haqimda yozgan edi. [47] Musoning yozuvlariga
ishonmagan boʻlsangiz, Mening soʻzlarimga qanday ishonasizlar?!”

# 6–BOB

### Iso 5000 kishini toʻydiradi

[1] Shundan keyin Iso qayiqda Jalila koʻlining narigi qirgʻogʻiga* suzib oʻtdi (Jalila
koʻlini Tiberiyas koʻli deb ham atashardi). [2] Bir talay xaloyiq Isoning orqasidan ergashib
borardi. Chunki Iso moʻjizali alomatlar orqali xastalarni sogʻaytirganini ular koʻrgan
edilar. [3] U shogirdlari bilan toqqa chiqib oʻtirdi. [4] Yahudiylarning Fisih bayrami
yaqinlashayotgan edi.
[5] Iso qarasa, bir talay xaloyiq U tomonga kelayotgan ekan. Iso Filipdan:
— Bu odamlarni toʻygʻazish uchun qayerdan non sotib olamiz? — deb soʻradi. [6] Iso
bu gapni Filipni sinab koʻrish uchun aytayotgan edi, aslida nima qilishni Oʻzi bilar edi.
[7] Filip shunday javob berdi:

— Bularning har biriga bir burda non berish uchun ikki yuz kumush tangaga* non sotib olsak ham yetmaydi!

[8] Shunda shogirdlaridan biri, Butrusning* ukasi Endrus Isoga dedi:
[9] — Bu yerdagi bir bolada beshta arpa non bilan ikkita baliq bor ekan. Lekin shuncha
odamga bu nima ham boʻlar edi?!
[10] — Odamlarni yerga oʻtqazinglar, — dedi Iso.
U yer qalin maysazor edi. Odamlarning hammasi yerga oʻtirishdi. Olomon orasida
taxminan besh mingga yaqin erkak bor edi. [11] Iso nonlarni olib, shukrona duosini oʻqidi.
Soʻng oʻtirganlarning hammasiga tarqatdi*. Baliqlarni ham xuddi shunday qildi. Odamlar
istaganlaricha yedilar.
[12] Hammalari yeb toʻyganlaridan keyin, Iso shogirdlariga shunday dedi:

— Ortib qolgan non burdalarini yigʻib olinglar, isrof boʻlmasin.
13 Shogirdlar yeyilgan beshta arpa nondan ortib qolgan burdalarni yigʻib olishdi, oʻn
ikkita savat toʻldi. 14 Shunda odamlar Isoning qilgan moʻjizali alomatini koʻrib:
— Haqiqatan ham dunyoga kelishi kerak boʻlgan paygʻambar* mana shu Kishi ekan,
— dedilar. 15 Ular Isoni zoʻrlik bilan shoh qilib koʻtarmoqchi boʻldilar. Buni bilgan Iso
yolgʻiz Oʻzi toqqa chiqib ketdi.

**Iso suv ustida yuradi**

16 Kechki payt Isoning shogirdlari koʻl boʻyiga bordilar. 17 Qorongʻi tushgan, Iso esa
hali ham ularning oldiga kelmagan edi. Shogirdlar qayiqqa tushib, koʻlning narigi
tomonidagi* Kafarnahumga qarab yoʻl oldilar. 18 Kuchli shamol esib, koʻl toʻlqinlanib
ketayotgan edi. 19 Ular qirgʻoqdan besh chaqirimcha* masofani suzganlaridan keyin, koʻl
yuzida yurib kelayotgan Isoni koʻrishdi. U qayiqqa yaqinlashayotgan edi, shogirdlar
qattiq vahimaga tushishdi.
20 — Qoʻrqmanglar, bu Menman! — dedi ularga Iso.
21 Ular Isoni qayiqqa olmoqchi boʻldilar. Oʻsha zahoti qayiq ular borayotgan
qirgʻoqqa yetib toʻxtadi.

**Iso — hayot noni**

22 Ertasi kuni xalq Isoni qidira boshladi. Odamlar u yerda faqat bir qayiq borligini va
shogirdlar Isoni qoldirib, oʻzlari qayiqda suzib ketganlarini bilishardi. 23 Shu payt
Tiberiyasdan* boshqa qayiqlar kelib qoldi. Qayiqlar toʻxtagan joy Rabbimiz Iso Oʻz
shukrona duosini oʻqigan va xalq non yegan yerga yaqin edi. 24 Odamlar Iso bilan
shogirdlarining u yerda yoʻqligini koʻrgach, qayiqlarga tushib, Isoni qidirib
Kafarnahumga suzib kelishdi. 25 Ular Isoni koʻlning narigi boʻyidan* topib, Undan
soʻrashdi:
— Ustoz, Siz qachon bu yerga keldingiz?
26 Iso ularga shunday javob berdi:
— Sizlarga chinini aytayin: sizlar moʻjizali alomatlarni koʻrganingiz uchun emas,
balki non yeb toʻyganingiz uchun Meni qidiryapsizlar. 27 Siz oʻtkinchi ozuqa uchun emas,
abadiy hayotga boshlovchi boqiy ozuqa uchun harakat qilinglar. Bunday ozuqani
sizlarga Inson Oʻgʻli beradi. Zotan, Otamiz Xudoning Oʻzi bu vazifa uchun Uni maʼqul deb
topdi.
28 Odamlar Isoga shunday savol berishdi:
— Xudoga maʼqul ishlarni bajarish uchun nima qilishimiz kerak?
29 Iso dedi:
— Xudoga maʼqul ish qilmoqchi boʻlsangizlar, Xudo yuborgan Zotga ishoninglar.
30 Ular Isoga javoban shunday dedilar:
— Sizga ishonishimiz uchun birorta alomat koʻrsating. Qani, biz uchun nima ish
qilasiz? 31 Axir, ota–bobolarimiz sahroda manna* yeganlar. Muqaddas bitiklarda: “Xudo
ularga yesin deb, osmondan non berdi”*, deb yozilgan–ku.
32 Iso ularga dedi:
— Sizlarga chinini aytayin, sizlarga osmondan non bergan Muso emas. Osmondan
tushgan haqiqiy nonni sizlarga Mening Otam beradi. 33 Otam Xudo beradigan non
osmondan tushib, dunyoga hayot baxsh etadi.
34 Odamlar Isoga shunday dedilar:

— Hazrat, bunday nonni bizga doim berib turing!
[35] Iso javoban dedi:
— Men hayot noniman. Mening oldimga kelgan odam sira och qolmaydi, Menga
ishongan odam hech qachon chanqamaydi. [36] Ammo Men sizlarga aytganimday, sizlar
Meni koʻrgan boʻlsangizlar ham, ishonmayapsizlar. [37] Samoviy Otam Menga bergan har
bir odam Mening oldimga keladi. Oldimga kelgan bironta odamni Men aslo haydab
yubormayman. [38] Men Oʻz irodamni emas, balki Meni yuborgan Otamning irodasini ado
etish uchun osmondan tushganman. [39] Otamning irodasi shundan iboratki, U Menga
berganlardan birontasining ham yoʻqolishiga Men yoʻl qoʻymasligim kerak, balki
oxiratda ularning hammasini tiriltirishim kerak. [40] Ha, Oʻgʻilga koʻz tikkan va Unga
ishongan har bir odam abadiy hayotga ega boʻlishi Otamning irodasidir. Men bunday
odamlarni oxiratda tiriltiraman.
[41] Iso: “Men osmondan tushgan nonman” degani uchun yahudiylar Undan norozi
boʻla boshlashdi. [42] Ular oʻzaro shunday deb aytishardi:
— Bu Yusufning oʻgʻli Iso–ku! Ota–onasini taniymiz, qanday qilib: “Men osmondan tushdim”, deb aytishga haddi sigʻdi?!
[43] — Bunday gaplaringizni bas qilinglar! — dedi ularga Iso. [44] — Agar Meni yuborgan
Ota birovni jalb qilmasa, u Menga kelolmaydi. Oldimga kelgan odamni esa Men oxiratda
tiriltiraman. [45] Paygʻambarlar bitiklarida: “Ularning hammasiga Xudo taʼlim beradi”*,
deb yozilgan. Otaga quloq solgan, Undan oʻrgangan har bir odam Mening oldimga keladi.
[46] Aslida hech kim hech qachon samoviy Otani koʻrgan emas, birgina Xudodan boʻlgan
Zot Otani koʻrgan. [47] Sizlarga chinini aytaman: kim Menga ishonsa, abadiy hayotga ega
boʻladi. [48] Men hayot noniman. [49] Ota–bobolaringiz sahroda manna yegandilar, shunga
qaramay oʻlib ketdilar. [50] Ammo osmondan tushadigan bu non esa shunday xislatga
egaki, undan yegan odam oʻlmaydi. [51] Men osmondan tushgan hayotbaxsh nondirman.
Bu nonni yegan kishi abadiy yashaydi. Dunyoga hayot baxshida etish uchun beradigan nonim Mening tanamdir.
[52] Shunda yahudiylar:
— U qanday qilib bizga Oʻzining tanasini yedira olar ekan? — deb oʻzaro talashib–
tortisha boshladilar. [53] Iso ularga dedi:
— Sizlarga chinini aytaman: agar Inson Oʻgʻlining tanasini yemasangizlar va Uning
qonini ichmasangizlar, sizda hayot boʻlmaydi. [54] Mening tanamni yegan va qonimni
ichgan odam esa abadiy hayotga egadir. Men uni oxiratda tiriltiraman. [55] Mening tanam
— haqiqiy ozuqa, qonim haqiqiy ichimlikdir. [56] Tanamni yeb, qonimni ichadigan odam
Menda, Men esa unda yashayman. [57] Modomiki, Meni barhayot Ota yuborgan ekan, Men
Ota tufayli yashayman. Mening tanamni yegan har bir odam esa Men tufayli yashaydi.
[58] Osmondan tushgan non mana shudir. Bu non ota–bobolaringiz yegan mannaga oʻxshamaydi, ular manna yeb oʻlib ketganlar. Men bergan nonni yegan odam esa abadiy yashaydi.

**Abadiy hayot baxsh etuvchi soʻzlar**

[59] Iso bu soʻzlarni Kafarnahumdagi sinagogada taʼlim berayotganda aytgan edi.
[60] Uning koʻplab shogirdlari bu gaplarni eshitib:
— Qanchalik qattiq soʻzlar! Bularni kim hazm qila oladi?! — deyishar edi.
[61] Shogirdlari norozi boʻlganlarini Iso bilardi, shuning uchun U shunday dedi:

— Gaplarim jigʻingizga tegyaptimi? [62] Agar sizlar Inson Oʻgʻlining asli kelgan joyiga
— osmonga koʻtarilib ketayotganini koʻrsangizlar, nima der ekansizlar–a?! [63] Xudoning
Ruhi hayot baxsh etadi, insonning kuchi bilan esa hech narsaga erishib boʻlmaydi.
Sizlarga aytgan bu soʻzlarimni Menga Xudoning Ruhi bergan, bu soʻzlarim sizlarga hayot
ato qiladi. [64] Shunga qaramay, orangizda Menga ishonmaganlar bor.

Holbuki, Iso kimlar ishonmaganini va kim Unga xiyonat qilishini oldindan bilar edi.

[65] Iso gapida davom etdi:

— Shu sababdan Men sizlarga: “Osmondagi Otam yoʻl qoʻymasa, hech kim Mening oldimga kelolmaydi”, — degan edim.

[66] Oʻsha vaqtdan boshlab koʻp shogirdlar Isodan yuz oʻgirib, Unga ergashmaydigan
boʻldilar. [67] Shunda Iso oʻn ikki shogirdidan:

— Sizlar ham ketmoqchimisizlar? — deb soʻradi.

[68] Butrus shunday javob berdi:

— Hazrat, biz Sizdan boshqa kimga ham borar edik?! Abadiy hayot baxsh etuvchi
soʻzlar Sizda–ku! [69] Siz Xudoning Azizi* ekaningizga ishonchimiz komil.

[70] Iso ularga dedi:

— Men oʻn ikkitangizni tanlab oldim. Lekin orangizdagi bittangiz iblisdir!

[71] U Shimoʻn oʻgʻli Yahudo Ishqariyotni nazarda tutgan edi. Yahudo oʻn ikki shogirddan biri boʻlsa ham, keyinchalik Isoga xiyonat qildi.

# 7–BOB

## Iso va ukalari

[1] Shundan keyin Iso Jalila hududini keza boshladi. U Yahudiyani kezishni
xohlamagan edi, chunki u yerdagi yahudiylar Uni oʻldirishga qasd qilgan edilar.
[2] Yahudiylarning Chayla bayrami* yaqinlashayotgan edi. [3] Ukalari Isoga shunday
deyishdi:

— Bu yerdan chiqib Yahudiyaga boring. Qilayotgan ishlaringizni shogirdlaringiz ham
koʻrishsin. [4] El nazariga tushaman degan bironta odam yashirincha ish qilmaydi–ku!
Bunday ishlarni qilar ekansiz, Oʻzingizni dunyoga taniting!

[5] Hatto ukalari ham Unga ishonmas edilar. [6] Iso ukalariga shunday dedi:

— Mening vaqt–soatim hali kelgani yoʻq. Lekin sizlar uchun har vaqt qulaydir.
[7] Dunyo sizlardan nafratlana olmaydi, lekin Mendan nafratlanadi. Chunki Men uning
qilmishlari yomon ekanligini yuziga solaman. [8] Mayli, sizlar bayramga boringlar. Men
hozircha bu bayramga bormayman, chunki Mening vaqtim hali kelgani yoʻq.

[9] Shu soʻzlarni aytib, Iso Jalilada qoldi.

## Iso Quddusda Chayla bayramida

[10] Isoning ukalari bayramga ketganlaridan keyin, Isoning Oʻzi ham hech kimga
bildirmay, yashirincha bayramga bordi. [11] Yahudiylar esa Isoni bayramda qidirar, “U
qayoqda?” deb soʻrar edilar. [12] Omma orasida Iso toʻgʻrisida har xil gap–soʻzlar yoyilgan
edi. Baʼzilar: “U yaxshi odam”, desalar, boshqalar: “Yoʻq, U xalqni yoʻldan ozdiryapti”,
deyishardi. [13] Biroq yahudiylardan qoʻrqqanlari uchun U haqda hech kim ochiq
gapirmas edi.

[14] Bayramning yarmi oʻtganda, Iso Maʼbadga kirib, taʼlim bera boshladi. [15] Uni
eshitgan yahudiylar hayron qolib deyishdi:

— Bu Odam oʻqimagan boʻlsa, qayerdan shuncha narsani biladi?!
[16] Iso ularga javoban dedi:
— Men oʻrgatayotgan taʼlimot Oʻzimniki emas, balki Meni Yuborgannikidir. [17] Kim
Xudoning irodasini bajarishni istasa, bu taʼlimot Xudodanmi yoki Oʻzimdanmi, bilib
oladi. [18] Kim oʻz nomidan gapirsa, oʻziga shuhrat izlaydi. Kim uni yuborganga shuhrat
izlasa, haqiqatni soʻzlaydi, uning dilida hiyla boʻlmaydi. [19] Qonunni sizlarga Muso berdi,
shunday emasmi? Ammo birortangiz qonunni bajarmaysiz. Nega Meni
oʻldirmoqchisizlar?
[20] — Seni jin uribdi! Kim Seni oʻldirmoqchi ekan? — dedi xaloyiq. [21] Iso esa Oʻz
soʻzida davom etdi:
— Men Shabbat kuni bitta moʻjiza qilganim* uchun hammalaringiz hayron
qolyapsizlar. [22] Oʻzlaringiz esa, Musoning qonuniga amal qilaylik deb, Shabbat kuni oʻgʻil
bolani sunnat qilasizlar–ku! Aslida, sunnat odati* Musodan emas, Ibrohim davridan
qolgan. [23] Musoning qonuni buzilmasin deb, sizlar hatto Shabbat kuni ham oʻgʻil bolani
sunnat qilsangizlar, nega Mendan gʻazablanasizlar?! Shabbat kuni odamni butunlay
sogʻaytirganim uchunmi?! [24] Yuzaki hukm qilmanglar, hukmingiz adolatli boʻlsin.

### Isoning kimligi haqida gumonlar

[25] Baʼzi Quddusliklar shunday deyishardi:
— Yoʻlboshchilarimiz oʻldirmoqchi boʻlgan Odam shu emasmi? [26] Mana, U
hammaning oldida soʻzlayapti, Unga qarshi hech kim hech narsa demayapti. Nahotki
yoʻlboshchilarimiz Uni Masih deb tan olishgan boʻlsa?! [27] Ammo bu Odamning
qayerdanligini hammamiz bilamiz, Masih kelganda esa, Uning qayerdanligini hech kim
bilmaydi.
[28] Iso Maʼbadda taʼlim berar ekan, baland ovozda shunday dedi:
— Ha, sizlar Mening kimligimni ham, qayerdanligimni ham bilasizlar. Lekin Men
Oʻzimcha kelganim yoʻq. Meni Yuborgan bor, sizlar esa Uni tanimaysizlar. U haqdir.
[29] Men Uni bilaman, chunki Men Uning oldidan kelganman, U Meni yuborgan.
[30] Bu gapi uchun Isoni qoʻlga olmoqchi boʻldilar. Biroq hech kim Unga qoʻl
tekkizmadi, chunki Uning vaqt–soati hali kelmagan edi. [31] Shu bilan birga, xalq orasidagi
koʻp odamlar Unga imon keltirdi. Ular:
— Masih kelsa ham, baribir bunchalik koʻp moʻjizali alomatlar koʻrsata olmaydi! —
deyishardi.

### Isoni tutib olmoqchilar

[32] Odamlar Iso toʻgʻrisida shunday deb pichirlashayotganini farziylar eshitib qolishdi.
Shunda bosh ruhoniylar* bilan farziylar Isoni qoʻlga olish uchun Maʼbad mirshablarini*
yuborishdi.
[33] Iso dedi:
— Men sizlar bilan qisqa bir muddat boʻlib, yana Meni Yuborganning oldiga qaytib
boraman. [34] Sizlar Meni izlaysizlar–u, lekin topolmaysizlar. Men boradigan joyga sizlar
borolmaysizlar.
[35] Buni eshitgan yahudiylar oʻzaro shunday deb aytishardi:
— U qayerga bormoqchiki, biz Uni topa olmasak? Balki U boshqa yurtlarda
yashaydigan yahudiylar orasiga bormoqchidir? Gʻayriyahudiylarga* ham taʼlim
bermoqchidir? [36] “Sizlar Meni izlaysiz–u, lekin topolmaysizlar, Men boradigan joyga

sizlar borolmaysizlar” degan gaplari bilan nima aytmoqchi ekan?

### Hayotbaxsh suv va Ruh haqida

37 Chayla bayramining oxirgi, ulug‘ kunida Iso turib, baland ovozda xitob qildi:
— Kim chanqagan bo‘lsa, Mening oldimga kelib ichsin. 38 Shunda Muqaddas
bitiklarda aytilganidek, Menga ishongan odamning ichidan hayotbaxsh suv daryo bo‘lib oqib chiqadi.
39 Iso shunday deganda, Muqaddas Ruhni nazarda tutgan edi. Unga ishonganlar Ruhni qabul qilib olishlari kerak edi. Lekin Ruh hanuz berilmagan edi, chunki Iso hali ulug‘lanmagan edi.

### Iso tufayli xalq bo‘linadi

40 Olomon ichidan ba’zilari bu so‘zlarni eshitib shunday dedilar:
— Haqiqatan ham bu Odam biz kutgan payg‘ambar* ekan.
41 Boshqalari:
— Bu Masih, — deyishsa, yana boshqalari shunday deyishardi:
— Masih Jaliladan kelmaydi–ku! 42 Muqaddas bitiklarda, Masih Dovudning urug‘idan
kelib chiqadi, U Dovud yashagan Baytlahm qishlog‘ida tug‘iladi, deb aytilmaganmi?!*
43 Shu tariqa Iso tufayli xalq ikkiga bo‘lindi. 44 Ba’zilar Uni qo‘lga olmoqchi bo‘lishdi,
ammo hech kim Unga qo‘l tekkizmadi.
45 Shu payt Ma’bad mirshablari bosh ruhoniylarning va farziylarning oldiga qaytib kelishdi.
— Nega Uni olib kelmadingizlar? — deb so‘rashdi ulardan.
46 — Hech kim hech qachon bu Odamday gapirmagan, — dedi mirshablar.
47 — Mabodo U sizlarni ham yo‘ldan urmadimi? — deyishdi farziylar. 48 — Bosh
ruhoniylar bilan farziylar orasida Unga ishongan bironta odam ham yo‘q! 49 Tavrotni
bilmagan o‘sha qalang‘i–qasang‘ilar esa shundoq ham la’nat ostida qolgan!
50 Shunda farziylardan biri, ilgari Isoning oldiga borgan Nikodim* shunday savol berdi:
51 — Qonunimizga ko‘ra, nahotki biz odamni eshitmay turib, uning aybini topmasdan uni hukm qila olsak?!
52 — Sen ham Jaliladan bo‘lsang kerak–a? Muqaddas bitiklarni o‘rganib chiq, Jaliladan payg‘ambar chiqmasligi aniq, — deyishdi unga*.
53 Shundan keyin hammalari uy–uylariga tarqalib ketdilar.

## 8–BOB

### Iso fohisha ayolni kechiradi

1 Iso Zaytun tog‘i* tomon ketdi. 2 Saharda yana Ma’badga qaytdi. Butun xalq Uning
oldiga yig‘ilib keldi, U esa o‘tirib, odamlarga ta’lim bera boshladi. 3 Shu orada Tavrot
tafsirchilari* bilan farziylar bir ayolni olib kelishdi. Ular bu ayolni zino qilayotganda ushlab olishgan edi. Ayolni hammaning oldiga turg‘izib, 4 shunday deyishdi:
— Ustoz, bu ayol zino qilayotganda ushlandi. 5 Muso qonunda bunday ayollarni
toshbo‘ron qilishni buyurgan*. Siz nima deysiz?
6 Bu savol bilan ular Isoni tuzoqqa ilintirib, ayblashga asos topmoqchi edilar. Iso esa
engashib barmog‘i bilan yerga yoza boshladi. 7 Ular bu savolni qayta–qayta

so‘rayverganlari uchun, Iso o‘rnidan turib dedi:

— Sizning orangizda kim begunoh bo‘lsa, o‘sha birinchi bo‘lib ayolga tosh otsin.

8 So‘ng yana engashib, yerga yozishni davom ettirdi. 9 Ular bu gapni eshitib*,
kattalardan boshlab hammasi birin–ketin keta boshlashdi. Oxirida yolg‘iz Iso bilan
Uning oldida turgan ayol qoldi. 10 Iso o‘rnidan turib ayolga dedi:

— Ey ayol, boshqalar qani? Hech kim seni mahkum qilmadimi?

11 — Hech kim, Hazrat! — deb javob berdi ayol.

Iso dedi:

— Men ham seni mahkum qilmayman. Bor, bundan keyin boshqa gunoh qilma.

## Iso Masih — olamning nuri

12 Iso yana xalqqa gapirib dedi:

— Men olamning nuriman. Kimki Menga ergashsa, hech qachon zulmatda yurmaydi, balki hayot nuriga ega bo‘ladi.

13 Farziylar Isoning bu gapiga e’tiroz bildirdilar:

— Siz O‘zingizga O‘zingiz guvohlik beryapsiz. Bu guvohligingiz haqqoniy emas.

14 Iso shunday javob berdi:

— Men O‘zimga O‘zim guvohlik bersam ham, guvohligim haqqoniydir. Chunki Men
qayerdan kelib, qayerga ketayotganimni bilaman. Sizlar esa Mening qayerdan kelib,
qayerga ketayotganimni bilmaysizlar. 15 Sizlar insoniy o‘lchov bilan hukm qilasizlar.
Men esa hech kimni hukm qilmayman. 16 Bordi–yu, Men hukm qilsam ham, hukmim
haqqoniydir. Chunki Men O‘zim emas, balki Meni yuborgan osmondagi Otam bilan birga
hukm qilaman. 17 O‘zlaringizning Tavrotingizda: “Ikki guvohning shahodati
haqqoniydir”*, deb yozilgan–ku. 18 Shunday ekan, bitta guvoh Menman, ikkinchisi Meni
yuborgan Otadir.

19 Shunda ular Isodan:

— Otangiz qayerda? — deb so‘radilar. U bunga javoban dedi:

— Sizlar Meni ham, Otamni ham tanimaysizlar. Agar Meni taniganingizda edi, Otamni ham tanigan bo‘lar edingizlar.

20 Bu so‘zlarni Iso Ma’badda ta’lim berayotib, xayr–ehson qutisining oldida aytdi. Hech kim Uni qo‘lga olmadi, chunki Uning vaqt–soati hali kelmagan edi.

## Isoni rad qilganlarning qismati

21 Iso ularga yana dedi:

— Men ketyapman. Sizlar Meni qidirasizlar va gunohkor bo‘lib o‘lasizlar. Men boradigan joyga sizlar bora olmaysizlar.

22 — Nahotki U O‘zini O‘zi o‘ldirsa? “Men boradigan joyga sizlar bora olmaysizlar”,
deb aytyapti–ku, — deyishdi o‘zaro yahudiylar. 23 Iso ularga shunday dedi:

— Sizlar bu dunyodansizlar, Men esa yuqoridanman. Sizlar bu olamga mansubsizlar,
Men esa bu olamdan emasman. 24 Shuning uchun sizlarga: “Gunohkor bo‘lib o‘lasizlar”,
deb aytdim. Ha, agar O‘sha Men ekanligimga ishonmasangizlar, gunohkor bo‘lib
o‘lasizlar.

25 — Siz kimsiz? — deb so‘rashdi Isodan. Iso shunday dedi:

— Kimligimni sizlarga boshidan aytib kelyapman–ku! 26 Sizlarni ayblab aytadigan
gapim juda ko‘p. Lekin Meni Yuborgan haqdir, Men Undan nima eshitgan bo‘lsam,
o‘shani dunyoga ma’lum qilaman.

[27] Ular esa Iso samoviy Otasi haqida gapirayotganini tushunmadilar. [28] Iso soʻzida
davom etdi:

— Inson Oʻgʻlini yuqoriga koʻtarganingizda*, Oʻsha Men ekanligimni bilib olasizlar.
Oʻshanda Men Oʻzimcha hech narsa qilmaganimni, faqat Otam oʻrgatgan narsalarni
aytganimni tushunib olasizlar. [29] Meni Yuborgan doimo Men bilan birgadir. U Meni
yolgʻiz tashlab ketmagan. Zero, Men har doim Unga maʼqul boʻlgan ishlarni qilaman.

[30] Isoning aytgan gaplarini eshitgan koʻp odamlar Unga imon keltirdilar.

### Ozod qiladigan haqiqat

[31] Shu vaqt Iso Unga ishongan yahudiylarga dedi:

— Agar Mening soʻzlarimga rioya qilsangizlar, haqiqiy shogirdlarim boʻlasizlar.
[32] Sizlar haqiqatni bilib olasizlar, haqiqat esa sizlarni ozod qiladi.

[33] Ular shunday deb javob berishdi:

— Biz Ibrohim naslimiz. Hech qachon hech kimga qul boʻlmaganmiz. Qanday qilib
Siz, "Ozod boʻlasizlar", deb aytyapsiz?

[34] Iso dedi:

— Sizlarga chinini aytayin: gunoh qiluvchi har bir kishi gunohning qulidir. [35] Qul
hech qachon xonadon aʼzosi boʻla olmaydi, oʻgʻil esa abadulabad oʻz xonadonining
aʼzosidir. [36] Shunday ekan, agar Oʻgʻil sizlarni ozod qilsa, haqiqatan ozod boʻlasizlar.
[37] Ibrohim nasli ekanligingizni bilaman. Biroq Mening jonimga qasd qilmoqchisizlar.
Chunki Mening soʻzim qalbingizdan joy topmagan. [38] Men Otaning huzurida nima
koʻrgan boʻlsam, oʻshani sizlarga aytyapman. Sizlar esa oʻz otangizdan oʻrganganingizni
qilyapsizlar.

### Ibrohim bolalari va iblis bolalari

[39] Ular Isoga shunday javob berdilar:

— Bizning otamiz Ibrohimdir.

Iso shunday dedi:

— Agar Ibrohimning farzandlari boʻlganingizda edi, Ibrohimning qilgan ishlarini
qilgan boʻlar edingizlar. [40] Men sizlarga Xudodan eshitgan haqiqatni soʻzlab berdim,
xolos. Shunday boʻlsa–da, sizlar Meni oʻldirmoqchisizlar. Ibrohim bunday ish qilmagan.
[41] Sizlar Ibrohimning emas, oʻz otangizning ishlarini qilyapsizlar.

— Iye, biz zinodan tugʻilmaganmiz. Bizning bittayu bitta Otamiz — Xudoning Oʻzi–
ku! — deb javob berishdi Isoga. [42] Iso ularga shunday dedi:

— Agar Otangiz Xudo boʻlganda edi, Meni yaxshi koʻrgan boʻlar edingiz, chunki Men
Xudodan kelib, endi shu yerda turibman. Men Oʻzimcha kelganim yoʻq, Meni U yubordi.
[43] Nega aytganlarimni anglamayapsizlar?! Bunga sabab — soʻzlarimni hazm qila
olmaganingiz. [44] Sizlarning otangiz Xudo emas, iblisdir. Sizlar oʻz otangizning nafsu
ehtiroslarini bajo qilishni xohlaysizlar. Azaldanoq iblis qotil edi. U hech qachon haqiqat
tarafdori boʻlmagan, chunki unda haqiqat yoʻq. U yolgʻon soʻzlaganda, oʻziga xos
soʻzlaydi. Chunki u yolgʻonchi, yolgʻonning otasidir. [45] Ammo Men haqiqatni gapirganim
uchun Menga ishonmayapsizlar. [46] Qaysi biringiz Meni biron gunohda ayblay olasiz?
Agarda haqiqatni gapirayotgan boʻlsam, nega Menga ishonmayapsizlar? [47] Kim Xudoga
tegishli boʻlsa, Xudoning soʻzlariga quloq soladi. Sizlar esa Xudoga begona boʻlganingiz
uchun quloq solmayapsizlar.

### Iso azaldan mavjud

48 Bunga javoban yahudiylar shunday dedilar:
— Siz Samariyaliksiz–ku*, Sizni jin uribdi, deb to‘g‘ri aytgan ekanmiz!
49 Iso dedi:
— Meni jin urgani yo‘q. Men osmondagi Otamni hurmat qilaman. Sizlar esa Meni
beobro‘ qilyapsizlar. 50 Men O‘zimga obro‘ orttirmoqchi emasman. Lekin obro‘yimni
ko‘taradigan bor, Uning O‘zi hukm qiladi. 51 Sizlarga chinini aytayin: kim Mening
so‘zimga rioya qilsa, hech qachon o‘lim ko‘rmaydi.
52 Shunda yahudiylar dedilar:
— Sizni jin urganini endi aniq bilib oldik! Ibrohim o‘ldi, payg‘ambarlar ham o‘lib
ketishgan. Siz esa: “Kim Mening so‘zimga rioya qilsa, hech qachon o‘lmaydi”, deyapsiz–
a?! 53 Nahotki Siz vafot etgan otamiz Ibrohimdan ham ustun bo‘lsangiz?! Payg‘ambarlar
ham o‘lib ketishgan–ku! Siz O‘zingizni kim deb hisoblaysiz o‘zi?!
54 Iso shunday javob berdi:
— Agar Men O‘zimni O‘zim maqtasam, maqtovlarim behudadir. Otamning O‘zi Meni
maqtaydi. Sizlar Uni Xudoyimiz deb ataysizlar, 55 aslida esa Uni tanimaysizlar. Men esa
Uni bilaman. Agar, Uni bilmayman, desam, sizlarga o‘xshagan yolg‘onchi bo‘laman. Men
Uni bilaman va Uning so‘ziga rioya qilaman. 56 Otangiz Ibrohim kelgan kunimni kutib,
xursand bo‘lgan edi. O‘sha kunni ko‘rib, qattiq quvondi.
57 — Siz hali ellik yoshga to‘lmagan bo‘lsangiz, qanday qilib Ibrohimni ko‘rgansiz?!
— deyishdi yahudiylar Unga. 58 Iso ularga shunday javob berdi:
— Sizlarga chinini aytayin: Ibrohim tug‘ilmasdan oldin Men bor bo‘lganman*.
59 Shunda Isoni toshbo‘ron qilmoqchi bo‘ldilar. Iso esa yashirincha Ma’baddan chiqib
ketdi*.

## 9–BOB

### Iso tug‘ma ko‘rga shifo beradi

1 Iso yo‘lda ketayotib, bir tug‘ma ko‘r odamni ko‘rib qoldi. 2 Shogirdlari Isodan
so‘radilar:
— Ustoz, kimning gunohi uning ko‘r bo‘lib tug‘ilishiga sababchi bo‘ldi? O‘zinikimi
yoki ota–onasinikimi?
3 Iso shunday javob berdi:
— Bu odamning gunohi ham, ota–onasining gunohi ham bunga sabab bo‘lmagan.
Xudoning ishlari unda namoyon bo‘lishi uchun u ko‘r tug‘ilgan. 4 Kun yorug‘ ekan, Meni
Yuborganning ishlarini qilishimiz lozim. Ana tun kelyapti, o‘shanda hech kim ish qila
olmaydi. 5 Men olamda bor ekanman, olamning nuridirman.
6 Iso bularni aytdi–yu, yerga tupurdi, tupukdan loy qilib, ko‘rning ko‘zlariga surtdi.
7 So‘ng unga:
— Borib, Siloam hovuzida yuvingin, — dedi. (Siloam “yuborilgan” demakdir.)
Ko‘r odam borib yuvindi va ko‘ra oladigan bo‘lib qaytdi. 8 Shunda uning qo‘shnilari
va ilgari uning sadaqa so‘raganini ko‘rgan odamlar:
— Bu haligi tilanchilik qilib o‘tirgan odam emasmi? — deb so‘rashardi. 9 Ba’zilar:
— Bu xuddi o‘sha, — desalar, boshqalar:
— Yo‘q, o‘shanga o‘xshaydi, xolos, — deyishardi. Odamning o‘zi esa:

— O‘sha menman, — deb ta’kidlardi.
10 — Unday bo‘lsa, ko‘zlaring qanday ochildi? — deb so‘radilar.
11 — Iso degan kishi loy qilib, ko‘zlarimga surtdi–yu, “Borib, Siloam hovuzida
yuvingin”, dedi. Men borib yuvindim va ko‘radigan bo‘lib qoldim, — dedi shifo topgan
ko‘r.
12 — O‘sha Odam qani? — deb so‘radilar.
— Bilmayman, — deb javob berdi u.

### Farziylar sog‘aygan ko‘rni so‘roq qilishadi

13 Ilgari ko‘r bo‘lgan o‘sha odamni farziylarning oldiga keltirishdi. 14-15 Farziylar ham
bu odamdan ko‘zlari qanday ochilganini so‘radilar.
— U ko‘zlarimga loy surtdi. Men yuvindim–u, ko‘zlarim ko‘radigan bo‘ldi, — dedi
haligi odam.
Iso loy qilib, ko‘rning ko‘zlarini ochgan kun Shabbat kuni edi. Shuning uchun
16 farziylardan ba’zilari:
— Ko‘zlaringni ochgan Odam Xudodan emas, chunki U Shabbat kuniga rioya
qilmayapti*, — dedilar. Boshqalari esa:
— Gunohkor odam bunday mo‘jizali alomatlarni qanday qila oladi? — deyishdi.
Shunday qilib, oralarida kelishmovchilik paydo bo‘ldi.
17 Shunda farziylar ko‘r odamdan yana so‘radilar:
— U Kishi haqida sen nima deysan? U sening ko‘zlaringni ochdi–ku!
— U payg‘ambar, — deb javob berdi ko‘r.
18 Biroq yahudiylar ko‘zlari ochilgan odamning ota–onasini chaqirtirmaguncha,
uning ilgari ko‘r bo‘lganiga va ko‘zlari ochilganiga ishonmadilar. 19 Ular ko‘rning ota–
onasiga shunday savol berdilar:
— Ko‘r tug‘ilgan, deb aytgan o‘g‘lingiz shumi? Xo‘sh, endi qanday qilib uning ko‘zlari
ko‘ryapti?
20 Ota–onasi javob berishdi:
— Bu bizning o‘g‘limiz ekanligini bilamiz. Uning ko‘r tug‘ilganini ham bilamiz.
21 Lekin qanday qilib ko‘zlari ko‘rayotganini va ko‘zlarini kim ochganini biz bilmaymiz. U
balog‘atga yetgan, o‘zidan so‘ranglar. O‘zi uchun o‘zi javob bersin.
22 Ko‘rning ota–onasi yahudiylardan qo‘rqqanlari uchun shunday dedilar. Din
arboblari bundan avval, kim Isoning Masihligini tan olsa, sinagogadan chetlashtirilsin,
deb qaror qilgan edilar. 23 Ana shu sababdan ko‘rning ota–onasi: “U balog‘atga yetgan,
o‘zidan so‘ranglar”, deb aytishgandi.
24 Shunday qilib, ilgari ko‘r bo‘lgan odamni ikkinchi marta chaqirib, deyishdi:
— Rostini aytaman, deb Xudoning nomi bilan qasam ich! Biz u Odamning
gunohkorligini bilamiz.
25 Ko‘r shunday javob berdi:
— U gunohkormi, yo‘qmi, men bilmayman. Shuni bilamanki, men ko‘r edim, endi esa
ko‘zlarim ko‘ryapti.
26 — U senga nima qildi? Ko‘zlaringni qanday ochdi? — deb undan so‘radilar.
27 — Sizlarga aytib berdim–ku, ammo sizlar quloq solmadingizlar! Nega buni yana
eshitmoqchisizlar?! Nahotki sizlar ham Uning shogirdlari bo‘lmoqchisizlar?! — dedi u
odam. 28 Yahudiylar esa uni haqoratlab, deyishdi:

— Sen oʻzing Uning shogirdisan! Biz esa Musoning shogirdlarimiz! [29] Musoga Xudo
gapirganini bilamiz. Bu Kishi–chi, Uning qayerdanligini ham bilmaymiz.
[30] Koʻzi ochilgan odam shunday javob berdi:
— Ana shunisi juda ajablanarli–da! Sizlar Uning qayerdanligini bilmaysizlar, U esa
koʻzlarimni ochdi! [31] Gunohkorlarga Xudo quloq solmasligini bilamiz. Uning irodasiga
amal qilgan taqvodorlarga esa Xudo quloq soladi. [32] Tugʻma koʻrning koʻzlarini biror
kishi ochgani hayotda eshitilmagan gap. [33] Agar u Kishi Xudodan boʻlmaganda edi, hech
narsa qilolmasdi.
[34] Yahudiylar bunga javoban:
— Sen butunlay gunoh ichida tugʻilgansan, endi bizga aql oʻrgatyapsanmi?! —
deyishdi–da, uni sinagogadan haydab chiqarishdi.

### Qalbi koʻrlar

[35] Oʻsha odamning haydab chiqarilganligini Iso eshitdi–yu, uni qidirib topdi.
— Sen Inson Oʻgʻliga* ishonasanmi? — deb soʻradi undan.
[36] U odam esa Isoga dedi:
— Hazrat, U kimdirki, men Unga ishonsam?
[37] — Uni koʻrib turibsan, U bilan gaplashib turibsan, — dedi Iso. [38] Shunda u odam:
— Ishonaman, yo Rabbiy, — dedi–da, Isoga sajda qildi.
[39] Iso:
— Koʻrlar koʻrsin, koʻzi ochiqlar esa koʻr boʻlsin deb, Men bu dunyoni hukm qilgani
kelganman, — dedi.
[40] Uning atrofida baʼzi farziylar turgan edi. Ular bu gapni eshitgach:
— Nahotki bizlar ham koʻr boʻlsak? — deb soʻrashdi. [41] Iso ularga dedi:
— Agar koʻr boʻlganingizda, gunohda ayblanmas edingiz. Lekin sizlar “Koʻzlarimiz
koʻryapti” deganingiz uchun gunohingiz oʻz boʻyningizda qoladi.

## 10–BOB

### Iso — yaxshi choʻpon

[1] Iso dedi: “Sizlarga chinini aytayin: kim qoʻy qoʻrasiga eshikdan kirmay, boshqa
yoʻldan oshib tushsa, u oʻgʻri va bosqinchidir. [2] Eshikdan kirgan odam esa qoʻylarning
choʻponidir. [3] Qorovul unga eshikni ochib beradi. Qoʻylar uning ovoziga quloq soladi. U
esa oʻz qoʻylarini nomma–nom chaqirib, tashqariga olib chiqadi. [4] U oʻz qoʻylarini
qoʻradan olib chiqqanda, ularning oldida boraveradi. Qoʻylar esa unga ergashadi, chunki
ular choʻponning ovozini biladilar. [5] Begona kishiga esa ergashmaydilar. Aksincha,
begonaning ovozini tanimay, undan qochadilar.”
[6] Iso bu matalni aytib berganda, tinglovchilar U nima demoqchi ekanligini
tushunmadilar. [7] Shu sababdan Iso yana dedi: “Sizlarga chinini aytay: Men qoʻylar uchun
eshikman. [8] Mendan oldin kelganlarning hammasi oʻgʻri va bosqinchi edilar. Lekin
qoʻylar ularga quloq solmadilar. [9] Men eshikman. Kim Men orqali kirsa, najot topadi. U
kirib chiqib, yaylov ham topadi. [10] Oʻgʻri faqat oʻgʻirlash, boʻgʻizlash, barbod qilish uchun
keladi. Men esa ularga hayot, farovon hayot berish uchun kelganman.
[11] Men yaxshi choʻponman. Yaxshi choʻpon qoʻylari uchun jonini fido qiladi.
[12] Yollangan odam esa qoʻylarning na choʻponi, na egasidir. U boʻrining kelganini
koʻrgach, qoʻylarni tashlab qochadi. Boʻri esa qoʻylarni talab, tumtaraqay qiladi.

[13] Yollangan odam shunchaki yollangan boʻlgani uchun va qoʻylar haqida qaygʻurmagani
uchun qochadi.
[14-15] Men yaxshi choʻponman. Osmondagi Otam Meni va Men Otamni bilganimday,
Men qoʻylarimni bilaman, ular ham Meni biladilar. Men qoʻylarim uchun jonimni fido
qilaman. [16] Bu qoʻrada boʻlmagan boshqa qoʻylarim ham bor. Ularni ham olib kelishim
kerak. Ular ham Mening ovozimga quloq soladi, shunda bir suruv, bir choʻpon boʻladi.
[17] Men jonimni qaytib olish uchun uni fido qilaman, shu bois Otam Meni yaxshi koʻradi.
[18] Hech kim jonimni Mendan tortib ololmaydi. Men Oʻz ixtiyorim bilan uni fido qilaman.
Jonimni berishga va uni qaytarib olishga hokimiyatim bor. Buni Menga Otam buyurgan.”
[19] Isoning bu soʻzlari tufayli, yahudiylar orasida yana kelishmovchilik kelib chiqdi.
[20] Oralaridan koʻpchilik:
— Uni jin uribdi, U aqldan ozgan! Nega Unga quloq solyapsizlar? — der edilar.
[21] Boshqalari esa:
— Bu jin urganning soʻzlari emas. Jin koʻr odamning koʻzlarini ocha olarmidi?! —
deb aytishardi.

### Isoni rad qilishadi

[22] Oʻsha vaqtda Quddusda Maʼbadni bagʻishlash bayrami* nishonlanayotgan edi. Qish
fasli edi. [23] Iso Maʼbadda Sulaymon ayvoni* degan joyda aylanib yurar edi. [24] Yahudiylar
Uning atrofini oʻrab oldilar.
— Qachongacha bizni ikkilantirasiz? Agar Masih boʻlsangiz, bizga ochigʻini ayting, —
deyishdi.
[25] Iso ularga javob berdi:
— Men sizlarga aytdim, ammo sizlar ishonmayapsizlar. Osmondagi Otam nomidan
qilayotgan ishlarim kimligimni koʻrsatib turibdi. [26] Sizlar esa ishonmayapsizlar, chunki
sizlar Mening qoʻylarimdan emassizlar. [27] Mening qoʻylarim ovozimga quloq soladi. Men
ularni taniyman, ular esa Menga ergashib yurishadi. [28] Men ularga abadiy hayot
beraman, ular hech qachon halok boʻlmaydilar. Hech kim ularni Mening qoʻlimdan tortib
ololmaydi. [29] Ularni Menga bergan Otam hammadan buyukdir. Otamning qoʻlidan ularni
tortib olishga hech kimning kuchi yetmaydi. [30] Men va Otam birmiz.
[31] Yahudiylar yana Isoni toshboʻron qilmoqchi boʻldilar.
[32] — Men sizlarga Ota buyurgan koʻp xayrli ishlarni koʻrsatdim, ularning qaysi biri
uchun Meni toshboʻron qilmoqchisizlar? — deb soʻradi Iso. [33] Yahudiylar Unga shunday
deyishdi:
— Xayrli ishingiz uchun emas, kufrligingiz uchun Sizni toshboʻron qilmoqchimiz. Siz
odam boʻla turib Oʻzingizni Xudo deyapsiz!
[34] Iso shunday javob qaytardi:
— Sizlar oʻzlaringiz doim oʻqiydigan Muqaddas bitiklarda*: “Aytdimki, hammangiz
xudolarsiz”*, deb yozilgan emasmi?! [35] Oʻzlaringiz bilasizlar: Muqaddas bitiklarni
oʻzgartirib boʻlmaydi. Xudoning kalomini olgan odamlar “xudolar” deb atalgan–ku!
[36] Meni esa Otam Oʻzi uchun ajratib olib, dunyoga yuborgan. Men “Xudoning Oʻgʻliman*”
deganim uchun kufrlik qilgan boʻlamanmi?! [37] Agar Men Otamning ishlarini qilmayotgan
boʻlsam, Menga ishonmay qoʻya qolinglar. [38] Bordi–yu, Uning ishlarini qilayotgan
boʻlsam, Menga ishonmasangiz ham, qilayotgan ishlarimga ishoninglar. Shunda Ota
Menda va Men Otada ekanimni bilib, anglab olasizlar.

[39] Ular yana Isoni ushlab olishga harakat qildilar, ammo Iso ularning changalidan qutulib qoldi.

[40] So‘ng Iso Iordan daryosining sharq tomoniga, ilgari Yahyo odamlarni cho‘mdirib
yurgan joyga qaytib borib, u yerda qoldi. [41] Uning oldiga ko‘p odamlar kelishardi. Ular
shunday deb aytishardi: “Yahyo hech qanday mo‘jizali alomat ko‘rsatmagan edi, lekin
Yahyoning bu Odam haqida aytgan hamma gapi to‘g‘ri chiqdi.” [42] Shunday qilib, o‘sha
yerdagi ko‘p odamlar Isoga ishondilar.

# 11–BOB

### Lazarning o‘limi

[1] Baytaniya qishlog‘ida* Lazar ismli bir odam kasal bo‘lib yotgan edi. Maryam va
uning opasi Marta ham shu qishloqda yashar edilar. [2] Keyinchalik Rabbimiz Isoga atir
moy surtgan va Uning oyoqlarini sochi bilan artib quritgan o‘sha Maryam edi*. Kasal
yotgan Lazar esa Maryamning akasi edi.

[3] Opa–singil Isoga:

— Hazrat, Sizning aziz do‘stingiz kasal, — degan xabar yuborishdi. [4] Iso buni eshitib,
shunday dedi:

— Bu kasallik o‘lim bilan yakunlanmaydi, balki Xudoning ulug‘lanishiga va shu orqali Xudo O‘g‘lining* ulug‘lanishiga sabab bo‘ladi.

[5] Iso Martani, uning singlisini va Lazarni yaxshi ko‘rar edi. [6] Ammo Lazarning xasta
ekanini bilsa ham, turgan joyida yana ikki kun qoldi. [7] Shundan so‘ng U shogirdlariga:

— Yahudiyaga qaytib boraylik, — dedi.

[8] Shogirdlari esa shunday dedilar:

— Ustoz, yaqindagina yahudiylar Sizni toshbo‘ron qilmoqchi edilar–ku! Endi yana u yerga bormoqchimisiz?

[9] Iso javob berdi:

— Kunduz o‘n ikki soatdan iborat emasmi?! Kim kunduzi yursa, qoqilmaydi, chunki
bu dunyoning nurini ko‘radi. [10] Kechasi yurgan esa qoqiladi, chunki uning o‘zida nur
yo‘q.

[11] Bu so‘zlarini aytib bo‘lib, ularga yana dedi:

— Do‘stimiz Lazar uxlab qoldi. Men uni uyg‘otgani ketyapman.

[12] — Hazrat, agar uxlayotgan bo‘lsa, tuzalib ketadi, — dedi shogirdlari.

[13] Iso Lazarning o‘limini nazarda tutgan edi. Shogirdlar esa Iso odatdagi uyqu
to‘g‘risida gapirdi, deb o‘yladilar. [14] Keyin Iso ularga ochig‘ini aytdi:

— Lazar vafot etdi. [15] Men uning yonida bo‘lmaganimdan xursandman, chunki bu
vaziyat sizlarning ishonishingizga imkon beradi. Qani, endi uning oldiga boraylik.

[16] Shunda To‘ma, ya’ni Didimus* boshqa shogirdlarga:

— Qani, yuringlar, biz ham Iso bilan o‘lamiz! — dedi.

### Iso — tiriklik manbayi

[17] Iso u yerga yetib borib bildiki, Lazarning qabrga qo‘yilganiga to‘rt kun bo‘lgan
ekan. [18] Baytaniya qishlog‘i Quddusdan bor–yo‘g‘i uch chaqirimcha* masofada
joylashgan edi. [19] Quddusdagi ko‘p yahudiylar Marta bilan Maryamning oldiga akasining
vafoti munosabati ila tasalli berish uchun borgan edilar. [20] Marta Isoning kelayotganini
eshitib, Uni kutib olgani chiqdi. Maryam esa uyda qoldi.

21 — Hazrat! — dedi Marta Isoga. — Agar Siz bu yerda boʻlganingizda edi, akam
oʻlmagan boʻlardi. 22 Ammo hozir ham bilaman, Siz Xudodan nima soʻrasangiz, Xudo
Sizga beradi.
23 — Sening akang tiriladi, — dedi Iso.
24 — Bilaman, oxiratda oʻliklar tirilganda tiriladi, — dedi Marta. 25 Iso unga dedi:
— Men tirilish va hayotdirman. Menga ishongan odam oʻlsa ham yashaydi. 26 Kimda–
kim Menga ishonib yashasa, to abad oʻlmaydi. Bunga ishonasanmi?
27 — Ha, Hazrat, — dedi Marta, — Siz dunyoga keladigan Masih, Xudoning Oʻgʻli
ekaningizga ishonaman.
28 Marta shunday dedi–yu, borib singlisi Maryamni chaqirdi. Unga sekingina dedi:
— Ustoz shu yerda, U seni chaqiryapti.
29 Maryam buni eshitgach, shoshib oʻrnidan turdi–da, Isoning oldiga ketdi. 30 Iso hali
qishloqqa kirmagan, hanuz Marta Uni kutib olgan joyda edi. 31 Maryam bilan uyda
boʻlgan va unga tasalli berayotgan odamlar uning shoshilib oʻrnidan turib tashqariga
chiqqanini koʻrishdi. Maryam yigʻi–sigʻi qilgani qabrga ketyapti, deb oʻylab, uning
orqasidan ketishdi.
32 Maryam Iso turgan yerga yetib kelib, Uni koʻrdi–yu, oyogʻiga yiqilib dedi:
— Hazrat! Agar Siz shu yerda boʻlganingizda edi, mening akam oʻlmagan boʻlardi!
33 Maryam ham, u bilan kelganlar ham yigʻlayotgan edilar. Iso buni koʻrib, qattiq
iztirobga tushdi, koʻngli oʻrtanib ketdi.
34 — Uni qayerga qoʻydingizlar? — deb soʻradi.
— Yuring, Hazrat, koʻrasiz! — dedilar.
35 Isoning koʻzlaridan duv–duv yosh oqdi. 36 Oʻsha yerdagi odamlar:
— Qaranglar, uni qanchalik yaxshi koʻrar ekan! — deyishdi. 37 Ulardan baʼzilari esa
shunday deyishdi:
— U koʻrning koʻzlarini ochgan. Lazarni ham oʻlimdan olib qolsa boʻlmasmidi?!

### Iso Lazarni tiriltiradi

38 Iso tagʻin qattiq iztirob chekib, qabr oldiga keldi. Qabr bir gʻor boʻlib, ogʻzi tosh
bilan yopilgan edi. 39 Iso:
— Toshni olib tashlanglar! — dedi. Marhumning singlisi Marta Unga dedi:
— Hazrat, jasad hidlanib qolgan–ku! Axir, qabrga qoʻyilganiga toʻrt kun boʻldi!
40 — Agar ishonsang, Xudoning ulugʻvorligini koʻrasan, deb senga aytmaganmidim?!
— dedi Iso.
41 Toshni olib tashladilar. Iso esa osmonga koʻz tikib, dedi:
— Ey Ota! Meni eshitganing uchun Senga shukurlar aytaman. 42 Sen Meni doimo
eshitishingni bilaman. Lekin bu soʻzlarni shu yerda turgan xalq uchun aytyapman, toki
Meni Sen yuborganingga ular ishonsin.
43 Shunday dedi–yu, baland ovoz bilan xitob qildi:
— Lazar, tashqariga chiq!
44 Shu payt qoʻlu oyoqlari kafanlangan, yuzi roʻmol bilan oʻralgan marhum chiqib
keldi.
— Kafanini yechinglar, uni qoʻyib yuboringlar, — dedi Iso odamlarga.

### Isoni oʻldirish rejasi

45 Maryamni yoʻqlagani kelgan odamlarning koʻpchiligi Isoning qilgan ishini koʻrib,

Unga ishonishdi. [46] Ammo ba’zilari farziylarning oldiga borib, Isoning qilganlarini aytib
berishdi.

[47] Shundan keyin bosh ruhoniylar va farziylar Oliy kengash* chaqirib, deyishdi:

— Nima qilamiz? Bu Odam juda ko‘p mo‘jizali alomatlar ko‘rsatib yuribdi–ku! [48] Buni
davom etishiga yo‘l qo‘ysak, hamma Unga ishonib ketadi. Rimliklar kelib, Ma’badimizni ham, xalqimizni ham xonavayron qiladilar.

[49] Ulardan biri, o‘sha yili oliy ruhoniy bo‘lgan Kayafas* so‘z oldi:

— Sizlar hech narsani bilmaysizlar! [50] Butun xalq halok bo‘lgandan ko‘ra, bitta
odamning xalq uchun o‘lishi o‘zingiz uchun yaxshiroq–ku! Nahotki buni tushunmasangizlar?!

[51] Bu so‘zlarni u o‘zidan–o‘zi aytmagan edi. Balki o‘sha yili oliy ruhoniy sifatida
Isoning xalq uchun o‘lishini bashorat qilgan edi. [52] Iso nafaqat yahudiy xalqi uchun, balki
Xudoning tarqoq bo‘lgan hamma farzandlarini* birlashtirish uchun o‘lishi kerak edi.

[53] Shunday qilib, o‘sha kundan boshlab, Isoni o‘ldirishga til biriktirdilar. [54] Iso esa
endi yahudiylar orasida ochiqchasiga yurmaydigan bo‘ldi. U cho‘l yaqinidagi Efrayim shahriga* borib, O‘z shogirdlari bilan o‘sha yerda qoldi.

[55] Yahudiylarning Fisih bayrami yaqinlashayotgan edi. Mamlakatning hamma
tomonidan odamlar bayramdan oldin poklanish uchun Quddusga borishdi. [56] Shu
vaqtda Isoni izladilar. Ma’badda yig‘ilib turganlar o‘zaro: “Nima deb o‘ylaysizlar? U
bayramga keladimi?” deb so‘rashdi. [57] Bosh ruhoniylar va farziylar esa Isoni qo‘lga
olmoqchi bo‘lib, shunday buyruq bergan edilar: “Kim Isoning qayerdaligini bilib qolsa, xabar qilsin.”

# 12–BOB

### Maryam Isoga atir moy surtadi

[1] Fisih bayramidan olti kun oldin Iso Lazarning qishlog‘i Baytaniyaga* bordi. Iso
o‘sha Lazarni o‘likdan tiriltirgan edi. [2] O‘sha yerda Isoga ziyofat hozirladilar. Marta
xizmat qilib yurgan edi, Lazar esa Iso va mehmonlar bilan birga dasturxon oldida
yonboshlagan edi. [3] Shu payt Maryam bir shisha* toza, qimmatbaho sunbul moyini* olib
kelib, Isoning oyoqlariga surtdi, so‘ng sochlari bilan artdi. Uy atir moyning xushbo‘y hidiga to‘lib ketdi.

[4] Isoning shogirdlaridan biri, Unga xiyonat qiladigan Yahudo Ishqariyot dedi:

[5] — Bu moyni uch yuz kumush tangaga* sotib, kambag‘allarga bo‘lib bersa bo‘lmasmidi?!

[6] U shu gapni kambag‘allarga qayg‘urgani uchun emas, balki o‘g‘ri bo‘lgani uchun
aytdi. Pul qutisi Yahudoning nazoratida edi, qutiga solinadigan puldan u o‘g‘irlab
turardi. [7] Iso shunday dedi:

— Maryamni tinch qo‘yinglar! Zotan, u Meni dafn kunimga tayyorladi*.
[8] Kambag‘allar har doim sizlar bilan birga bo‘ladi. Men esa har doim ham sizlar bilan birga bo‘lmayman.

[9] Bir talay yahudiylar Isoning Baytaniyada ekanligini bilib kelishdi. Ular nafaqat
Isoni, balki Iso o‘likdan tiriltirgan Lazarni ham ko‘rishni istardilar. [10] Bosh ruhoniylar
Lazarni ham o‘ldirishni rejalashtirgan edilar. [11] Chunki ko‘p yahudiylar Lazar tufayli Iso
tomoniga o‘tib, Unga imon keltirayotgan edilar.

## Iso Quddusga tantanali ravishda kiradi

[12] Ertasi kuni bayramga borgan bir talay xaloyiq Isoning Quddusga kelayotganini
eshitib qoldi. [13] Ular palma daraxti shoxlaridan* olishdi, Uni qarshi olgani chiqib,
shunday deb hayqirishardi:

“Tasanno!
Egamiz nomidan kelayotgan Inson baraka topsin!*
Isroilning shohi muborak boʻlsin!”

[14] Iso bir xoʻtikni topib, unga mindi, xuddi Muqaddas bitiklarda yozilganday:

[15] “Ey Quddus xalqi*, qoʻrqma!
Mana, Shohingiz xoʻtikni minib kelyapti.”*

[16] Isoning shogirdlari avval buni tushunmadilar. Iso ulugʻlangandan keyingina ular
bu soʻzlarning U haqda yozilganini va xalq xuddi yozilganidek qilganini esladilar. [17] Iso
Lazarni qabrdan chaqirib tiriltirganiga guvoh boʻlgan olomon Isoga ergashib, bu haqda
hammaga aytardi. [18] Isoning qilgan bu moʻjizali alomati haqida eshitgan koʻp odamlar
Uni kutib olgani chiqqan edilar.
[19] Farziylar esa bir–biriga:
— Qaranglar, qoʻlimizdan hech narsa kelmadi. Butun dunyo Uning ortidan bormoqda! — deyishardi.

## Iso Oʻz oʻlimi haqida gapiradi

[20] Xudoga sajda qilish uchun bayramga kelganlar orasida baʼzi gʻayriyahudiylar* bor
edi. [21] Ular Filipning oldiga borib (Filip Jalilaning Baytsayda shahridan edi) shunday deb
aytishdi:
— Taqsir, biz Isoni koʻrmoqchimiz.
[22] Filip borib, bu haqda Endrusga aytdi. Soʻng ikkalovi Isoning oldiga borib, Unga
aytishdi. [23] Iso ularga shunday javob berdi:
— Inson Oʻgʻli ulugʻlanadigan vaqt–soati keldi. [24] Sizlarga chinini aytayin: agar
bugʻdoyning doni yerga tushib oʻlmasa, u bir donligicha qoladi. Agarda oʻlsa, koʻp hosil
beradi. [25] Kim oʻz jonini sevsa, uni yoʻqotadi. Kim bu dunyoda oʻz jonidan voz kechsa, uni
abadiy hayot uchun saqlab qoladi. [26] Kim Menga xizmat qilmoqchi boʻlsa, orqamdan
yursin. Men qayerda boʻlsam, xizmatchim ham oʻsha yerda boʻlsin. Menga xizmat qilgan
odamni osmondagi Otam hurmat qiladi. [27] Endi esa yuragim siqilib ketyapti. Nima ham
der edim?! “Ey Ota, bu vaqt–soatdan Meni saqla”, deb ayta olarmidim?! Men shu vaqt–soat uchun kelganman–ku! [28] Ey Ota, Oʻz nomingni ulugʻlagin!
Iso shunday deyishi bilanoq osmondan:
— Men nomimni ulugʻladim, bundan keyin ham ulugʻlayman, — degan sado keldi.
[29] U yerda turgan olomon bu sadoni eshitib, momaqaldiroq deb oʻyladi. Boshqalar esa:
— Unga farishta gapirdi! — deyishdi.
[30] Bunga javoban Iso dedi:
— Bu sado Men uchun emas, sizlar uchun boʻldi. [31] Endi bu dunyo hukm qilinadi, bu
dunyoning yovuz hukmdori* haydab chiqariladi. [32] Men yerdan yuqoriga
koʻtarilganimda, hammani Oʻzimga jalb qilaman.

[33] Iso bu soʻzlarni qay yoʻl bilan oʻlishini bildirish uchun aytdi.

[34] Xalq bunga javoban dedi:

— Biz Tavrotdan, Masih abadiy yashaydi, deb eshitganmiz. Qanday qilib Sen, Inson Oʻgʻli yuqoriga koʻtarilishi kerak, deb aytyapsan? Inson Oʻgʻli kim oʻzi?

[35] Iso ularga dedi:

— Nur yana qisqa bir muddat sizlar bilan boʻladi. Nur borida yuringlar, tagʻin zulmat
sizlarni qamrab olmasin. Zulmatda yuradigan kishi qayerga ketayotganini bilmaydi.
[36] Nur hanuz sizlar bilan ekan, nurga ishoninglar, shunda nur farzandlari boʻlasizlar.

Bularni aytib boʻlgach, Iso uzoqlashib, xalqdan yashirindi.

**Xalqning oʻjarligi va imonsizligi**

[37] Iso xalqning koʻz oʻngida shuncha koʻp moʻjizali alomatlar yaratgan boʻlsa ham,
ular Isoga ishonmas edilar. [38] Shu tariqa Ishayo paygʻambarning soʻzi bajo boʻldi:

"Ey Egamiz, bizning xabarimizga kim ishondi?
Sening qudratli kuching kimga ayon boʻldi?"*

[39] Haqiqatan ham, ular ishona olmadilar. Negaki, Ishayo ular haqida yana shunday deb aytgandi:

[40] "Egamiz ularning koʻzlarini koʻr qildi,
Aqllarini oʻtmas qildi.
Toki koʻzlari bilan koʻrmasinlar,
Aqllari bilan anglamasinlar,
Tagʻin Menga qaytib, shifo topmasinlar."*

[41] Ishayo Masihning ulugʻvorligini koʻrgani uchun bu soʻzlarni aytgan edi.

[42] Shunga qaramay, koʻp yahudiy yoʻlboshchilari ham Isoga imon keltirdilar. Lekin
ular farziylar tufayli buni ochiqchasiga tan olmas edilar, chunki sinagogadan
haydalishdan qoʻrqardilar. [43] Axir, ular Xudoning maqtovidan koʻra, insonning
maqtovini yaxshi koʻrardilar.

[44] Iso xitob qilib dedi:

— Menga ishongan odam Menga emas, balki Meni Yuborganga ishongan boʻladi.
[45] Meni koʻrgan odam Meni Yuborganni koʻrgan boʻladi. [46] Menga ishongan bironta odam
zulmatda qolmasin deb, Men dunyoga nur boʻlib keldim. [47] Agar kim Mening soʻzlarimni
eshitib, rioya qilmasa*, Men uni hukm qilmayman. Men dunyoni hukm qilish uchun
emas, najot berish uchun kelganman. [48] Meni rad qilib, soʻzlarimni qabul qilmagan
odamni hukm qiluvchi bor. Unday odamni oxiratda Men emas, aytgan soʻzim hukm
qiladi. [49] Zotan, Men Oʻzimcha gapirganim yoʻq. Meni yuborgan samoviy Ota nima
aytishimni, qanday gapirishimni Menga amr etgan. [50] Uning amri esa abadiy hayot
berishini bilaman. Xullas, nima aytayotgan boʻlsam, Otam Menga aytganday sizlarga
aytyapman.

# 13–BOB

**Iso Oʻz shogirdlarining oyoqlarini yuvadi**

[1] Fisih bayramiga oz qolgan edi. Iso bu dunyoni tark etib, osmondagi Otasi oldiga

boradigan vaqt–soati kelganini bilar edi. U dunyodagi Oʻzinikilarni yaxshi koʻrar edi,
ularni oxirigacha yaxshi koʻrdi.
2 Kechki ovqat payti edi. Shimoʻn oʻgʻli Yahudo Ishqariyotning diliga iblis allaqachon
Isoga xiyonat qilish niyatini solgan edi. 3 Iso esa Otasi hamma narsani Uning qoʻliga
berganini bilar edi, U Xudodan kelib, yana Xudoning oldiga qaytayotganini ham bilar edi.
4 Shunday qilib, Iso dasturxondan turib, ustki kiyimini yechib tashladi. Sochiqni olib
beliga bogʻladi. 5 Keyin togʻoraga suv quyib, shogirdlarining oyoqlarini yuvishga tushdi.
Beliga bogʻlagan sochiq bilan ularning oyoqlarini artib quritdi.
6 Iso Butrusning* oldiga keldi.
— Hazrat, nahot oyoqlarimni Siz yuvsangiz?! — dedi Butrus.
7 — Hozir nima qilayotganimni sen bilmaysan, keyin tushunib olasan, — dedi Iso
unga javoban.
8 — Mening oyoqlarimni ikki dunyoda ham yuvmaysiz! — dedi Butrus.
— Agar oyoqlaringni yuvmasam, Menga qarashli boʻlmaysan, — dedi Iso. 9 Shunda
Butrus dedi:
— Hazrat, nafaqat oyoqlarimni, qoʻllarim bilan boshimni ham yuvib qoʻying!
10 Iso unga dedi:
— Choʻmilgan odam faqat oyogʻini yuvsa bas, u tamoman pokdir. Sizlar ham
poksizlar, ammo hammangiz emas.
11 Iso Oʻziga xoinlik qiladigan odamni bilar edi, shuning uchun: “Hammangiz ham
pok emassizlar”, dedi.
12 Shogirdlarining oyoqlarini yuvib boʻlgach, Iso ustki kiyimini kiyib, yana dasturxon
oldiga yonboshladi. Soʻng shogirdlaridan soʻradi:
— Hozir nima qilganimni tushundilaringmi? 13 Sizlar Meni “Ustoz”, “Hazrat” deb
chaqirasizlar va toʻgʻri qilasizlar, chunki Men xuddi shundayman. 14 Agar Men
Hazratingiz va Ustozingiz boʻla turib oyoqlaringizni yuvgan boʻlsam, sizlar ham bir–
biringizning oyoqlaringizni yuvishingiz shart. 15 Men sizlarga nima qilgan boʻlsam, sizlar
ham oʻshani qilishingiz kerak. Men sizlarga oʻrnak koʻrsatdim. 16 Sizlarga chinini aytayin:
qul oʻz xoʻjayinidan ustun emas, elchi ham uni yuborgandan ustun emas. 17 Agar gapimni
uqqan boʻlsangiz, bunga amal qilinglar, shunda baxtli boʻlasizlar!

### Yahudoning Isoga xiyonati haqida karomat

18 Iso gapida davom etdi:
— Mening gaplarim hammangizga tegishli emas. Men kimlarni tanlaganimni
bilaman. Muqaddas bitiklarda: “Nonimni yegan kishi Menga qarshi bosh koʻtardi”*, deb
aytilgan. Bu soʻzlar bajo boʻlishi kerak. 19 Men buni sizlarga hozirdan, yuz bermasdan
oldin, aytib qoʻyyapman. Toki yuz berganda, Masih Men ekanligimga* ishoninglar.
20 Sizlarga chinini aytayin: kim Men yuborgan odamni qabul qilsa, Meni qabul qilgan
boʻladi. Meni qabul qilgan esa Meni Yuborganni qabul qilgan boʻladi.
21 Iso qattiq iztirob chekib, dedi:
— Sizlarga chinini aytayin, orangizdan bittasi Menga xiyonat qiladi.
22 Shogirdlari esa U kimni nazarda tutayotganini bilmay, gangib bir–biriga qarab
turar edilar. 23 Shogirdlaridan biri Isoning yonida yonboshlagan edi. U Isoning sevikli
shogirdi* edi. 24 Butrus oʻsha shogirdga: “Iso kim haqida gapiryapti, soʻra–chi”, deb imo–
ishora qildi. 25 Shunda u engashib, Isodan:

— Hazrat, u kim? — deb soʻradi. [26] Iso javob berdi:
— Men bir burda nonni kosaga botirib kimga bersam, u oʻshadir, — dedi. Soʻng
burda nonni botirib, Shimoʻn oʻgʻli Yahudo Ishqariyotga berdi. [27] Yahudo burdani olar–
olmas, shayton uning ichiga kirib oldi.
— Qiladiganingni tezroq qil, — dedi unga Iso.
[28] Dasturxon atrofidagilardan hech kim nima uchun Iso bu soʻzlarni Yahudoga
aytganini tushunmadi. [29] Pul qutisi Yahudoda boʻlgani sababli, baʼzilari: “Iso unga,
bayram uchun bizga kerak boʻladigan narsalarni sotib ol, deyapti yoki, kambagʻallarga
bir nima ber, deyapti”, deb oʻylardilar. [30] Yahudo esa oʻsha burda nonni olgan zahoti
tashqariga chiqib ketdi. Tun edi.

### Bir–biringizni sevinglar

[31] Yahudo chiqib ketgach, Iso dedi:
— Inson Oʻgʻlining ulugʻvorligi ayon boʻladigan vaqti keldi. U orqali Xudoning
ulugʻvorligi ayon boʻladi. [32] Xudoning ulugʻvorligi Inson Oʻgʻli orqali ayon boʻlar ekan, tez
orada Xudo Inson Oʻgʻlini Oʻz ulugʻvorligiga sherik qiladi. [33] Bolalarim! Endi Men sizlar
bilan uzoq boʻlmayman. Meni qidirasizlar. Yahudiylarga aytgan edim, sizlarga ham
aytyapman: Men boradigan joyga sizlar borolmaysizlar. [34] Sizlarga yangi amr
beryapman: bir–biringizni sevinglar. Men sizlarni qanday sevgan boʻlsam, sizlar ham
bir–biringizni shunday sevinglar. [35] Agar bir–biringizni sevsangiz, sizlar Mening
shogirdlarim ekaningizni hamma shundan bilib oladi.

### Butrusning Isodan tonishi haqida karomat

[36] Butrus Isoga dedi:
— Hazrat, Siz qayerga ketyapsiz?
— Hozir Men boradigan joyga sen orqamdan borolmaysan, keyinchalik borasan, — dedi unga Iso.
[37] Butrus soʻradi:
— Hazrat, nega hozir orqangizdan borolmas ekanman? Men Siz uchun jonimni berishga tayyorman!
[38] Iso javob berdi:
— Sen rostdan ham Men uchun joningni berishga tayyormisan?! Senga chinini aytaman, xoʻroz qichqirmasdanoq, sen uch marta Mendan tonasan!

## 14–BOB

### Iso yoʻl, haqiqat va hayotdir

[1] Iso shogirdlariga dedi:
— Yuragingiz siqilmasin. Xudoga ishoning, Menga ham ishoning! [2] Otam Xudoning
uyida maskan koʻp. Shunday boʻlmaganda edi, sizlarga bularni aytib oʻtirmagan
boʻlardim. Men sizlarga joy tayyorlagani ketyapman. [3] Men borib sizlarga joy
tayyorlayman–u, sizlarni Oʻzim bilan olib ketgani kelaman. Toki Men boʻlgan joyda sizlar
ham boʻlinglar. [4] Men boradigan joyga olib boradigan yoʻlni sizlar bilasizlar.
[5] — Hazrat! — dedi Unga Toʻma, — Qayerga borishingizni bilmasak, yoʻlni qayerdan bilamiz?
[6] Iso unga dedi:

— Men yoʻl, haqiqat va hayotdirman. Otaning oldiga olib boradigan Mendan boshqa
yoʻl yoʻq. 7 Agar Meni tanib–bilsangiz, Otamni ham tanib–bilasizlar*. Ha, Uni bilasiz,
chunki Uni koʻrdingiz.

8 Filip Isoga dedi:

— Hazrat, bizga Otani koʻrsating, shuning oʻzi bizga kifoya!

9 — Filip, — dedi unga Iso, — Men shuncha vaqtdan beri sizlar bilan birgaman.
Nahotki Meni tanib–bilmasang?! Meni koʻrgan odam Otani koʻrgan boʻladi. Shunday
ekan, qanday qilib sen: "Otani bizga koʻrsating", deyapsan? 10 Men Otada, Ota esa Menda
ekanligiga nahotki ishonmasang?! Men sizlarga aytgan soʻzlarni Oʻzimdan toʻqib
gapirmayapman. Aksincha, Menda yashagan Otam Men orqali Oʻz ishlarini bajarmoqda.
11 Men Otamda va Otam Menda ekanligiga ishoninglar. Agar ishonmasangizlar, hech
boʻlmasa, qilgan ishlarim tufayli ishoninglar. 12 Sizlarga chinini aytayin: Menga ishongan
odam Men qilgan ishlarni qiladi. Bulardan ham buyukroq ishlarni qiladi, chunki Men
Otaning oldiga ketyapman. 13 Sizlar Mening nomimdan soʻragan hamma narsani Men
bajo keltiraman, toki Ota Oʻz Oʻgʻli orqali ulugʻlansin. 14 Ha, sizlar Mening nomim bilan
Mendan soʻragan har qanday narsani bajo keltiraman.

### Muqaddas Ruhni yuborish va’dasi

15 Iso ularga dedi: "Agar Meni sevsangizlar, amrlarimga amal qilasizlar. 16 Men
osmondagi Otaga murojaat qilaman va U sizlar bilan to abad qoladigan boshqa
Homiyni* yuboradi. 17 Bu Homiy — Haqiqat Ruhidir. Bu dunyoga tegishli boʻlganlar Uni
qabul qila olmaydilar, chunki Uni koʻrmaydilar ham, bilmaydilar ham. Sizlar esa Uni
bilasizlar, chunki U sizlar bilan yashamoqda, U ichingizda boʻladi. 18 Men sizlarni yetim
qoldirmayman, yana oldingizga qaytib kelaman. 19 Bir ozdan keyin dunyo Meni boshqa
koʻrmaydi. Ammo sizlar Meni koʻrasizlar. Men barhayot boʻlganim uchun sizlar ham
yashaysizlar. 20 Men Otamda ekanimni, sizlar Menda va Men sizlarda ekanimni oʻsha
kuni anglab olasizlar. 21 Mening amrlarimni bilib, ularga amal qilgan kishi Meni sevadi.
Kim Meni sevsa, Otam ham uni sevadi. Men ham uni sevaman va Oʻzimni unga ayon
qilaman."

22 Ishqariyot boʻlmagan boshqa Yahudo Isoga dedi: "Hazrat, nega Oʻzingizni dunyoga
ayon qilmay, bizga ayon qilmoqchisiz?"

23 Iso unga shunday javob berdi: "Kim Meni sevsa, Mening soʻzimga amal qiladi.
Otam ham uni sevadi. Biz uning oldiga kelib, u bilan birga yashaymiz. 24 Meni yaxshi
koʻrmagan kishi soʻzlarimga amal qilmaydi. Sizlar eshitgan soʻz Meniki emas, balki Meni
yuborgan Otanikidir.

25 Men sizlar bilan ekanman, bularni aytdim. 26 Otam Mening nomimdan yuboradigan
Homiy*, ya’ni Muqaddas Ruh sizlarga hammasini oʻrgatadi. Men sizlarga aytgan hamma
soʻzlarimni U yodingizga soladi.

27 Men sizlarga tinchlikni qoldiryapman. Oʻz tinchligimni sizlarga beryapman. Men
berayotgan tinchlik dunyo beradigan tinchlikka oʻxshamaydi. Yuragingiz siqilmasin,
qoʻrqmanglar. 28 Sizlarga aytganimni eshitdingizlar: Men ketib, yana oldingizga qaytib
kelaman. Agar Meni yaxshi koʻrganingizda edi, samoviy Otaning oldiga ketayotganimdan
quvongan boʻlar edingizlar. Zero, Ota Mendan ulugʻdir. 29 Bu hodisalar sodir boʻlmasdan
oldin sizlarga aytdim. Toki sodir boʻlganda ishoninglar. 30 Sizlar bilan soʻzlashishga
deyarli vaqtim qolmadi. Chunki bu dunyoning yovuz hukmdori* kelyapti. U Menga

hukmini oʻtkaza olmaydi. [31] Lekin dunyo bilsinki, Men Otani sevaman, Ota Menga neki
buyurgan boʻlsa, xuddi shuni bajaraman.

Qani, turinglar, bu yerdan keta qolaylik.”

# 15–BOB

### Tok va uning novdalari haqida masal

[1] Iso shogirdlariga dedi: “Men haqiqiy tokman, osmondagi Otam esa bogʻbondir.
[2] Hosil bermaydigan har bir novdamni U kesib tashlaydi. Hosil beradigan har bir
novdani esa, yana koʻproq hosil bersin deb, xomtok qilib tozalaydi. [3] Men sizga aytgan
soʻzim orqali sizlar allaqachon tozalanib boʻlgansizlar. [4] Men bilan aloqada boʻlinglar,
shunda Men sizlar bilan aloqada boʻlaman. Tokka ulanmagan novda oʻz–oʻzidan hosil
berolmaydi. Shu singari, sizlar ham Men bilan aloqada boʻlmasangizlar, hosil
berolmaysizlar.

[5] Men — tok, sizlar esa novdasizlar. Agar Menda boʻlsangizlar va Men sizlarda
boʻlsam, koʻp hosil berasizlar. Mensiz hech narsa qilolmaysizlar. [6] Kim Men bilan aloqani
uzsa, novda kabi, tashlab yuboriladi va quriydi. Bunday novdalarni esa yigʻib, oʻtga
tashlab yondirishadi. [7] Agar siz Men bilan aloqada boʻlib, soʻzlarimni qalbingizga jo
qilsangizlar, istaganingizni soʻranglar, sizga beriladi. [8] Sizlar koʻp hosil berib, Mening
shogirdlarim ekanligingizni isbotlaysiz. Bu orqali Otam ulugʻlanadi.

### Sevgi haqida

[9] Osmondagi Otam Meni qanday sevgan boʻlsa, Men ham sizlarni shunday sevdim.
Sevgimga sodiq qolinglar. [10] Men Otamning amrlariga amal qilib, Uning sevgisiga sodiq
qolganman. Xuddi shu singari, sizlar ham, Mening amrlarimga amal qilsangizlar,
sevgimga sodiq qolasizlar.

[11] Mening shodligim qalbingizni toʻldirsin deb, sizlarga bu soʻzlarni aytdim. [12] Mening
amrim shu: Men sizlarni qanday sevgan boʻlsam, sizlar ham bir–biringizni shunday
sevinglar. [13] Kim oʻz jonini doʻstlari uchun fido qilsa, bundan ortiq sevgi yoʻq. [14] Agar
sizlar amrlarimni bajo keltirsangizlar, Mening doʻstlarim boʻlasizlar. [15] Men sizlarni endi
qul deb atamayman. Qul xoʻjayini nima qilishini bilmaydi. Sizlarni doʻstlarim deyman,
chunki Otamdan eshitgan hamma narsani sizlarga aytdim.

[16] Sizlar Meni emas, Men sizlarni tanladim. Men sizlarni: «Borib hosil bersin, hosili
boqiy boʻlsin», deb tanladim. Shunda Mening nomimdan Otadan nima soʻrasangizlar, U
sizlarga beradi.

[17] Xullas, sizlarga amrim shu: bir–biringizni sevinglar!

### Dunyoning nafrati

[18] Agar dunyo sizlardan nafratlanayotgan boʻlsa, bilingki, sizlardan ilgari Mendan
nafratlangan. [19] Sizlar bu dunyoga tegishli boʻlganingizda edi, dunyo sizlarni oʻziniki
kabi sevar edi. Sizlar esa bu dunyoga tegishli emassizlar. Men sizlarni bu dunyodan
tanlab oldim. Ana shu sababdan dunyo sizlardan nafratlanadi. [20] Qul oʻz xoʻjayinidan
ustun emas degan soʻzimni* eslanglar. Agar Meni quvgʻin qilgan boʻlsalar, sizlarni ham
quvgʻin qiladilar. Agar Mening soʻzlarimga rioya qilgan boʻlsalar, sizlarnikiga ham rioya
qiladilar.

[21] Odamlar bularni sizlarga Mening nomim tufayli qiladilar. Axir, ular Meni

Yuborganni tanimaydilar. [22] Agar Men kelib, ularga gapirmaganimda edi, ular Menga
ishonmaganlari uchun gunohda ayblanmas edilar. Endi boʻlsa gunohlarini oqlash uchun
bahona topa olmaydilar. [23] Mendan nafratlangan odam osmondagi Otamdan ham
nafratlanadi. [24] Agar Men ular orasida boshqa hech kim qilmagan moʻjizalarni
qilmaganimda edi, ular gunohda ayblanmas edilar. Endi boʻlsa moʻjizalarimni koʻrdilar–
u, Mendan ham, Otamdan ham nafratlandilar. [25] Bu esa Tavrotdagi: «Mendan sababsiz
nafrat etganlar»* degan soʻzlar bajo boʻlishi uchun sodir boʻldi.

[26] Men sizlarga Otamdan yuboradigan Homiy*, yaʼni Otamdan chiqadigan Haqiqat
Ruhi kelganda Men toʻgʻrimda guvohlik beradi. [27] Sizlar ham guvohlik berasizlar, chunki
boshdanoq Men bilan birga boʻlgansizlar.

# 16–BOB

### Muqaddas Ruhning faoliyati

[1] Men bu gaplarni sizlar toʻgʻri yoʻldan ozmanglar, deb aytdim. [2] Sizlarni
sinagogalardan haydab yuboradilar. Hatto shunday zamon keladiki, sizlarni
oʻldirayotgan har bir kishi bu bilan Xudoga xizmat qilyapman, deb oʻylaydi. [3] Ular bu
ishlarni samoviy Otamni va Meni tanimaganlari uchun qiladilar. [4] Bularni sizlarga
hozirdan aytib qoʻyyapman, toki oʻsha vaqt–soat kelganda, soʻzlarimni esga olinglar.

Sizlarga bularni boshdanoq aytishimga hojat yoʻq edi, chunki Oʻzim sizlar bilan birga
edim. [5] Endi esa Meni Yuborganning oldiga ketyapman. Birontangiz Mendan: «Qayerga
ketyapsan?» deb soʻramayapsiz. [6] Bularni aytganim uchun dilingiz gʻam–qaygʻuga
botgan. [7] Ammo sizlarga haqiqatni aytaman, Mening ketishim sizlar uchun yaxshiroqdir.
Agar Men ketmasam, Homiy* kelmaydi. Agarda ketsam, Uni oldingizga yuboraman. [8] U
kelganda dunyoga gunoh, adolat va hukm toʻgʻrisidagi haqiqatni ayon qiladi. [9] Gunoh
toʻgʻrisidagi haqiqat shundan iboratki, odamlar Menga ishonmaydilar. [10] Adolat
toʻgʻrisidagi haqiqat shuki, Ota Meni oqlaydi. Men Otaning oldiga ketyapman va sizlar
Meni boshqa koʻrmaysizlar. [11] Hukm toʻgʻrisidagi haqiqat shundan iboratki, hukm
chiqarib boʻlingan, bu dunyoning yovuz hukmdori* mahkum qilingan.

[12] Sizlarga yana aytadigan gaplarim koʻp, lekin endi ichingizga sigʻdirolmaysizlar.
[13] Haqiqat Ruhi kelib, sizlarni toʻliq haqiqat sari boshlaydi. U Oʻzicha gapirmaydi, neki
eshitsa, oʻshani soʻzlab beradi, U yuz beradigan voqealar haqida sizlarga xabar qiladi.
[14] U Mendan eshitgan narsalarni sizlarga maʼlum qiladi, shu orqali Meni ulugʻlaydi.
[15] Otaning bor narsasi Menikidir. Ana shu sababdan, Ruh Mendan eshitgan narsalarni
sizlarga maʼlum qiladi, deb aytdim. [16] Sizlar bilan birga uzoq vaqt boʻlmayman, lekin
koʻp oʻtmay sizlar Meni yana koʻrasizlar*.”

### Qaygʻungiz shodlikka aylanadi

[17] Shu paytda Isoning shogirdlari bir–biriga dedi: “Qiziq, U bizga oʻzi nima
aytmoqchi?! «Sizlar bilan birga uzoq vaqt boʻlmayman, lekin koʻp oʻtmay sizlar Meni
yana koʻrasizlar», dedi. «Otaning oldiga ketyapman», deb aytdi. [18] «Sizlar bilan birga
uzoq vaqt boʻlmayman» deyishi bilan nima demoqchi ekan, tushunmadik.”

[19] Iso shogirdlarining savol bermoqchi boʻlganlarini bilib, dedi: “«Sizlar bilan birga
uzoq vaqt boʻlmayman, lekin koʻp oʻtmay sizlar Meni yana koʻrasizlar», deb aytgan
gapimning maʼnosini muhokama qilyapsizlarmi? [20] Sizlarga chinini aytayin: sizlar
yigʻlab, dod–faryod qilasizlar, dunyo esa quvonadi. Sizlar qaygʻurasiz, lekin qaygʻungiz

shodlikka aylanadi. [21] Oyi toʻlgan ayol dard bilan tugʻadi. Ammo bola tugʻilgandan keyin,
dunyoga odamzod keldi, deb ayol quvonadi. Quvonganidan u chekkan dardini unutib
yuboradi. [22] Shunga oʻxshab sizlar ham hozir gʻam–qaygʻu chekyapsizlar. Lekin Men
sizlarni yana koʻraman. Shunda yuragingiz quvonchga toʻladi. Quvonchingizni sizlardan
hech kim tortib olmaydi.

[23] Oʻsha kuni Mendan hech narsa soʻramaysizlar. Sizlarga chinini aytayin: Mening
nomimdan osmondagi Otamdan nima soʻrasangizlar, U sizlarga beradi. [24] Shu paytgacha
Mening nomim bilan Otadan hech narsa soʻramadingizlar. Soʻranglar, olasizlar va
qalbingiz shodlikka toʻladi.

### Iso dunyodan ustun

[25] Shu vaqtgacha sizlarga matallar orqali gapirib keldim. Lekin shunday vaqt
keladiki, Men sizlarga Otam haqida matallar orqali emas, ochiqdan–ochiq gapiraman.
[26] Oʻsha kuni oʻzlaringiz Otadan istaganingizni Mening nomimdan soʻraysizlar. Mening
sizlar uchun Otadan iltimos qilishimning hojati boʻlmaydi. [27] Zotan, Otaning Oʻzi sizlarni
sevadi, chunki sizlar Meni yaxshi koʻrib, Xudodan kelganimga ishondingizlar. [28] Men
Otamdan chiqib, dunyoga keldim. Endi dunyoni tark etib, Otamning oldiga ketyapman.”

[29] Shogirdlar Isoga shunday deyishdi:

— Mana, hozir Siz matal ishlatmay, ochiq soʻzlayapsiz. [30] Hamma narsani
bilishingizni endi tushundik. Savolga ham oʻrin yoʻq. Siz Xudodan kelganingizga endi
ishondik.

[31] Iso dedi:

— Endi rostdan ham ishonyapsizlarmi? [32] Shunday vaqt keladiki, hatto keldi ham,
sizlar tarqalib, har biringiz in–iningizga kirib ketasiz. Meni yolgʻiz qoldirasizlar. Biroq
Men yolgʻiz emasman, chunki Otam Men bilandir. [33] Men tufayli xotirjam boʻlishingiz
uchun bularni sizlarga aytdim. Dunyoda qaygʻu–alam chekasizlar. Lekin dadil boʻlinglar,
Men dunyoni yengdim.

## 17–BOB

### Iso Oʻz shogirdlari uchun ibodat qiladi

[1] Shu gaplardan keyin Iso koʻzlarini osmonga tikib, dedi: “Ey Ota! Vaqt–soati keldi.
Oʻgʻling Seni ulugʻlashi uchun Oʻgʻlingni ulugʻlagin. [2] Sen Unga butun insoniyat ustidan
hokimiyat berding. Toki Unga berilgan har bir insonga U abadiy hayot ato qilsin.
[3] Abadiy hayot esa Seni — yagona haq Xudoni hamda Sen yuborgan Iso Masihni tanib–
bilishdan iboratdir.

[4] Sen Menga topshirgan ishni tugatib, yer yuzida Seni ulugʻladim. [5] Dunyo
yaratilishidan avval Men Sening huzuringda ulugʻvor edim. Endi, ey Ota, oʻsha
ulugʻvorlikni Oʻz huzuringda Menga yana ato qilgin.

[6] Sen dunyodan Menga bergan odamlarga Seni tanitdim. Ular Seniki edilar va Sen
ularni Menga berding. Ular Sening soʻzingga amal qildilar. [7] Sen Menga bergan hamma
narsa Sendan ekanligini ular endi bilib oldilar. [8] Chunki Sen Menga aytgan soʻzlaringni
Men ularga aytdim. Ular soʻzlaringni qabul qilib, Men Sendan kelganimni aniq
tushundilar. Meni Sen yuborganingga ishondilar.

[9] Men ular uchun iltijo qilaman. Dunyo uchun emas, balki Sen Menga bergan odamlar
uchun iltijo qilaman. Axir, ular Senikidir. [10] Zotan, Meniki boʻlgan hamma — Seniki,

Seniki esa Menikidir. Mening ulugʻvorligim ular orqali ayon boʻlmoqda.
[11] Men bu dunyoda ortiq qolmayman, Sening oldingga qaytib ketyapman. Ular esa bu
dunyoda qoladilar. Ey Muqaddas Ota! Menga bergan Oʻz noming qudrati ila ularni omon
saqla*. Toki ular ham Bizday bir boʻlsinlar. [12] Men ular bilan birga boʻlganimda, Menga
bergan noming qudrati ila ularni omon saqladim. Ularni asradim*, birontasi yoʻqolmadi.
Faqat Muqaddas bitiklarda aytilganlar* bajo boʻlishi uchun halokatga mahkum boʻlgan
odam* nobud boʻldi.
[13] Endi esa Sening oldingga ketyapman. Mening shodligim ularning qalbini toʻldirsin
deb, bularni hali dunyoda boʻlganimda aytyapman. [14] Men ularga Sening soʻzlaringni
aytdim. Bu dunyoga tegishli boʻlganlar ulardan nafratlanadi. Chunki Men bu dunyodan
boʻlmaganim kabi, ular ham bu dunyodan emaslar. [15] Endi ularni dunyodan olishingni
emas, balki yovuz shaytondan saqlashingni soʻrayapman. [16] Men bu dunyodan
boʻlmaganim kabi, ular ham bu dunyodan emaslar. [17] Sening kaloming haqiqatdir.
Haqiqat orqali ularni Oʻzing uchun ajratib olgin. [18] Sen Meni dunyoga yuborganingday,
Men ham ularni dunyoga yubordim. [19] Ularni deb Oʻzimni Senga bagʻishladim, toki ular
ham haqiqat orqali oʻzlarini Senga bagʻishlasinlar.
[20] Men nafaqat ular uchun iltijo qilyapman, balki ularning soʻzi orqali Menga imon
keltiradiganlar uchun ham iltijo qilyapman: [21] hammalari bir boʻlishsin. Ey Ota, Sen
Menda va Men Senda boʻlganimday, ular ham Bizda boʻlishsin. Shu tariqa Meni Sen
yuborganingga dunyo ishonsin. [22] Sen Menga ato qilgan ulugʻvorlikni ularga berdim, toki
Biz bir boʻlganimizdek, ular ham bir boʻlishsin. [23] Men ulardaman, Sen esa Mendasan.
Shunday ekan, ular mukammal birlikda boʻlsinlar. Toki, Meni Sen yuborganingni dunyo
bilsin. Meni qanday sevsang, Menikilarni ham shunday sevganingni dunyo koʻrsin.
[24] Ey Ota! Sen Menga bergan odamlar Men bilan bir joyda boʻlishini xohlayman. Sen
Menga ato qilgan ulugʻvorlikni ular ham koʻrsin, chunki olamni yaratmasingdan oldin
Sen Meni yaxshi koʻrar eding. [25] Ey odil Ota! Dunyo Seni bilmasa ham, Men Seni bilaman.
Bu odamlar ham Meni Sen yuborganingni bilib oldilar. [26] Ularga Sening kimligingni ayon
qildim va ayon qilishni davom ettiraveraman. Toki, Menga boʻlgan sevging ularning
yuraklarida jo boʻlsin, Men ham ularda boʻlayin.”

# 18–BOB

### Iso hibsga olinadi

[1] Bu soʻzlarni aytgandan soʻng, Iso Oʻz shogirdlari bilan u yerdan chiqib, Qidron
soyligining* narigi tomoniga oʻtdi. Oʻsha yerda bir bogʻ bor edi. Iso shogirdlari bilan
boqqa kirdi. [2] Xoin Yahudo ham oʻsha joyni bilar edi, chunki Iso shogirdlari bilan u yerda
tez–tez uchrashib turar edi. [3] Shunday qilib, Yahudo bir boʻlinma Rim askarlarini hamda
bosh ruhoniylar va farziylar tomonidan yuborilgan Maʼbad mirshablarini* boshlab, u
yerga keldi. Qoʻllarida mashʼalayu fonuslar, qurol–yarogʻlar bor edi.
[4] Iso boshidan kechadigan hamma narsani bilar edi. U odamlarga peshvoz chiqib,
soʻradi:

— Kimni qidiryapsizlar?

[5] — Nosiralik Isoni, — deb javob berishdi ular.

— Oʻsha Menman, — dedi Iso.

Xoin Yahudo ularning orasida turgan edi. [6] Iso “Oʻsha Menman” deyishi bilanoq ular

orqaga tisarilib, yerga yiqilishdi. 7 Iso ulardan yana soʻradi:
— Kimni qidiryapsizlar?
— Nosiralik Isoni, — dedilar.
8 — Sizlarga aytdim–ku, Oʻsha Menman, — dedi ularga Iso. — Agar Meni
qidirayotgan boʻlsangizlar, bularni qoʻyib yuboringlar, ketaverishsin.
9 Shu yoʻsin Isoning ilgari: "Ota, Sen Menga bergan odamlardan hech birining
yoʻqolishiga yoʻl qoʻymadim*" degan soʻzlari bajo boʻldi.
10 Shu onda Butrus* yonidagi qilichini qinidan sugʻurdi–da, oliy ruhoniyning
xizmatkoriga bir urib, oʻng qulogʻini kesib tashladi. Xizmatkorning ismi Malxus edi.
11 Iso Butrusga:
— Qilichingni qiniga solib qoʻy! Nahotki Men osmondagi Otam bergan azob
kosasidan* ichmasam?! — dedi.
12 Shunda Rim askarlari bilan boʻlinma qoʻmondoni va yahudiy mirshablari Isoni
qoʻlga olib, bogʻlashdi. 13 Uni oldin Xanan oldiga olib borishdi. Xanan oʻsha yilgi oliy
ruhoniy boʻlgan Kayafasning qaynatasi edi*. 14 Yahudiylarga: "Xalq uchun bitta
odamning oʻlishi yaxshiroq", deb maslahat bergan oʻsha Kayafas* edi.

### Butrus Isodan tonadi

15 Isoning orqasidan Butrus va yana boshqa bir shogird ergashib borishar edi. Bu
shogird oliy ruhoniy Xananning* tanishi boʻlib, Iso bilan bemalol oliy ruhoniyning
hovlisiga kirdi. 16 Butrus esa tashqarida, darvoza oldida qoldi. Oliy ruhoniyga tanish
boʻlgan shogird keyinroq yana tashqariga chiqdi–da, darvozabon choʻriga nimadir deb,
Butrusni ichkariga olib kirdi. 17 Shunda darvozabon choʻri Butrusdan:
— Siz ham u Odamning shogirdlaridan emasmisiz? — deb soʻradi.
— Yoʻq! — dedi Butrus.
18 Havo sovuq boʻlgani uchun u yerda turgan xizmatkorlar bilan mirshablar koʻmir
yoqib, isinayotgan edilar. Butrus ham ularning oldiga borib, isinib turdi.

### Iso oliy ruhoniy Xanan oldida

19 Shu paytda oliy ruhoniy Xanan Isoni soʻroq qilayotgan edi. Shogirdlari va
ta'limotiga taalluqli savollar berdi. 20 Iso unga javob berib dedi:
— Men elu olamga ochiq soʻzladim. Har doim yahudiylar yigʻiladigan sinagogalarda
va Ma'badda ta'lim berib yurdim, hech yashirincha gap aytmadim. 21 Nega Meni soʻroq
qilyapsiz? Gaplarimni eshitgan odamlardan soʻrang. Nimalar haqida gapirganimni ular
bilishadi.
22 Iso bularni aytib boʻlgach, yonida turgan Ma'bad mirshablaridan biri Isoning
yuziga bir shapaloq urib, dedi:
— Oliy ruhoniyga ham shunday javob berasanmi?
23 Iso bunga javoban dedi:
— Agar Men notoʻgʻri gapirgan boʻlsam, notoʻgʻri joyini koʻrsat. Agar toʻgʻri gapirgan
boʻlsam, nega Meni urasan?
24 Shundan keyin Xanan Isoni bogʻlangan holda oliy ruhoniy Kayafas* huzuriga
yubordi.

### Butrus Isodan yana tonadi

25 Butrus olov oldida isinib turarkan, kimdir undan:
— Sen ham Uning shogirdlaridan emasmisan? — deb soʻradi.

— Yoʻq! — deb tondi u.
[26] Oliy ruhoniyning xizmatkorlaridan biri Butrus qulogʻini uzib yuborgan odamning qarindoshi edi. Bu xizmatkor Butrusga dedi:
— Seni bogʻda U bilan koʻrdim, shekilli?
[27] Butrus esa yana tondi. Naq shu payt xoʻroz qichqirdi.

**Iso Pilat huzurida**

[28] Tong otdi. Yahudiylar Isoni Kayafas huzuridan olib chiqib, hokim Pilatning*
saroyiga olib bordilar. Oʻzlari esa bulgʻanishni istamay hukumat saroyiga kirmadilar*,
chunki bulgʻangan odam Fisih taomini* yeya olmasdi. [29] Shu sababli Pilat tashqariga,
ularning oldiga chiqdi.
— Bu Odamni nimada ayblayapsizlar? — deb soʻradi.
[30] — Agar U jinoyatchi boʻlmaganda, Uni sizning qoʻlingizga topshirmas edik, — deb javob berishdi ular.
[31] — Uni olib ketib, oʻz qonuningiz boʻyicha hukm qilaveringlar, — dedi Pilat.
— Bizga hech kimni qatl qilishga ijozat berilmagan, — deyishdi unga yahudiylar.
[32] Iso Oʻzining qanday oʻlishi haqida aytgan soʻzlari amalga oshishi uchun* bu voqea sodir boʻldi.
[33] Shunda Pilat yana saroyga kirdi va Isoni chaqirtirib:
— Sen yahudiylarning Shohimisan? — deb soʻradi.
[34] — Oʻzingiz qiziqib soʻrayapsizmi, yoki boshqalar sizga Men toʻgʻrimda aytishdimi? — deb soʻradi Iso.
[35] Pilat dedi:
— Nima, men yahudiymidim?! Oʻz xalqing, bosh ruhoniylaring Seni menga topshirishdi. Sen nima ish qilib qoʻyding?
[36] Iso javob berdi:
— Mening Shohligim bu dunyodan emas. Agar Shohligim bu dunyodan boʻlganda edi, yahudiylarning qoʻliga tushmasligim uchun Mening xizmatkorlarim kurashar edilar. Biroq Mening Shohligim bu yerdan emas.
[37] — Demak, Sen Shoh ekansan–da?! — dedi Pilat.
— Shoh ekanimni oʻzingiz aytdingiz, — dedi Iso. — Men haqiqat toʻgʻrisida shohidlik qilmoq uchun tugʻilganman, ana shu maqsadda olamga keldim. Haqiqat tarafida boʻlgan har bir odam Menga quloq soladi.
[38] — Haqiqat oʻzi nima? — deb soʻradi Pilat. Shunday dedi–yu, yana tashqariga, yahudiylarning oldiga chiqdi.
— Men Undan hech qanday ayb topmadim, — dedi ularga. [39] — Sizlarning bir
odatingiz bor–ku, har Fisih bayramida sizlar uchun bir mahbusni ozod qilar edim. Shunga koʻra, sizlar uchun yahudiylarning Shohini ozod qilishimni istaysizlarmi?
[40] — Uni emas, Barabbasni ozod qiling! — deb baqirdi ular.
Barabbas esa isyonda ishtirok etgandi.

# 19–BOB

**Iso oʻlimga hukm qilinadi**

[1] Shundan keyin Pilat* Isoni olib ketishni va qamchilatishni buyurdi. [2] Rim askarlari
tikanlardan toj oʻrib, Isoning boshiga qoʻydilar, ustiga safsar toʻn kiydirdilar. [3] Isoning

oldiga qayta–qayta kelib:
— Yashavor–e, yahudiylarning Shohi! — deb, Uni tarsakilar edilar.
4 Pilat yana tashqariga chiqib, yahudiylarga xitob qildi:
— Mana, Uni oldingizga chiqaryapman, bilib qoʻyinglar, men Undan hech qanday ayb topolmadim!
5 Shu payt boshida tikanli toj, egnida safsar toʻn bilan Iso tashqariga chiqdi.
— Mana, u Odam! — dedi Pilat ularga. 6 Bosh ruhoniylar va Maʼbad mirshablari*
Isoni koʻrib, baqirishdi:
— Xochga mixlansin! Xochga mixlansin!
— Uni sizlar olib xochga mixlanglar! Men Undan hech qanday ayb topolmadim, —
dedi Pilat ularga. 7 Yahudiylar unga javoban:
— Bizda qonun bor, qonunimizga koʻra*, U oʻlishi kerak, chunki U Oʻzini Xudoning Oʻgʻli* deb aytyapti, — dedilar.
8 Pilat buni eshitgach, yuragi orqaga tortib ketdi. 9 Qaytadan hukumat saroyiga kirib,
Isodan:
— Sen qayerdansan? — deb soʻradi. Iso unga javob bermadi.
10 — Menga javob bermaysanmi?! — dedi Pilat. — Seni ozod qilishga yoki xochga mixlashga menda hokimiyat borligini bilmaysanmi?!
11 Iso javob berdi:
— Agar Xudo yoʻl qoʻymaganda edi, siz Menga hech qanday hukmingizni oʻtkaza olmas edingiz. Shu sababdan Meni sizning qoʻlingizga tutib bergan odamning gunohi sizning gunohingizdan kattaroq.
12 Shundan keyin Pilat Isoni qoʻyib yuborishga chora izlay boshladi. Ammo yahudiylar shunday deb qichqirishdi:
— Agar Uni qoʻyib yuborsangiz, siz Qaysarning* doʻsti emassiz. Oʻzini shoh deydigan har bir kishi Qaysarga qarshi chiqqan boʻladi!
13 Pilat bu soʻzni eshitgach, Isoni tashqariga olib chiqdi va Tosh supa deb nom olgan
joydagi hukm kursisiga oʻtirdi (bu joyning oramiycha* nomi Gabbata edi). 14 Oʻsha kuni
Fisih bayrami* arafasi, tush mahali* edi. Pilat yahudiylarga xitob qildi:
— Mana, Shohingiz!
15 — Yoʻq qiling Uni, yoʻq qiling! Xochga mixlang! — deb baqirdi ular.
— Sizlarning Shohingizni xochga mixlab qoʻyaymi? — deb soʻradi Pilat.
— Qaysardan boshqa shohimiz yoʻq, — deyishdi bosh ruhoniylar.
16 Oxiri Pilat Isoni xochga mixlash uchun askarlariga topshirdi. Ular esa Isoni olib ketdilar.

### Isoni xochga mixlashadi

17 Iso Oʻz xochini* koʻtarib, shahar tashqarisidagi Bosh suyagi degan joyga keldi (bu
joyning oramiycha nomi Goʻlgota edi). 18 U yerda Isoni xochga mixlab qoʻydilar. U bilan
birga yana ikkita odamni ham xochga mixladilar. Ularning biri Isoning bu tomonida,
boshqasi u tomonida, Iso esa oʻrtada edi. 19 Pilat bir lavhaga: "Yahudiylarning Shohi
Nosiralik Iso" degan soʻzlarni yozib, lavhani xochga ostirib qoʻydi.
20 Iso xochga mixlangan joy shaharga yaqin boʻlgani uchun, bu lavhani koʻp
yahudiylar oʻqidilar. Lavha oramiy, lotin va yunon tillarida yozilgan edi. 21 Yahudiy bosh
ruhoniylari esa Pilatga borib shunday dedilar:

— "Yahudiylarning Shohi" deb yozmang, balki "Bu Odam yahudiylarning Shohi
boʻlishga daʼvogarlik qilgan" deb yozing.
22 — Men qanday yozgan boʻlsam, shundayligicha qolsin, — dedi Pilat.
23 Askarlar Isoni xochga mixlab boʻlib, Uning kiyimlarini oldilar. Kiyimlarini toʻrt
boʻlakka boʻlib, har bir askarga berdilar. Ichki koʻylagini ham oldilar. Ichki koʻylak
boshdan–oyoq choksiz bir toʻqima edi. 24 Askarlar bir–biriga:
— Buni yirtmaylik, bu uchun qurʼa tashlaymiz, kimga tushsa, oʻshaniki boʻlsin, —
deyishdi.
Shu tariqa Muqaddas bitiklardagi quyidagi soʻzlar bajo boʻldi:

"Kiyimlarimni ular oʻzaro boʻlishgan,
Libosim uchun qurʼa tashlashgan."*

Askarlar xuddi shunday qildilar.
25 Isoning xochi yonida Uning onasi va xolasi, Klopasning xotini Maryam hamda
Magdalalik* Maryam turar edilar. 26 Iso onasini va onasi yonida turgan sevikli
shogirdini* koʻrdi. Iso onasiga:
— Mana bu sizning oʻgʻlingiz! — dedi. 27 Keyin shogirdiga qarab:
— Mana bu sening onang! — dedi.
Oʻsha vaqtdan boshlab shogird Maryamni oʻz uyiga oldi.

### Iso jon beradi

28 Iso hamma ishlarini tugatganini bilardi. Muqaddas bitiklar* bajo boʻlsin deb, U:
— Chanqadim! — dedi.
29 Bu yerda arzon sharobga* toʻla bir idish turgan edi. Askarlar sharobga shimgichni
botirdilar–da, tayoqning* uchiga ilib, Isoning ogʻziga olib bordilar. 30 Iso sharobni tatib
koʻrgach:
— Amalga oshdi! — dedi–yu, boshini egib, jon berdi.
31 Oʻsha kuni Shabbat arafasi edi. Ertangi Shabbat kuni nihoyatda tabarruk kun*
hisoblangani uchun, yahudiylar jasadlarni xochda qoldirishni istamadilar. Ular Pilatning
oldiga borib, xochga mixlangan odamlarning boldirlarini sindirib tashlab*, xochdan
tushirishni soʻradilar. 32 Shunda askarlar borib, Iso bilan birga xochga mixlangan
birinchi, soʻngra ikkinchi odamning boldirlarini sindirib tashladilar. 33 Isoning oldiga
kelib, Uning oʻlib boʻlganini koʻrdilar. Shuning uchun boldirlarini sindirmadilar. 34 Lekin
askarlardan biri Isoning biqinini nayza bilan teshdi, shu zahoti Uning biqinidan qon
bilan suv oqib chiqdi. 35 Bu hodisani koʻrgan kishi*, sizlar ham ishoninglar deb, guvohlik
berib kelmoqda. Uning guvohligi haqiqatdir, u haqiqat aytayotganini biladi. 36 Bu hodisa
Muqaddas bitiklardagi: "Bironta ham suyagi sindirilmaydi"* degan soʻzlar amalga
oshishi uchun roʻy berdi. 37 Muqaddas bitiklarning boshqa bir joyida shunday deyilgan:
"Ular oʻzlari nayza sanchgan Odamga qaraydilar."*

### Iso dafn qilinadi

38 Arimateyalik* Yusuf Isoning shogirdi edi, lekin yahudiylardan qoʻrqqani uchun
buni yashirib yurar edi. Iso oʻlgandan keyin Yusuf Pilatdan Isoning jasadini xochdan
tushirib olishni iltimos qildi. Pilat ijozat berdi. Shunda Yusuf borib, Isoning jasadini
xochdan tushirib oldi. 39 Ilgari Isoning oldiga kechasi borgan Nikodim* ham Yusuf bilan

birga edi. Nikodim ikki pud* mirra* va aloe moylarining qorishmasini olib kelgandi.
40 Ular ikkovi Isoning jasadini olib, yahudiylarning dafn odatlariga koʻra, bu muattar
moddalarni surtib, Uni kafanladilar. 41 Iso xochga mixlangan joyning yaqinida bir bogʻ
bor edi. U bogʻda hali hech kim qoʻyilmagan yangi bir qabr bor edi. 42 Oʻsha kun
yahudiylarning Shabbat arafasi boʻlgani uchun ular, bu joy yaqinroq, deb Isoning
jasadini oʻsha qabrga qoʻydilar.

# 20–BOB

### Iso tiriladi

1 Yakshanba kuni erta saharda, kun yorishmasdan, Magdalalik* Maryam qabrning
oldiga kelib, qabr ogʻzidagi toshning agʻdarilganini koʻrdi. 2 Soʻng u yugurib, Butrus* va
Isoning sevikli shogirdi* oldiga borib dedi:

— Hazratimizning jasadini qabrdan olib ketishibdi. Uni qayerga qoʻyishganini bilmaymiz.

3 Butrus va boshqa shogird qabr tomon joʻnashdi. 4 Ikkovi birga yugurib ketishdi.
Ammo u shogird Butrusdan tezroq yugurib, qabrga birinchi boʻlib yetib keldi. 5 U
engashib ichkariga qaradi–da, u yerda yotgan kafanni koʻrdi. Lekin qabrga kirmadi.
6 Uning orqasidan Butrus yetib kelib, qabrga kirdi. U yerda yotgan kafanni 7 va Isoning
boshiga oʻralgan roʻmolni koʻrdi. Ammo roʻmol kafan bilan birga emas, alohida joyga
yigʻishtirib qoʻyilgan edi. 8 Shunda avval kelgan shogird ham qabrga kirdi. Koʻrgandan
keyingina ishonch hosil qildi. 9 Chunki ular Muqaddas bitiklardagi, Iso oʻlikdan tirilishi
kerak degan soʻzlarni shu paytgacha tushunmagan edilar.

### Iso Maryamga zohir boʻladi

10 Shundan soʻng shogirdlar yana oʻz uylariga qaytib ketdilar. 11 Maryam esa
qabrning tashqarisida turganicha, yigʻlar edi. Yigʻlayotib, bir egilib qabr ichiga qaradi.
12 Shunda oq kiyim kiygan ikki farishtani koʻrib qoldi. Biri Isoning jasadi yotgan joyning
bosh tomonida, ikkinchisi esa oyoq tomonida oʻtirgan edi. 13 Ular Maryamga:

— Ey ayol, nega yigʻlayapsan? — deyishdi.

— Hazratimning jasadini olib ketishibdi, Uni qayerga qoʻyishganini bilmayman, —
dedi u. 14 Shunday dedi–yu, orqasiga burilib, u yerda turgan Isoni koʻrdi. Lekin Uning Iso
ekanligini bilmadi.

15 — Ey ayol, nega yigʻlayapsan? Kimni qidiryapsan? — deb soʻradi undan Iso.
Maryam Uni bogʻbon deb oʻyladi. Unga shunday dedi:

— Taqsir, agar Uni siz olib ketgan boʻlsangiz, qayerga qoʻyganingizni menga ayting, men borib Uni olay.

16 Iso unga:

— Maryam! — dedi.

Maryam Isoga qayrilib qaradi–da, oramiychalab*:

— Ravvuniy! — dedi. (Ravvuniy “ustozim” demakdir.)

17 — Meni ushlab turma! — dedi Iso Maryamga. — Men samoviy Otaning oldiga
chiqib ketyapman. Sen borib birodarlarimga gaplarimni yetkaz: “Men Otamning oldiga
chiqib ketyapman. U sizlarning ham Otangizdir. U Mening Xudoyim va sizlarning
Xudoyingizdir.”

18 Shunda Magdalalik Maryam shogirdlarning oldiga borib:

— Men Rabbimiz Isoni koʻrdim! — dedi. Soʻng Isoning unga aytgan gaplarini ularga
yetkazdi.

### Iso shogirdlariga zohir boʻladi

19 Oʻsha yakshanba kuni oqshomda shogirdlar toʻplangan edilar. Ular yahudiylardan
qoʻrqib, uyning eshiklarini qulflab olgan edilar. Shu payt Iso keldi, oʻrtalarida turib
shogirdlariga:
— Sizlarga tinchlik boʻlsin! — dedi. 20 Soʻng ularga qoʻllarini* va biqinini koʻrsatdi.
Shogirdlar Rabbimiz Isoni koʻrib, xursand boʻlib ketdilar.
21 Iso yana ularga dedi:
— Sizlarga tinchlik boʻlsin! Osmondagi Otam Meni dunyoga yuborgani singari, Men
ham sizlarni dunyoga yuboryapman.
22 Shunday deb, ularning ustiga pufladi–da:
— Muqaddas Ruhni qabul qilinglar, — dedi. 23 — Sizlar kimning gunohlarini
kechirsangizlar, u kechiriladi. Kimning gunohlarini kechirmasangizlar, u kechirimsiz
qolaveradi.

### Iso bilan Toʻma

24 Iso kelganda oʻn ikki shogirddan biri Toʻma, yaʼni Didimus* shogirdlar orasida yoʻq
edi. 25 Boshqa shogirdlar unga:
— Biz Rabbimiz Isoni koʻrdik, — deyishdi. Toʻma ularga shunday dedi:
— Uning qoʻllaridagi mix chandiqlarini oʻzim koʻrmagunimcha, mix chandiqlariga
barmogʻimni tekkizmagunimcha, biqiniga qoʻlim bilan tegib koʻrmagunimcha
ishonmayman.
26 Keyingi yakshanba kuni Isoning shogirdlari yana uyda toʻplangan edilar. Bu safar
Toʻma ham ular bilan birga edi. Uyning eshiklari qulf edi. Shunga qaramay Iso kirdi,
oʻrtalarida turib:
— Sizlarga tinchlik boʻlsin! — dedi. 27 Keyin Toʻmaga qarab:
— Barmogʻingni bu yoqqa tekkiz! Qoʻllarimni koʻr. Qoʻlingni uzatib, biqinimga tegib
koʻr. Ikkilanishni bas qil, ishon! — dedi. 28 Toʻma Isoga:
— Yo Rabbim, Xudoyim! — dedi. 29 Iso unga shunday dedi:
— Sen Meni koʻrganing uchun ishonding. Meni koʻrmay ishonganlar naqadar
baxtlidir!

### Kitobning mohiyati

30 Isoning bu kitob tarkibiga kiritilmagan yana koʻp moʻjizali alomatlariga shogirdlar
guvoh boʻlganlar. 31 Kitobga kiritilgan moʻjizalar esa sizlar uchun yozilgan. Toki sizlar
Isoning Masih, Xudoning Oʻgʻli* ekanligiga ishonib, bu imoningiz tufayli hayotga ega
boʻlinglar.

## 21–BOB

### Iso koʻl boʻyida zohir boʻladi

1 Bu hodisalardan keyin Iso Jalila koʻli* boʻyida yana shogirdlariga zohir boʻldi. Bu
shunday roʻy berdi: 2 Butrus*, Toʻma, yaʼni Didimus*, Jaliladagi Kaʼna qishlogʻidan
boʻlgan Natanil, Zabadiyoning oʻgʻillari* va boshqa ikki shogird — hammalari birga
yigʻilgan edilar. 3 Butrus yonidagilarga:

— Men ketdim, baliq tutaman, — dedi.
— Biz ham sen bilan boramiz, — deyishdi ular. So‘ng qayiqqa tushib, jo‘nab ketishdi.
Lekin o‘sha kecha hech narsa tutisholmadi.
[4] Kun yorishganda, Iso qirg‘oqda turgan edi. Shogirdlari esa Uning Iso ekanligini
bilmadilar.
[5] — Yigitlar, balig‘ingiz bormi? — deb so‘radi Iso ulardan.
— Yo‘q, — deb javob berdi ular.
[6] — To‘ringizni qayiqning o‘ng tomoniga tashlanglar, shunda tutasizlar, — dedi Iso.
Ular to‘rni tashladilar. Baliq ko‘pligidan uni tortib ololmadilar. [7] Shu payt Isoning
sevikli shogirdi*:
— Bu Rabbimiz Iso–ku! — dedi Butrusga. Butrus buni eshitishi bilanoq, uzun
ko‘ylagining etaklarini beliga qistirdi–yu, ko‘lga sakradi. [8] Boshqa shogirdlar esa baliq
to‘la to‘rni sudragancha, qayiqda keldilar. Ular quruqlikka yaqin, taxminan ikki yuz
tirsak* masofada edilar. [9] Qirg‘oqqa chiqqanlarida, nonni va yongan ko‘mir ustida
pishayotgan baliqni ko‘rdilar.
[10] Iso ularga:
— Hozir tutgan balig‘ingizdan olib kelinglar, — dedi. [11] Butrus borib, to‘rni qirg‘oqqa
tortib chiqardi. To‘r katta baliqlarga to‘la edi. Hammasi bo‘lib 153 ta baliq bor edi.
Baliqlar ko‘pligiga qaramasdan, to‘r yirtilmadi.
[12] Iso shogirdlariga:
— Qani, kelinglar, nonushta qilib olinglar, — dedi. Ulardan hech biri: “Siz kimsiz?”
deb so‘rashga botinolmadi, chunki Uning Rabbimiz Iso ekanligini bilar edilar. [13] Iso
ularning oldiga borib, nondan berdi, baliqdan ham berdi.
[14] Shu yo‘sin Iso tirilgandan keyin uchinchi marta shogirdlariga zohir bo‘ldi.

**Isoning Butrusga savoli**

[15] Iso nonushtadan keyin Shimo‘n Butrusdan* so‘radi:
— Yuhanno* o‘g‘li Shimo‘n, sen Meni ulardan ko‘proq yaxshi ko‘rasanmi?
— Ha, Rabbim! Men Seni yaxshi ko‘rishimni O‘zing bilasan–ku, — dedi Unga Butrus.
— Qo‘zilarimni o‘tlat, — dedi unga Iso.
[16] Iso ikkinchi marta Butrusdan so‘radi:
— Yuhanno o‘g‘li Shimo‘n, sen Meni yaxshi ko‘rasanmi?
— Ha, Rabbim! Seni yaxshi ko‘rishimni O‘zing bilasan–ku, — dedi Butrus Unga.
— Qo‘ylarimni boq, — dedi unga Iso.
[17] So‘ng uchinchi marta Butrusdan so‘radi:
— Yuhanno o‘g‘li Shimo‘n, sen Meni yaxshi ko‘rasanmi?
Iso uchinchi marta yana shu savolni bergani uchun Butrus xafa bo‘ldi.
— Rabbim! Sen hamma narsani bilasan, men Seni yaxshi ko‘rishimni ham bilasan, —
dedi Butrus. Iso unga shunday dedi:
— Qo‘ylarimni o‘tlat! [18] Senga chinini aytayin: yosh bo‘lganingda kamaringni o‘zing
bog‘lar eding, xohlagan joyingga borar eding. Qariganingda esa qo‘llaringni uzatasan,
boshqa birov seni bog‘laydi, seni xohlamagan joyingga olib boradi.
[19] Iso bu so‘zlar orqali Butrusning qay yo‘l bilan o‘lib, Xudoni ulug‘lashini bildirdi*.
So‘ngra unga:
— Ortimdan yur! — dedi.

## Iso va Uning sevikli shogirdi

[20] Butrus burilib, Isoning sevikli shogirdi* orqalaridan ergashib kelayotganini koʻrdi.
Bu shogirdi kechki ziyofatda engashib, Isodan: “Hazrat, Sizni kim tutib beradi?” — deb
soʻragan edi. [21] Butrus uni koʻrib, Isodan:
— Rabbim, uning taqdiri nima boʻladi? — deb soʻradi. [22] Iso unga:
— Men kelgunimgacha uning tirik qolishini istasam, bundan senga nima?! Sen ortimdan yuraver, — dedi.
[23] Shunday qilib, imonlilar orasida bu shogird oʻlmaydi degan gap–soʻz tarqalib ketdi.
Holbuki, Iso uni oʻlmaydi, demagandi. U faqat: “Agar Men kelgunimgacha uning tirik qolishini istasam, bundan senga nima?!” — deb aytgan edi.

## Xotima

[24] Ana shu shogird bu hodisalarning hammasiga guvoh boʻlib, ularni yozib olgan.
Uning guvohligi haqiqat ekanligini bilamiz. [25] Iso yana koʻp boshqa ishlar qilgan. Bular
birma–bir yozib chiqilganda edi, yozilgan kitoblar olamga ham sigʻmas edi, deb oʻylayman*.

# IZOHLAR

*Xudoning O‘g‘li* — Iso Masihning unvoni. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XUDONING O‘G‘LI iborasiga qarang.

**1:1** *Kalom* — yunoncha matnda *logos*. Bu yunoncha so‘z yahudiylar uchun ham, yunonlar uchun ham muhim ahamiyatga ega. Yunon faylasuflari bu so‘zni ishlatganlarida nafaqat og‘izdan chiqqan so‘zni, balki hali tilga olinmagan, xayoldagi fikrni ham nazarda tutganlar. Ular bu so‘zni koinotga nisbatan ishlatganlarida, butun koinotni boshqarib turgan, borliq asosidagi ilohiy ongni nazarda tutganlar. Ba’zi yunonlar *logos* so‘zini koinot manbayi va ijodkori bo‘lgan bosh Xudoga nisbatan ishlatganlar. Ko‘p yunonzabon yahudiylar *logos* so‘zini Xudoning donoligiga yoki Xudoning kalomiga nisbatan ishlatganlar, ba’zan esa Xudoning bu dunyodagi ishlarini amalga oshiradigan ilohiy zot timsolida tasavvur qilganlar. Shulardan ko‘rinib turibdiki, Yuhanno bu o‘rinda yahudiylarga ham, yunonlarga ham tushunarli bo‘lgan so‘zni ishlatgan.

**1:3** *Butun borliq Kalom orqali yaratilgan* — Zabur 32:6, 9, Kolosaliklar 1:15-17, Ibroniylar 1:2-3 ga qarang.

**1:9** *Har bir odamni yoritadigan haqiqiy Nur dunyoga kelayotgan edi* — yoki *Bu Nur haqiqiy Nur edi, U dunyoga kelgan har bir odamni yoritardi*. Bu o‘rindagi yunoncha gapni yuqoridagiday ikki xil ma’noda tushunish mumkin, ammo kitobning keyingi oyatlaridan ko‘rish mumkinki, muallif *dunyoga kelayotgan* iborasi ostida, haqiqiy Nurga, ya’ni Iso Masihga ishora qilgan (12:46 ga qarang, yana 6:14, 9:39, 11:27, 16:28 ga qarang).

**1:13** *...Tabiiy yo‘l bilan emas...* — yunoncha matnda *...Qondan emas...*. Ota–onadan tug‘ilishga ishora.

**1:14** *yashadi* — bu o‘rinda ishlatilgan yunoncha so‘z chodir o‘rnatish ma’nosini ifodalab, Eski Ahddagi Muqaddas chodirni, Xudo O‘z xalqi orasida yashaydigan joyni eslatadi (Chiqish 25:8 ga qarang).

**1:14** *Ota* — Xudoga ishora. Bu unvon Muqaddas Kitobdagi boshqa hamma kitoblarga qaraganda Yuhanno kitobida ko‘p ishlatilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XUDONING NOMLARI iborasi ostida berilgan OTA so‘ziga qarang.

**1:14** *O‘g‘il* — Iso Masihning unvoni. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XUDONING O‘G‘LI iborasiga qarang.

**1:18** *Samoviy Otaning bag‘ridagi, Aslida Xudo bo‘lgan yagona O‘g‘il* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *samoviy Otaning bag‘ridagi yagona O‘g‘il*.

**1:19-20** *ruhoniy* — Quddusdagi Ma’badda xizmat qiladigan e’tiborli din rahnamosi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi RUHONIY so‘ziga qarang.

**1:19-20** *levi* — Quddusdagi Ma’badda ruhoniyga xizmat qilishda yordam beradigan odam. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi LEVI, LEVILAR so‘ziga qarang.

**1:19-20** *Masih* — bu unvonni yahudiylar kelajakda ularni dushmanlaridan qutqaradigan va butun yer yuzidagi xalqlar ustidan hukmronlik qiladigan insonga nisbatan ishlatganlar. Eski Ahdda Masihning qiladigan ishlari haqida bashoratlar

yozilgan. Yangi Ahdga ko‘ra Rabbimiz Iso o‘sha Masihdir. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi MASIH so‘ziga qarang.

**1:21** *Ilyos* — Eski Ahd davrida yashagan eng buyuk payg‘ambarlardan biri. Yahudiylar Ilyosning qaytib kelishini intizorlik bilan kutishardi (Malaki 4:5-6 ga qarang).

**1:21** *Biz kutayotgan payg‘ambarmisan?* — Muso Isroil xalqiga, Xudo sizlar uchun menga o‘xshagan payg‘ambar yuboradi, bu payg‘ambar o‘z orangizdan kelib chiqadi, deb aytgan edi (Qonunlar 18:15-19 ga qarang). Ko‘p yahudiylar bu payg‘ambar dunyoning so‘nggi damlarida kelib, ularni zolimlardan qutqarishiga ishonardilar. Musoning bashorati Iso Masihda ro‘yobga chiqdi (Havoriylar 3:17-26 ga qarang).

**1:23** *Ishayo payg‘ambar aytganiday…* — muallif bu o‘rinda Ishayo 40:3 ning qadimiy yunoncha tarjimasidan foydalangan.

**1:24** *Farziylar* — yahudiylarning muhim bir diniy mazhabi. Farziylar Tavrot qonunlariga qat’iy rioya qilardilar, og‘zaki ravishda tarqalgan urf–odatlarga hamda poklanish udumlariga izchil amal qilardilar. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi FARZIY so‘ziga qarang.

**1:24** *Farziylar tomonidan yuborilgan bu odamlar…* — yoki *Ba’zi farziylar ham yuborilgan edilar. Ular…*.

**1:27** *U mening ortimdan kelyapti…* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *U mening ortimdan kelyapti, lekin mendan ilgari bor bo‘lgan*.

**1:28** *Baytaniya* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Baytavara*. Bu oyatdagi Baytaniya qishlog‘i Maryam va Martaning akasi Lazar yashagan, Quddus yonidagi Baytaniya emas (11:1 ga qarang).

**1:34** *Xudoning O‘g‘li* — Iso Masihning unvoni. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XUDONING O‘G‘LI iborasiga qarang.

**1:38** *Ravviy* — oramiycha so‘z. Ba’zi kitobxonlar oramiy tilini bilmaganlari uchun, muallif mana shu so‘zning ma’nosini tushuntirib o‘tgan. Kitobning boshqa joylarida oramiycha *Ravviy* so‘zi *Ustoz* deb tarjima qilingan.

**1:39** *soat to‘rt* — yunoncha matnda *o‘ninchi soat*, yahudiylarning urf–odatiga ko‘ra, kunning bu payti o‘sha soat bilan belgilanar edi.

**1:40** *Shimo‘n* — yunoncha matnda *Shimo‘n Butrus*. Butrus ismini unga Iso Masih bergan edi (shu bobning 42–oyatiga qarang). Ba’zan u haqda so‘z yuritilganda, ikkala ism ham birgalikda ishlatiladi.

**1:42** *Yuhanno* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida bu ismning boshqa varianti *Yunus*.

**1:42** *Kifas* — oramiycha ism.

**1:45** *Natanil* — an’anaga ko‘ra, Bartolomeyning yana bir ismi. Bartolomey o‘n ikki havoriydan biri edi (Matto 10:3, Mark 3:18, Luqo 6:14 ga qarang). Bu oramiycha ismning ma’nosi *Tolomey o‘g‘li* deganidir.

**1:45** *…Tavrot kitobida…payg‘ambarlar…o‘zlarining bitiklarida…* — odatda yahudiylar, Eski Ahd to‘plami uch qismdan iborat, deb aytadilar. Bu uch qism quyidagilardir: Tavrot (Musoning qonuni degan nom bilan ham yuritiladi), Payg‘ambarlar bitiklari (uning

tarkibiga ba’zi tarixiy kitoblar ham kirgan) va Bitiklar (Zabur bu qismning birinchi kitobidir). Yahudiylar ba’zan dastlabki ikki qism “Tavrot va Payg‘ambarlar bitiklari” deganda butun Eski Ahd to‘plamini nazarda tutadilar.

**1:47** *...Isroilning haqiqiy avlodi...hiyla degan narsani bilmaydi* — bu o‘rinda Yoqub va hiyla so‘zlariga so‘z o‘yini ishlatilgan bo‘lishi mumkin, chunki Yoqub ismi “hiyla, yolg‘on” ma’nosi bildiradigan so‘zdan kelib chiqqan (Ibtido 25:26 izohiga qarang). Tarjimada aytib o‘tilgan Isroil Yoqubning ikkinchi ismi edi. Xudo Yoqubga Isroil deb ism berishdan oldin, Yoqub akasi Esovni va o‘z otasi Is’hoqni aldagan edi.

**1:51** *Inson O‘g‘li* — Iso Masih ko‘pincha O‘ziga nisbatan ishlatgan unvon. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi INSON O‘G‘LI iborasiga qarang.

**1:51** *...sizlar...ko‘rasizlar* — yahudiylarning bobokaloni Yoqub akasi Esovdan qochayotgan paytda shunga o‘xshagan tush ko‘rgan edi (Ibtido 28:10-15 ga qarang). Bu oyatda Iso O‘zining hokimiyati osmondan berilganini, U orqali Xudo O‘zini yer yuzida tanitishini va Yoqubga tushida bergan va’dasini bajarishini nazarda tutadi.

**2:6** *o‘n–o‘n ikki chelak* — yunoncha matnda *ikki–uch o‘lchov*, taxminan 80-120 litrga to‘g‘ri keladi.

**2:13** *Fisih bayrami* — Fisih ziyofatiga va undan keyin yetti kun davomida nishonlanadigan Xamirturushsiz non bayramiga ishora. Bu bayramlar Isroil xalqining Misrdagi qullikdan ozod bo‘lishi munosabati bilan nishonlanar edi (Chiqish 12:1-42, 13:3-10 ga qarang).

**2:14** *sarroflar* — pul ayirboshlovchilar. Ular Rim va Yunon tangalarini yahudiylarning shaqaliga almashtirganlar. Ma’bad solig‘ini to‘lash va qurbonlik qilinadigan hayvonlarni sotib olish uchun shaqal ishlatilgan.

**2:17** Zabur 68:10 ga qarang.

**2:20** *Bu Ma’bad qirq olti yildan beri qurilyapti...* — Buyuk Hirod (miloddan oldingi 37-4 yillarda hukmronlik qilgan) Ma’badni miloddan oldingi 19 yilda qayta qurishni boshlagan va qurilish ishlari Iso Masih davrida ham davom etayotgan edi.

**3:3** *qaytadan* — bu o‘rinda ishlatilgan yunoncha so‘z *qaytadan* yoki *yuqoridan* degan ma’nolarni bildiradi. Muallif bu ikkala ma’noni ham nazarda tutgan bo‘lishi mumkin. Bu yunoncha so‘z shu bobning 7, 31–oyatlarida ham ishlatilgan.

**3:3** *Xudoning Shohligi* — Xudoning hozirgi paytda insonlar hayotidagi hukmronligi va oxiratda har bir yaratilgan mavjudotning yangilanishiga ishora. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XUDONING SHOHLIGI iborasiga qarang.

**3:13** *Osmondan tushgan...* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *osmonda istiqomat qiladigan va osmondan tushgan*.

**3:14** *bronza ilon* — Sahroda 21:4-9 ga qarang.

**3:14** *Inson O‘g‘li ham xuddi shunday yuqoriga ko‘tarilishi kerak...* — Isoning xochdagi o‘limiga ishora (12:31-33 ga qarang).

**3:15** *...imonga kelgan har bir kishi U orqali abadiy hayotga ega bo‘ladi* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Unga ishongan hech bir kishi halok bo‘lmaydi, balki abadiy hayotga ega bo‘ladi*.

**3:16** *Zero…* — shu bobning 16-21–oyatlari Isoning gaplari boʻlishi mumkin yoki Yuhanno Isoning soʻzlaridan xulosa chiqarib yozayotgan boʻlishi mumkin.

**3:23** *…Saleym…Eynon yeri…* — ularning qayerda joylashgani bahsli.

**3:24** *…Yahyo zindonga tashlanishdan oldin…* — Mark 6:17-18 ga qarang.

**3:31** *Yuqoridan…* — shu bobning 31-36–oyatlari Yahyoning gaplari boʻlishi mumkin yoki Yuhanno Yahyoning soʻzlaridan xulosa chiqarib yozayotgan boʻlishi ham mumkin.

**3:36** *Xudoning Oʻgʻli* — Iso Masihning unvoni. Toʻliqroq maʼlumotga ega boʻlish uchun lugʻatdagi XUDONING OʻGʻLI iborasiga qarang.

**4:5** *Sixar…Yoqub* — Sixar shahri Shakam yaqinida boʻlgan. Ibrohimning nabirasi Yoqub Shakamga yaqin joydan yer sotib olgan edi (Ibtido 33:18-19 ga qarang). Keyinchalik bu yer Yusufning avlodlariga ulush qilib berilgan (Yoshua 24:32 ga qarang).

**4:6** *tush payti* — yunoncha matnda *oltinchi soat*, yahudiylarning urf–odatiga koʻra, kunning bu payti oʻsha soat bilan belgilanar edi.

**4:9** *…Samariyalik ayol boʻlsam, qanday qilib mendan suv soʻrashga jurʼat etdingiz?!* — yahudiylar Samariyaliklardan hazar qilishar edi. Toʻliqroq maʼlumotga ega boʻlish uchun lugʻatdagi SAMARIYALIK soʻziga qarang. Erkak kishining begona ayol bilan gaplashishi ham odatiy hol emas edi (shu bobning 27–oyatiga qarang).

**4:19** *Hazrat* — yunoncha matnda *kurios*. Bu oʻrinda obroʻ–eʼtiborli insonga nisbatan ishlatiladigan soʻz sifatida qoʻllangan (shu bobning 11, 15–oyatlarida *taqsir* soʻzi bilan tarjima qilingan). Toʻliqroq maʼlumotga ega boʻlish uchun lugʻatdagi XUDONING NOMLARI iborasi ostida berilgan RABBIY, RABBIM, RABBIMIZ… soʻziga qarang.

**4:20** *bu togʻ* — Garizim togʻi nazarda tutilgan. Xudoga sajda qilishga eng munosib joy qayerda ekanligi haqida yahudiylar va Samariyaliklar oʻrtasida anchadan beri qizgʻin bahs borardi. Samariyaliklarning aytishi boʻyicha, Xudoga sajda qilish uchun eng munosib boʻlgan joy Quddusdagi Sion togʻi emas, balki ular tabarruk hisoblagan Garizim togʻidir. Ayol "ota–bobolarimiz" deganda oʻsha yerda qurbongoh qurgan va Xudoga sajda qilgan Ibrohim va Yoqubni nazarda tutgan (Ibtido 12:6-7, 33:18-20 ga qarang). Samariyaliklarning Tavrotiga koʻra, Muso xalqqa Ebal togʻida emas, balki Garizim togʻida qurbongoh qurishni buyurgandi (Qonunlar 27:2-7 ga qarang). Samariyaliklar oʻzlarining bu qarashlarini mana shu oyatlar bilan asoslamoqchi boʻlardilar. Ular taxminan miloddan oldingi 400 yilda Garizim togʻida maʼbad qurganlar. Bu maʼbadni yahudiylar taxminan miloddan oldingi 128 yilda buzib tashlaganlar. Buning oqibatida yahudiylar va Samariyaliklar orasidagi dushmanlik yanada kuchaygan.

**4:22** *Sizlar…kimga sajda qilayotganingizni bilmaysizlar…* — Samariyaliklarning Xudo haqidagi tushunchasi cheklangandi, chunki ular Eski Ahdni toʻligʻicha qabul qilmasdilar. Ularning Muqaddas bitiklari faqatgina Tavrotdan iborat edi.

**4:42** *…olamning Najotkori ekanligiga amin boʻldik* — yunoncha matndan. Baʼzi yunon qoʻlyozmalarida *olamning Najotkori — Masih ekanligiga amin boʻldik*.

**4:46** *saroy amaldori* — Hirod Antipasning amaldorlaridan biri boʻlishi mumkin. Hirod Antipas Jalila va Pereya hududlarida hukmronlik qilgan.

**4:52** *soat birlarda* — yunoncha matnda *yettinchi soat*, yahudiylarning urf–odatiga koʻra,

kunning bu payti oʻsha soat bilan belgilanar edi.

**5:2** *oramiycha* — bu oʻrinda ishlatilgan yunoncha soʻz ibroniy tilini yoki oramiy tilini bildirishi mumkin. Oʻsha paytda qadimgi Falastinda yashagan yahudiylar odatda oramiy tilida gaplashar edilar.

**5:2** *Baytzada* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qoʻlyozmalarida *Baythasda*.

**5:3-4** Yunoncha matndan. Ba'zi yunon qoʻlyozmalarida quyidagi soʻzlar 3–oyatning oxiri va 4–oyatni tashkil etib, qoʻshimcha qilingan: *Ular suvning qimirlashini intizor boʻlib kutar edi. [4] Chunki Egamizning bir farishtasi goh–goh hovuzga tushib, suvni harakatga keltirar edi. Suv qimirlashi bilan hovuzga birinchi boʻlib kim tushsa, har qanday xastalikdan xalos boʻlar edi.*

**5:10** *Shu kuni toʻshakni koʻtarib yurish qonunda man etilgan!* — farziylar Tavrotdagi qonunni (Chiqish 34:21, Yeremiyo 17:21-22, Naximiyo 13:15 ga qarang) oʻzlaricha jiddiy sharhlab, hatto inson hayotiga oid ikir–chikirlarni ham qonun darajasiga koʻtarganlar. Shuning uchun ular sogʻayib ketgan odam qilgan ishni Shabbat kuniga xilof ish deb hisoblaganlar. Yana Matto 12:9-12 ga qarang.

**5:16** Yunoncha matndan. Ba'zi yunon qoʻlyozmalarida quyidagi soʻzlar oyatga qoʻshimcha qilingan: *va Uni oʻldirish yoʻlini izlay boshladilar*.

**5:25** *Xudo Oʻgʻli* — Iso Masihning unvoni. Toʻliqroq ma'lumotga ega boʻlish uchun lugʻatdagi XUDONING OʻGʻLI iborasiga qarang.

**5:39** *Muqaddas bitiklar* — odatda Eski Ahd kitoblari toʻplami shu nom bilan ataladi.

**6:1** *...Jalila koʻlining narigi qirgʻogʻiga...* — bu ibora koʻlning oʻsha qirgʻogʻidagi boshqa bir joyga qayiq bilan suzib borishni ham bildirishi mumkin. Iso aynan qayerda olomonga taom yetkazib bergani aniq emas. An'anaga koʻra, Iso bir necha ming kishini toʻydirgan bu joy koʻlning shimoli–gʻarb tomonida, Jaliladagi Baytsaydaga yaqin edi.

**6:7** *ikki yuz kumush tanga* — yunoncha matnda *ikki yuz dinor*. Dinor Rim kumush tangasi boʻlib, mardikorning bir kunlik ish haqi edi.

**6:8** *Butrus* — yunoncha matnda *Shimoʻn Butrus* (shu bobning 68–oyatida ham bor). 1:40 izohiga qarang.

**6:11** *...oʻtirganlarning hammasiga tarqatdi* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qoʻlyozmalarida *shogirdlariga, shogirdlar esa oʻtirganlarning hammasiga tarqatdi*.

**6:14** *dunyoga kelishi kerak boʻlgan paygʻambar* — 1:21 ning ikkinchi izohiga qarang.

**6:17** *koʻlning narigi tomoni* — shu bobning 1–oyati izohiga qarang.

**6:19** *besh chaqirimcha* — yunoncha matnda *25-30 stadion*, taxminan 5-6 kilometrga toʻgʻri keladi.

**6:23** *Tiberiyas* — Jalila koʻlining gʻarbiy qirgʻogʻida joylashgan shahar.

**6:25** *koʻlning narigi boʻyi* — shu bobning 1–oyati izohiga qarang.

**6:31** *manna* — Isroil xalqi Misrdan chiqqandan keyin to Kan'on yurtiga kirguncha, Xudo ularga yetkazib turgan maxsus yegulik. Manna, Shabbat kunidan tashqari, har kuni kechasi yerga yogʻilardi, odamlar saharda turib, uni yigʻib olishardi (Chiqish 16:13-35, Yoshua 5:12 ga qarang).

**6:31** Zabur 77:24 ga qarang.

**6:45** Ishayo 54:13 ga qarang.

**6:69** *Xudoning Azizi* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Masih — barhayot Xudoning O‘g‘li*.

**7:2** *Chayla bayrami* — bu bayram kuzda yig‘im–terim tugagan paytga to‘g‘ri keladi.

**7:21** *Men Shabbat kuni bitta mo‘jiza qilganim...* — 5:1-18 ga qarang.

**7:22** *sunnat odati* — sunnat Xudoning Ibrohim va uning avlodi bilan qilgan ahd belgisi edi (Ibtido 17:9-14 ga qarang). Sunnat yahudiylarning Xudoga sodiqligini va Uning tanlagan xalqiga tegishli ekanini ko‘rsatadi.

**7:32** *bosh ruhoniylar* — jamiyatning boshqa e’tiborli odamlari qatorida Oliy kengash a’zolari edilar. Oliy kengash yahudiylarning siyosiy va diniy kengashi edi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi BOSH RUHONIYLAR iborasiga qarang.

**7:32** *Ma’bad mirshablari* — Ma’badni qo‘riqlash va u yerda tartib saqlash uchun mas’ul bo‘lgan yahudiy harbiylari.

**7:35** *...boshqa yurtlarda...G‘ayriyahudiylarga...* — yunoncha matnda *...yunonlar orasida...Yunonlarga...*. O‘sha davrda *yunonlar* so‘zi nafaqat millati yunon bo‘lgan, balki yunon tilida so‘zlashuvchi, yunon urf–odatlariga rioya qiluvchi odamlarga nisbatan ham ishlatilgan. Bu o‘rinda yahudiylarning Xudosiga sajda qilgan g‘ayriyahudiylar nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin (12:20 ga va o‘sha oyatning izohiga qarang).

**7:40** *biz kutgan payg‘ambar* — 1:21 ning ikkinchi izohiga qarang.

**7:42** *Muqaddas bitiklarda...deb aytilmaganmi?!* — Mixo 5:2 ga qarang.

**7:50** *Nikodim* — 3:1-15 ga qarang.

**7:52** Yuhanno kitobining eng qadimgi yunon qo‘lyozmalari va tarjimalari 7:53-8:11 ni o‘z ichiga olmagan.

**8:1** *Zaytun tog‘i* — Quddus shahrining sharqiy devori bo‘ylab o‘tgan Qidron soyligining narigi tomonidagi tepalik.

**8:3** *Tavrot tafsirchilari* — Musoning qonunini juda yaxshi bilgan ziyoli odamlar. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi TAVROT TAFSIRCHISI iborasiga qarang.

**8:5** *Muso qonunda...buyurgan* — Qonunlar 22:22-24 ga qarang.

**8:9** *...bu gapni eshitib...* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *bu gapni eshitib, vijdonan fosh bo‘lishdi*.

**8:17** Qonunlar 19:15 ga qarang.

**8:28** *Inson O‘g‘lini yuqoriga ko‘targaningizda...* — Isoning xochdagi o‘limiga ishora (3:14, 12:31-33 ga qarang).

**8:48** *Samariyalik* — yahudiylar Samariyaliklardan hazar qilishar edi. Bu o‘rinda kamsitish niyatida ishlatilgan. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi SAMARIYALIK so‘ziga qarang.

**8:58** *...Ibrohim tug‘ilmasdan oldin Men bor bo‘lganman* — Isoning bu gapini yahudiylar kufrlik deb hisoblab, Uni toshbo‘ron qilmoqchi bo‘ldilar, chunki faqatgina Xudo O‘zi

haqida shunday deb ayta olardi (Chiqish 3:14, Ishayo 41:4 ga qarang).

**8:59** Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida quyidagi so‘zlar oyatga qo‘shimcha qilingan: *U ularning orasidan o‘tib ketdi, hech kim buni sezmadi*.

**9:16** *...U Shabbat kuniga rioya qilmayapti...* — farziylar Tavrotdagi qonunni (Chiqish 34:21 ga qarang) o‘zlaricha jiddiy sharhlab, hatto inson hayotiga oid ikir–chikirlarni ham qonun darajasiga ko‘targanlar. Shuning uchun ular Iso qilgan ishni Shabbat kuniga xilof ish deb hisoblaganlar.

**9:35** *Inson O‘g‘li* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qo‘lyozmalarida *Xudoning O‘g‘li*.

**10:22** *Ma’badni bag‘ishlash bayrami* — bu bayramning yana bir nomi Xanuka. Xanuka bayrami Xislav oyida — ibroniy kalendarining to‘qqizinchi oyi, 25 kunida boshlanib, 8 kun nishonlanardi. Hozirgi kalendarga ko‘ra, bu oy taxminan noyabrning o‘rtasidan boshlanadi. Ma’bad Antiox IV tomonidan harom qilingandan keyin (Doniyor 9:27 ning oxirgi izohiga qarang), yahudiy vatanparvari Yahudo Makkavey tomonidan miloddan oldingi 165 yilda o‘z holiga keltirilib, Xudoga bag‘ishlangan. Ma’badning tiklanishi va Xudoga bag‘ishlanishi Xanuka bayrami davomida nishonlanardi.

**10:23** *Sulaymon ayvoni* — oldi ochiq, keng joy. Bu ayvon Ma’bad hovlisining sharqiy devori bo‘ylab qurilgan bo‘lishi mumkin. Uning qator baland ustunlari bo‘lgan. Shoh Hirod qurdirgan bu Ma’badning loyihasi va rasmi lug‘atdan keyin ilova qilingan “Rasmlar va loyihalar” bo‘limida berilgan.

**10:34** *Muqaddas bitiklar* — yunoncha matnda *qonun*. Ba’zan Eski Ahd kitoblari to‘plamiga nisbatan qonun so‘zi ishlatilgan.

**10:34** Zabur 81:6 oyatga va Zabur 81:1 ning ikkinchi izohiga qarang.

**10:36** *Xudoning O‘g‘li* — Iso Masihning unvoni. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XUDONING O‘G‘LI iborasiga qarang.

**11:1** *Baytaniya qishlog‘i* — Quddus shahrining sharqiy devori bo‘ylab o‘tgan Qidron soyligining narigi tomonida joylashgan edi.

**11:2** *...o‘sha Maryam edi* — 12:1-8 ga qarang.

**11:4** *Xudo O‘g‘li* — Iso Masihning unvoni. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi XUDONING O‘G‘LI iborasiga qarang.

**11:16** *To‘ma, ya’ni Didimus* — uning oramiycha ismi To‘ma, yunonchasi Didimus edi. Ikkala tilda ham bu ismlarning ma’nosi — *egizak*.

**11:18** *uch chaqirimcha* — yunoncha matnda *o‘n besh stadion*, taxminan 3 kilometrga to‘g‘ri keladi.

**11:47** *Oliy kengash* — yahudiylarning siyosiy va diniy kengashi. To‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish uchun lug‘atdagi OLIY KENGASH iborasiga qarang.

**11:49** *Kayafas* — 18:13 izohiga qarang.

**11:52** *Xudoning tarqoq bo‘lgan hamma farzandlari* — Iso Masihga imon keltiradiganlarning hammasiga ishora (1:11-12 ga qarang).

**11:54** *Efrayim shahri* — O‘fra nomi bilan ham mashhur bo‘lgan, Quddusdan qariyb 24 kilometr shimoli–sharqda joylashgan shahar nazarda tutilgan bo‘lsa kerak.

**12:1** *Baytaniya* — 11:1 izohiga qarang.

**12:3** *bir shisha* — yunoncha matnda *litra*, taxminan yarim litrga toʻgʻri keladi.

**12:3** *sunbul moyi* — yana bir nomi *nard*. Bu moy quyuq, och jigar rang, juda ham qimmat, juda xushboʻy boʻlgan.

**12:5** *uch yuz kumush tanga* — yunoncha matnda *uch yuz dinor*. Dinor Rim kumush tangasi boʻlib, mardikorning bir kunlik ish haqi edi.

**12:7** *...u Meni dafn kunimga tayyorladi* — yahudiylarning urf–odatiga koʻra, jasad dafn qilinishidan oldin unga xushboʻy hidli ziravorlar va moylar surtilar edi (Luqo 23:55-56, Yuhanno 19:38-40 ga qarang). Maryam qilgan ishining maʼnosini oʻzi tushunganmi yoki yoʻqmi, aniq emas, ammo uning bu harakati Isoning oʻlimi yaqinlashib qolganini bildirardi.

**12:13** *palma daraxti shoxlari* — hayot va najot ramzi boʻlib, gʻolib lashkarboshiga yoki shohga hurmat–ehtirom koʻrsatishda foydalanilgan.

**12:13** *Egamiz nomidan kelayotgan Inson baraka topsin!* — Zabur 117:26 ga qarang.

**12:15** *Quddus xalqi* — yunoncha matnda *qiz Sion*, Quddus ahliga nisbatan qoʻllangan sheʼriy usul. Quddusdagi Maʼbad qurilgan tepalik Sion togʻi deb atalgan. Eski Ahddagi sheʼriy parchalarda va paygʻambarlar bitiklarida Sion soʻzi koʻpincha Quddus shahriga yoki Xudoning xalqiga nisbatan ishlatilgan. Toʻliqroq maʼlumotga ega boʻlish uchun lugʻatdagi SION soʻziga qarang.

**12:15** Zakariyo 9:9 ga qarang.

**12:20** *gʻayriyahudiylar* — yunoncha matnda *yunonlar* (7:35 izohiga qarang). Bu oʻrinda yahudiylarning Xudosiga sajda qiladigan, ammo yahudiylarning madaniyati va urf–odatlarini toʻliq qabul qilmagan odamlar nazarda tutilgan boʻlishi mumkin.

**12:31** *bu dunyoning yovuz hukmdori* — yaʼni shayton.

**12:38** Ishayo 53:1 ga qarang.

**12:40** Ishayo 6:10 ga qarang.

**12:47** *...rioya qilmasa...* — yunoncha matndan. Baʼzi yunon qoʻlyozmalarida *ishonmasa*.

**13:6** *Butrus* — yunoncha matnda *Shimoʻn Butrus* (shu bobning 9, 24, 36–oyatlarida ham bor). 1:40 izohiga qarang.

**13:18** Zabur 40:10 ga qarang.

**13:19** *Masih Men ekanligim* — yoki *Men oʻsha ekanligim*, yaʼni Xudo tomonidan yuborilgan, Muqaddas bitiklarda bashorat qilinganiday, xiyonat qurboni boʻladigan Masih.

**13:23** *Isoning sevikli shogirdi* — yaʼni Yuhanno.

**14:7** *...tanib–bilasizlar* — yunoncha matndan. Baʼzi yunon qoʻlyozmalarida *tanib–bilgan boʻlardingiz*.

**14:16** *Homiy* — Muqaddas Ruhning unvoni. Bu oʻrinda ishlatilgan yunoncha soʻz birortasiga yordam berish uchun doim uning yonida boʻladigan insonni yoki Zotni bildiradi. Bu soʻzni *shafoat qiluvchi*, *nasihatgoʻy*, *madadkor*, *yupatuvchi* deb tarjima qilsa ham boʻladi. Bu yunoncha soʻz yuqoridagi soʻzlarga qaraganda kengroq maʼnoga ega

boʻlgani uchun, oʻzbek tiliga *Homiy* deb tarjima qilingan.

**14:26** *Homiy* — shu bobning 16–oyati izohiga qarang.

**14:30** *bu dunyoning yovuz hukmdori* — ya’ni shayton.

**15:20** *degan soʻzim* — 13:12-17 ga qarang.

**15:25** Zabur 34:19, 68:5 ga qarang.

**15:26** *Homiy* — 14:16 izohiga qarang.

**16:7** *Homiy* — 14:16 izohiga qarang.

**16:11** *bu dunyoning yovuz hukmdori* — ya’ni shayton.

**16:16** Yunoncha matndan. Ba’zi yunon qoʻlyozmalarida quyidagi soʻzlar Isoning gapiga qoʻshimcha qilingan: *chunki Men Otamning oldiga ketyapman*.

**17:11** *Menga bergan Oʻz noming qudrati ila ularni omon saqla* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qoʻlyozmalarida *Oʻz noming qudrati ila Menga berganlaringni omon saqla*.

**17:12** *...Menga bergan noming qudrati ila ularni omon saqladim. Ularni asradim...* — yunoncha matndan. Ba’zi yunon qoʻlyozmalarida *...noming qudrati ila ularni omon saqladim. Sen Menga berganlarni asradim...*.

**17:12** *Muqaddas bitiklarda aytilganlar* — 13:18-19 ga va Havoriylar 1:15-20 ga qarang.

**17:12** *halokatga mahkum boʻlgan odam* — Isoga xiyonat qilgan Yahudo nazarda tutilgan.

**18:1** *Qidron soyligi* — Quddus shahridan sharqda, shahar bilan Zaytun togʻi oraligʻidan oʻtgan.

**18:3** *Ma’bad mirshablari* — 7:32 ning ikkinchi izohiga qarang.

**18:9** *Sen Menga bergan odamlardan hech birining yoʻqolishiga yoʻl qoʻymadim* — 6:39, 17:12 ga qarang.

**18:10** *Butrus* — yunoncha matnda *Shimoʻn Butrus* (shu bobning 15, 25–oyatlarida ham bor). 1:40 izohiga qarang.

**18:11** *azob kosasi* — yunoncha matnda *kosa*, Isoning azoblari va xochdagi oʻlimiga ishora. “Kosadan ichmoq” iborasi azob–uqubat tortib, jazo olish ma’nosini bildiradi (misol uchun, Zabur 74:9, Ishayo 51:17, Yeremiyo 25:15 ga qarang).

**18:13** *Xanan...Kayafasning qaynatasi edi* — Xanan milodiy 6-15 yillarda oliy ruhoniy boʻlib xizmat qilgan. Rim hukumati uni bu lavozimdan chetlatgandan keyin, uning oʻrnini kuyovi Kayafas egallab, milodiy 18-37 yillarda oliy ruhoniy boʻlib xizmat qildi. Xanan oʻz vazifasidan chetlatilganiga qaramay, xalq uni hamon oliy ruhoniy deb bilardi, u yahudiylar jamiyatida yuksak e’tibor va nufuzga ega edi (Luqo 3:2 ga qarang).

**18:14** *oʻsha Kayafas* — 11:49-50 ga qarang.

**18:15** *oliy ruhoniy Xanan* — shu bobning 13–oyati izohiga qarang.

**18:24** *oliy ruhoniy Kayafas* — shu bobning 13–oyati izohiga qarang.

**18:28** *hokim Pilat* — Rim hukumati tomonidan Yahudiya viloyatiga tayinlangan hokim.

**18:28** *...bulgʻanishni istamay hukumat saroyiga kirmadilar* — yahudiylarning ta’limotiga koʻra, gʻayriyahudiylarning uyiga kirish ularni harom qilib qoʻyardi.

**18:28** *Fisih taomi* — bir kun oldin, ya’ni Nison oyining oʻn toʻrtinchi kuni Fisih ziyofatida yeyiladigan taom emas. Yangi Ahdda “Fisih” nomi ostida Fisih ziyofati va undan keyin yetti kun davomida nishonlanadigan Xamirturushsiz non bayrami nazarda tutilgan. Xamirturushsiz non bayrami davomida boshqa taomlar ham tanovul qilinardi, mazkur oyatda oʻsha taomlarga ishora qilingan. Toʻliqroq ma’lumotga ega boʻlish uchun BAYRAMLAR soʻzi ostida berilgan FISIH ZIYOFATI va XAMIRTURUSHSIZ NON BAYRAMI iboralariga qarang.

**18:32** *Iso…aytgan soʻzlari amalga oshishi uchun…* — Iso, yuqoriga koʻtarilaman, deganda, Oʻzining xochga mixlanishini nazarda tutgan edi (3:14, 8:28, 12:31-33 ga qarang). Rim qonunlariga koʻra, faqatgina Rim hukmdori jinoyatchini oʻlimga hukm qila olar edi. Odatda, jamiyatdagi past tabaqa yoki hukumat dushmani hisoblangan odamlar xochga mixlanish yoʻli bilan jazolanar edi.

**19:1** *Pilat* — 18:28 ning birinchi izohiga qarang.

**19:6** *Ma’bad mirshablari* — 7:32 ning ikkinchi izohiga qarang.

**19:7** *…qonunimizga koʻra…* — Levilar 24:16 ga qarang.

**19:7** *Xudoning Oʻgʻli* — Iso Masihning unvoni. Toʻliqroq ma’lumotga ega boʻlish uchun lugʻatdagi XUDONING OʻGʻLI iborasiga qarang.

**19:12** *Qaysar* — barcha Rim imperatorlariga berilgan unvon. Bu oʻrinda Qaysar Tiberiyga ishora qilingan. U milodiy 14-37 yillarda hukmronlik qilgan.

**19:13** *oramiycha* — 5:2 ning birinchi izohiga qarang.

**19:14** *Fisih bayrami* — Nison oyining oʻn beshinchi kunida boshlanadigan “Xamirturushsiz non bayrami”ga ishora. Yangi Ahdda “Fisih bayrami” nomi ostida Fisih ziyofati va undan keyin yetti kun davomida nishonlanadigan Xamirturushsiz non bayrami nazarda tutilgan. Yahudiylarning urf–odatiga koʻra, yangi kun quyosh botgandan keyin boshlanar edi. Shuning uchun bu oyatda Yuhanno Xamirturushsiz non bayramidan oldingi kunni, ya’ni Nison oyining oʻn toʻrtinchi kuni quyosh botmasdan oldingi paytni nazarda tutgan. Zamonaviy kun hisobiga koʻra, bu payt juma kunining quyosh botmasdan oldingi vaqtiga toʻgʻri keladi. Fisih ziyofati Nison oyining oʻn toʻrtinchi kuni boshlanganda, ya’ni payshanba kuni quyosh botgandan keyin, kechqurun yeyilardi. Toʻliqroq ma’lumotga ega boʻlish uchun BAYRAMLAR soʻzi ostida berilgan FISIH ZIYOFATI va XAMIRTURUSHSIZ NON BAYRAMI iboralariga qarang.

**19:14** *tush mahali* — yunoncha matnda *oltinchi soat*, yahudiylarning urf–odatiga koʻra, kunning bu payti oʻsha soat bilan belgilanar edi.

**19:17** *xoch* — bu oʻrinda xochning koʻndalang yogʻochiga ishora qilingan. Oʻlimga mahkum qilingan inson bu yogʻochni hukm ijro qilinadigan joygacha oʻzi koʻtarib borishi kerak edi.

**19:24** Zabur 21:19 ga qarang.

**19:25** *Magdala* — Jalila koʻlining gʻarbiy qirgʻogʻidagi qishloq.

**19:26** *sevikli shogird* — ya’ni Yuhanno.

**19:28** *Muqaddas bitiklar* — Zabur 21:16, 68:22 ga qarang.

**19:29** *arzon sharob* — bu oʻrinda ishlatilgan yunoncha soʻz avom xalq kunda ichadigan

nordon sharobga ishora qiladi. Bu sharob Rim askarlari uchun oʻsha yerga olib kelingan boʻlishi mumkin.

**19:29** *tayoq* — yunoncha matnda *issop*. Issop buta boʻlib, uning novdasi nazarda tutilgan.

**19:31** *nihoyatda tabarruk kun* — har bir Shabbat kuni muqaddas hisoblanardi. Bu yil Xamirturushsiz non bayramining birinchi kuni Shabbat kuniga toʻgʻri kelgani uchun bu kun nihoyatda tabarruk hisoblangan.

**19:31** *...boldirlarini sindirib tashlab...* — xochga mixlangan odamlar nafas olish uchun oyoqlarini tirab tik turardilar. Ular tezroq jon berishi uchun, boldirlari sindirilgan.

**19:35** *Bu hodisani koʻrgan kishi* — bu yerda muallif oʻziga ishora qilyapti. Shu bobning 26–oyatiga va oʻsha oyatning izohiga qarang.

**19:36** Zabur 33:21 ga qarang. Yana Sahroda 9:12 ga qarang.

**19:37** Zakariyo 12:10 ga qarang.

**19:38** *Arimateya* — Quddusdan 35 kilometr shimoli–gʻarbda joylashgan shahar.

**19:39** *Nikodim* — 3:1-15 ga qarang.

**19:39** *ikki pud* — yunoncha matnda *yuz litra*, taxminan 34 kiloga toʻgʻri keladi.

**19:39** *mirra* — maʼlum bir daraxtlar yelimidan tayyorlangan xushboʻy moy.

**20:1** *Magdala* — Jalila koʻlining gʻarbiy qirgʻogʻidagi qishloq.

**20:2** *Butrus* — yunoncha matnda *Shimoʻn Butrus* (shu bobning 6–oyatida ham bor). 1:40 izohiga qarang.

**20:2** *Isoning sevikli shogirdi* — yaʼni Yuhanno.

**20:16** *oramiycha* — 5:2 ning birinchi izohiga qarang.

**20:20** *qoʻllari* — yunoncha matndan. Qadimiy slavancha tarjimada *qoʻl–oyoqlari*.

**20:24** *Toʻma, yaʼni Didimus* — 11:16 izohiga qarang.

**20:31** *Xudoning Oʻgʻli* — Iso Masihning unvoni. Toʻliqroq maʼlumotga ega boʻlish uchun lugʻatdagi XUDONING OʻGʻLI iborasiga qarang.

**21:1** *Jalila koʻli* — yunoncha matnda *Tiberiyas koʻli*, Jalila koʻlining yana bir nomi.

**21:2** *Butrus* — yunoncha matnda *Shimoʻn Butrus* (shu bobning 3, 7, 11–oyatlarida ham bor). 1:40 izohiga qarang.

**21:2** *Toʻma, yaʼni Didimus* — 11:16 izohiga qarang.

**21:2** *Zabadiyoning oʻgʻillari* — yaʼni Yoqub va Yuhanno.

**21:7** *Isoning sevikli shogirdi* — yaʼni Yuhanno.

**21:8** *ikki yuz tirsak* — taxminan 90 metrga toʻgʻri keladi.

**21:15** *Shimoʻn Butrus* — Iso Masih Shimoʻnga Butrus ismini bergan edi (Mark 3:16, Luqo 6:14 ga qarang). Baʼzan u haqda soʻz yuritilganda, ikkala ism ham birgalikda ishlatiladi.

**21:15** *Yuhanno* — yunoncha matndan. Baʼzi yunon qoʻlyozmalarida bu ismning boshqa varianti *Yunus*. Shu bobning 16, 17–oyatlarida ham bor.

**21:19** *...Butrusning qay yo'l bilan o'lib, Xudoni ulug'lashini bildirdi* — bu gap Butrus o'z imoni uchun qatl qilinishini anglatadi. Shu bobning 18–oyatidagi "qo'llaringni uzatasan" so'zlari xochga mixlanishga ishora qilayotgan bo'lishi mumkin. An'anaga ko'ra, Butrus oyog'i osmondan qilib xochga mixlangan.

**21:20** *Isoning sevikli shogirdi* — ya'ni Yuhanno.

**21:25** Yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida quyidagi so'z oyatga qo'shimcha qilingan: *omin*.